U. BURHANOV, T. ATAMURODOV

DAVLAT XARIDI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

U. BURXANOV, T. ATAMURADOV

DAVLAT XARIDI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 340000 – «Iqtisod va biznes ta’lim» yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

«TAFAKKUR BO‘STONI»
Toshkent – 2012

65.9(2)42
B 91

УДК: 336.2(075)
КВК 65.42ya73
B95

Ilmiy muharrir:
Iqtisod fanlari nomzodi, dosent ***T. Baymuratov***

Taqrizchilar:
Iqtisod fanlari nomzodi, dosent ***A. Shernayev***
Iqtisod fanlari nomzodi, dosent ***E. Xoshimov***

Burxanov U.

B95 Davlat xaridi: o'quv qo'llanma/ U. Burxanov, T. Atamuradov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi; — Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. — 144 b.
ISBN 978-9943-36-260-4
1.Atamuradov T.

O'quv qo'llanmada davlat xaridi tizimini tashkil etish, uning modellari, davlat xaridini tashkil etishning xalqaro tajribalari o'rganilgan. Shuningdek, tender savdolarini tashkil etish, davlat xaridini monitoringi, strategiyasi va qo'llaniladigan elektron texnologiyalar ilmiy amaliy jihatdan talqin etilgan.

Davlat xaridini tashkil etishda qo'llaniladigan tushunchalarga ta'riflar berilgan, statistik ma'lumotlar jadval va chizmalar shaklida keltirilgan.

O'quv qo'llanma barcha iqtisodiy yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassis amaliyotchilarga mo'ljallangan.

УДК: 336.2(075)
КВК 65.42ya73

ISBN 978-9943-36-260-4

© U.Burxanov, T.Atamuradov, 2012
© Cho'lpon nomidagi NMIU, original-maket 2012
© Tafakkur bo'stoni, 2012

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat, davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, xaridning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Davlat xaridini tashkil etishning yangicha tamoyillarga asoslangan tizim shakllantirilar ekan, tabiiy ravishda, bu sohada o'z echimini kutayotgan qator mavjud muammolar mavjudligini ko'rsatish mumkin. Jumladan:

– davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi mamlakatimiz miqyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi;

– davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yetarli darajada rivojlanmaganligi;

– byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklarning mavjudligi;

– davlat xaridini amalga oshiruvchi va uni nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarning yetishmasligi;

– xarid tizimi hamda uning mexanizmlarini shaffof emasligi.

SAMARQAND ... INSTITUTI
... XIZMATI INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

– davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi;

– kichik va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridi tizimida ishtiroki bo'yicha tajribalarning yetishmasligi;

– davlat xaridini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishning zarurligi va boshqalar.

Davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatini tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes subyektlarini ishtirokni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat xaridini boshqarish va davlat xarajatlarini amalga oshirishning ayrim nazariy-amaliy hamda uslubiy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.Vahobov, N.Jumayev, N.Haydarov, G.Qosimova, M.Olloyorov, D.Xolmuradov kabilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Davlat xaridini tashkil etishning amaliy-huquqiy asoslarini shakllantirishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi va Moliya vazirligi hamkorligidagi «O'zbekistonda davlat moliyasi islohotlari» loyihasi katta hissa qo'shdi. Jumladan, mazkur loyiha doirasida hammualliflardan U.Burxanov tomonidan «Davlat xaridi» o'quv qo'llanmasi tayyorlangan edi. O'quvchilarga havola etilayotgan mazkur qo'llanma Toshkent moliya instituti, Moliya vazirligi G'aznachiligi hamkorligida va hammualliflardan Toshkent

Iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi T.Atamuradov tomonidan qayta ishlanib, so‘ngi amaliy o‘zgarishlar nazariy-uslubiy jihatdan boyitildi.

Shu sababli, mualliflar yuqorida nomlari keltirilgan tashkilot rahbarlari va ekspertlariga, shuningdek, mazkur qo‘llanmani tayyorlashda ishtirok etgan barcha mutaxassislarga, taqrizchilarga o‘zlarining chuqur minnatdorchiligini izhor etadi.

Mualliflar

I bob. DAVLAT XARIDINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

§ 1. Davlat xaridinini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltiriligan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu o'z navbatida, davlat mablag'larini sarflanishi samaradorligini ta'minlashga, uning zamonoviy boshqaruv mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi.

Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda.

Ma'lumki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini ko'tarishga, hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat byudjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

Davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega.

Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin egallaydi va fondlar hamda investitsiyani samarali

o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. O‘zbek tilidagi «xarid« terminii (inglizchada, procurement — prokyurment) «sotib olish» ma’nosi bilan bir ma’noda ishlatilib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko‘rsatilgan xizmatlarni ma’lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Davlat xaridi — bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to‘liq davlat mablag‘lari evaziga sotib olishdir[1].

Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondoshuv to‘g‘riroq bo‘ladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog‘liq barcha jarayonlar *davlat xaridi tizimini* yuzaga keltiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta’minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

— iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo‘lgan infratuzilmalar);

— ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O‘zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me’yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo‘nalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg‘or xorijiy tajribalardan

---

[1] *У. Бурханов.* Государственные закупки. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi ko'rsatilagan yo'nalishlardagi muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa subyektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Xususan, davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha tizimli yondoshuvga bo'lgan talab hamda davlat xaridining iqtisodiyotning ayrim sohalariga bo'lgan ta'sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari shakllantirilmoqda.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YaIMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi[1]. Bularni inobatga olib davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi:

– davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi;

– ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;

---

[1] О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. UNDP. Ташкент 2008.

– sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etish mumkin;

– kichik biznes vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarli mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimini islohotlar, nafaqat, o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga ham katta turtki berdi.

2000- yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lishsa, hozir ular qurilish-montaj va loyihalarning turli-tumanligi va sifati bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishmoqda.

Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital qurilish sohasida davlat buyurtmasi aholi bandligini oshirishda ham muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday misolni mebel ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan ham keltirib o'tish mumkin[1].

O'zbekiston Respublikasida *davlat xaridining subyektlari* quyidagilar hisoblanadi:

Davlat buyurtmachilari: byudjet mablag'larini oluvchilar va byudjet hamda byudjetdan tashqari fondlar mablag'larini taqsimlovchilar:

– byudjet mablag'lari oluvchi tashkilotlar;

– byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning ijroiy direksiyalari;

---

[1] *У.Бурханов.* Государственные закупки. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

– Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, viloyatlar hokimligi va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;

– hukumat kafolati ostida xalqaro grant va qarz olgan hamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;

– davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari.

Tashqi nazorat organlari (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi);

Hukumat (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi);

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari (nazoratni tashkil etuvchi organlar):

– Moliya vazirligi;

– Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;

– Davarxitekqurilish;

Tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar: tovarlar (xizmatlar, ishlar) yetkazib beruvchi xo'jalik subyektlari.

Xaridni tashkil etish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:

– xizmat ko'rsatuvchi banklar;

– transport-ekspeditorlik kompaniyalari;

– maslahat va ekspertiza hamda boshqa tashkilotlar;

– mavjud qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Davlat xaridining *predmeti*, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar hisoblanadi.

Evropa mamlakatlarida davlat xaridini tovarlar, ishlar va xizmatlarga ajratish bo'yicha YuNSITRAL[1] tomonidan taklif etilgan tasniflashga asosan:

(United Nations Commission on International Trade Law) – Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMTning Komissiyasi. 1966- yilda BMTning xalqaro savdo huquqini yagonalashtirish bo'yicha qarori asosida tashkil etilagn. 36 ta davlat vakillaridan iborat (14 Yevropa va boshqa davlatlar, 16 Afro-Osiyo va 6 Lotin amerikasi davlatlari). Shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan.

Tovarlarga – xomashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi.

Ishlar deganda – qurilish, ta'mirlash, binoni, inshoot va obyektlarni buzish yoki ta'mirlash,bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari masalan, geodeziya va burg'alash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali suratga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo'lmasa) tushuniladi.

Xizmatlarga esa – tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti tushuniladi.

Xaridning turli kategoriyalari bo'yicha xaridni qonuniy tartibga solish (g'olibni aniqlashda tender shartlari va usullaridan foydalanish) turlicha bo'ladi

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratining dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovasion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish har bir mamlakat hukumatlari oldida muhim masala bo'lib qolmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. *O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining xarajatlari qaysi yo'nalishlarda amalga oshiriladi?*
2. *Davlat xarajalari davlat xarididan nimasi bilan farqlanadi?*
3. *Davlat xaridi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir etadi?*
4. *Davlat xaridining predmeti nima?*
5. *Davlat buyurtmachilari kimlar?*
6. *O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini isloh etish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlarni tushuntirib bering.*

§ 2. Davlat xaridini tashkil etishning milliy va xalqoro huquqiy asoslari

Davlat xaridini boshqarish borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ajralmas qismi bu — davlat xaridini boshqarish bo'yicha yangi huquqiy me'yorlarga asoslangan qonunchilikni shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini boshqarishning mavjud huquqiy asoslari quyidagilardan tashkil topgan:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik kodeksi (4-paragraf «Davlat shartnomalari asosida tovarlar yetkazib berish»).

2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

— 2000- yil 14- dekabrdagi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi;

— 1998- yil 29- avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi;

— 2004- yil 26- avgustdagi «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

— 2003- yil 3- iyuldagi 302-sonli «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadibirlari to'g'risida»gi;

— 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi;

— 2000- yil 8- apreldagi 136-sonli «2000- yil davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan oziq-ovqat asosiy turlari to'g'risida»gi va unga ilova qilingan «Ijtimoiy soha tashkilotlari, maxsus iste'molchilar va davlat zaxirasi uchun asosiy oziq-ovqat bilan ta'minlash tartibi»;

— 1997- yil 26- sentabrdagi 454-sonli «Davlat ehtiyojlari uchun oziq-ovqat yetkazib berishni tanlov asosida tashkil etish to'g'risida» va unga ilova qilingan «Davlat ehtiyojlari uchun import oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish tenderlarini o'tkazish tartibi»;

– 2007- yil 20- martdagi 53-sonli qarorga ilova qilingan «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida» nizomi;

– 1997- yil 14- avgustdagi 397-sonli «Davlat ehtiyojlari uchun asosiy oziq-ovqat turlarini sotib olish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi va Vazirlar Mahkamasining boshqa Qarorlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o't-gan me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

– 2009- yil 16- sentabrda ro'yxatgan olingan 2007-sonli «Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari»;

– 2009- yil 16- aprelda ro'yxatgan olingan 1941-sonli «Mu-dofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining byudjet xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan byudjet xarajatlarning g'azna ijrosi tartibi haqida nizom»;

– 2009- yil 19- mayda ro'yxatgan olingan 1969-sonli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turadigan tashkilotlarning set, shtat va kontingentlari bo'yicha rejaning bajarilishi to'g'risidagi choraklik va yillik hisobotlar shakllarini tasdiqlash haqida» buyrug'i;

– 2007- yil 5- dekabrda ro'yxatdan o'tgan 1746-sonli «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida byudjetdan mablag' oluvchilarning hisobvaraqlarini yuritish qoidalari»;

– 2000- yil 5- avgustda ro'yxatdan o'tgan 305-sonli «Hukumat kafolati ostida va davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari uchun, buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan sotib olinadigan qurilish materiallari va konstruk-siyalarning maksimal narxlarini o'rnatish tartibi bo'yicha yo'riqnoma»;

– 2010- yil 11- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan «Davlat xaridlari tizimini muqo-billashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi PQ-1475 sonli Qarori va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida «Davlat xaridi to‘g‘risida» Qonun qabul qilinmagan. O‘zbekistonda davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga, xususan, «Davlat xaridi to‘g‘risida»gi Qonunni qabul qilishning dolzarbligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

– davlat xaridini tashkil etishda ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash;

– davlat xaridini amalga oshiruvchi davlat subyektlarini vakolatlarini tartibga solish;

– xaridni rejalashtirish va tartibga solish;

– mol yetkazib beruvchilarni huquqiy himoyasini ta’minlash;

– tender asosida savdolarda xarid mexanizmalarini tartibga solish kabi muammolar.

«Davlat xaridi to‘g‘risida» Qonunning qabul qilinishi bilan quyidagi dolzarb masalalarni huquqiy tartibga solish imkoniyati yuzaga keladi:

– O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirishning yagona huquqiy asosini shakllantirish;

– tartibga solish sohasini aniq belgilab olish;

– hukumat va davlat boshqaruv organlarining huquqiy vakolatlarini aniq tartibga solish;

– xarid turlari va uni tashkil etishning barcha jarayonlarini tartibga solish;

– davlat buyurtmachilarining vakolatlari va majburiyatlarini aniqlashtirish;

– xarid usuli, qaror qabul qilish, u yoki bu mexanizmni tanlash shartlarini aniqlashtirish;

– davlat buyurtmachisining shartnoma muddatlari va moliyalashtirishni o‘z vaqtida amalga oshirmagan hollardagi majburiyatlarini tartibga solish;

– shartnomalarni tuzish shartlarini, shuningdek, shartnomada aks ettirilishi lozim bo‘lgan majburiy me’yorlar, shartlar va yo‘riqlarni o‘rnatish;

– tender g‘olibi bilan qaysi hollarda shartnoma bekor qilinishi tartiblarini belgilash;

– xarid etuvchining vakolatli organlar oldidagi mas'uliyati, va ayrim hollarda, jamoat oldida hisob berishini tartibga solish va boshqa shu kabi holatlar.

Hozirda dunyoning turli mamlakatlarida davlat xaridini amalga oshirishga huquqiy asos sifatida qo'llaniladigan bir nechta hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlarni o'rganib, mazkur mamlakatlarda davlat xaridini o'ziga xosligini ko'rsatish mumkin.

Yunsitral «Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida» qonuni 1994- yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamoat uchun xaridni amalga oshirish buyicha xalqaro tajribani o'zida mujassamlashtiradi.

Ushbu qonun, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda, xususan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat buyurtmasini joylashtirish bo'yicha model sifatida ishlab chiqilgan.

Yunsitral shakliy qonunidan ko'zlangan maqsad raqobatni maksimal darajada rivojlantirish, davlat xaridini amalga oshirishda mol yetkazib beruvchilarga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlash, xarid jaryonini ochiqliligi hamda obyektivligini oshirishdan iborat. Mazkur qonun, milliy xavfsizlik va mudofaa sohalaridan tashqari, barcha sohalarda xaridni amalga oshirish uchun qo'llashni nazarda tutadi.

Mazkur hujjatning *asosiy tamoyillariga* quyidagilar kiradi:

1. *Ochiqlilik va shaffoflik* qismida – xarid to'g'risida yozma shakldagi hisobot yuritilishi (hisobotda tanlovni yoki boshqa turdagi xaridni amalga oshiruvchi davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshirilgan barcha chora-tadbirlar o'z aksini topishi shart), shuningdek, davlat burtmachisining shartnomani tuzishi haqida ommaviy e'lon qilishi;

2. *Kvalifikasiya qism* bo'yicha – mol yetkazib beruvchilar kvalifikasiyasiga bo'lgan talablarni tartibga solish, ular kvalifikasiyasini o'rganish jarayoni va tartibi, shuningdek, birlamchi kvalifikasion tanlovlarni amalga oshirish tartibi;

3. *Jaryonni amalga oshirish sifat*ida – ochiq tanlov xaridni amalga oshirishning asosiy usuli ekanligi; oddiy mahsulotlar uchun, nafaqat ochiq, balki yopiq tanlov yo'li bilan, ya'ni kotirovka

so‘rovnomasi va yagona mol yetkazib beruvchidan xarid qilish; ikki bosqichli tanlov o‘tkazish, raqobatli muzokara olib borish, murakkab mahsulotni yoki maslahat xizmatlarni sotib olish uchun taklif so‘rovnomasi;

4. *Ochiq tanlov* jarayoni: savdo to‘g‘risida e’lon nashr etish; potensial mol yetkazib beruvchilarga tanlov shartlarini yetkazish; tanlov arizalarini tayyorlash,zaruriy o‘zgartirishlar va tushuntirishlar kiritish; tanlov arizalarini berish; tanlov arizalarini ishtirokchilar oldida ochish; arizani baholash; arizani qabul qilish va mol yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomani qonuniy kuchga kirishi; Qonun xaridning boshqa turlarini amalga oshirishni detallashtirgan holda keltirib o‘tadi (ikki bosqichli tanlovlar, taklif so‘rovnomasi va raqobat muzokaralari).

5. Yuzaga keladigan *munozaralarni hal etish* bo‘limida, mol yetkazib beruvchini davlat buyurtmasini joylashtirishi bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni ma’muriy, sud organlari orqali hal etish mumkinligi aks ettirilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, Yunsitral namunaviy qonunchligi bo‘lib, u model qonun sifatida juda katta rol o‘ynadi. Rossiya Federatsiyasi, Qazog‘iston, Qirg‘iziston va Sharqiy Yevropa davlatlarining davlat xaridini tartibga solish bo‘yicha amaldagi qonunchligi asosida mazkur hujjat tamoyillari yotadi.

Xalqaro savdo tashkilotida davlat xaridi bo‘yicha shartnoma. 1994- yilda ko‘p tomonlama savdo muzokaralarining Uruguvay raundida qabul qilingan Hukumat xaridi bo‘yicha Kelishuv (Agreement on Government Procurement), o‘z ahamiyatiga ko‘ra, ikkinchi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. U Savdo va tariflar bo‘yicha umumiy shartnomaning (GATT) muhim elementi hisoblanadi va Xalqaro savdo tashkilotida (XST) ishtirok etish doirasida mamlakatlar tomonidan imzo chekiladi. Hukumat xaridi bo‘yicha Shartnomani imzolash XSTga kirishning sharti hisoblanmasada, ammo keyingi yillarda XSTning yirik ishtirokchilari bo‘lgan AQSh, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Isroil, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlar nomzod mamlakatlar uchun ushbu hujjatni imzolanishini ikki yoqlama muzokoralarning sharti sifatida qo‘ymoqdalar. Ammo, 2008- yilga kelib, XSTga

a'zo bo'lgan 152 ta davlatdan faqatgina 39 tasi Hukumat xaridi buyicha mazkur Shartnomani imzolaganlar.

Shartnoma milliy davlat xaridi bozorini uni imzolgan mamlakatlardagi mol yetkazib beruvchilar uchun ochib berishi, hamda xorijiy mol yetkazib beruvchilarni milliy mol yetkazib beruvchilar bilan bir xil shartlar asosida faoliyat yuritishiga imkon berishini nazarda tutadi.

Mazkur hujjatdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, xalqaro savdoni rivojlantirish, xorijiy mol yetkazib beruvchilarni diskriminasiya qilishni oldini olish, xarid jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni ochiqligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga muvofiq, davlat buyurtmachisi alohida olingan mol yetkazib beruvchiga (milliy belgisiga ko'ra) davlat buyurtmasini olishda imtiyozli sharoit yaratib bermasligi lozim. Shuningdek, sotib olinadigan tovarlarga xalqaro savdoni chegaralovchi texnik talablar qo'yilmasligi yoki tovarlar va xizmatlarga qo'yiladigan barcha texnik talablar xalqaro me'yorlar asosida bo'lishi shart.

Hukmat xaridi Shartnomasiga ko'ra *davlat xaridini joylashtirishning uchta shakli* keltirilgan: *ochiq, tanlanma, chegaralangan.* Agar savdoda barcha qiziqish bildirgan tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar ishtirok etishi mumkin bo'lsa, bunday jarayon ochiq hisoblanadi. Agar savdoda faqatgina sotib oluvchi tashkilot tomonidan taklif olgan mol yetkazib beruvchilar ishtirok etadigan bo'lsa, bunday jarayon tanlanma deyiladi. Chegaralangan jarayonda sotib oluvchi tashkilot tovar va xizmatlar yetkazib beruvchi tashkilot bilan shartnomada kelishilgan shartlar asosida alohida aloqa o'rnatadi.

Mamlakatimizda davlat xaridi tizimini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar va xalqaro tajribadan kelib chiqib, «Davlat xaridi to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi dolzarb masala ekanligini ta'kidlaymiz. Fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi bilan hozirda mavjud bir nechta qonunosti hujjatlarini unifikatsiya qilish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, u davlat xaridini boshqarishning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirishga imkon beradi.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
46169

Nazorat uchun savollar:

1. *O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy aktlarni sanab bering.*
2. *O'zbekistonda «Davlat xaridi to'g'risida» qonunni qabul qilishining zarurati nimada?*
3. *2010- yil 11- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan «Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi PQ-1475 sonli qarori mohiyatini tushuntirib bering.*
4. *Yunsitral nima?*
5. *Yunsitral tomonidan «Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida» qonun nimani o'zida aks ettiradi va uning asl mohiyati nimada?*
6. *Xalqaro savdo tashkilotida davlat xaridi bo'yicha shartnomadan ko'zlangan maqsad nima?*

§ 3. Davlat xaridinini tashkil etish modellari

Davlat xaridini tashkil etish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganib, quyidagi 1-chizmadan uning turli modellari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.



1-chizma. **Davlat xaridini tashkil etish modellari.**

Markazlashgan model – bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiy hukumatning yagona tarkibiy bo'linmasi – xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Markazlashgan model barcha tarmoq va bo'limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil

etishni nazarda tutadi. Agar, markazlashish darajasi yuqori bo'lsa, barcha turdagi xaridga javobgar bo'lgan maxsus idora (yoki yirik kompaniyalarda xarid departamenti) shakllantiriladi.

Markazlashmagan (taqsimlangan) model – bunda davlatning buyurtmachisi o'z ixtisosligi bo'yicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi. Taqsimlangan modelda kompaniyaning har bir bo'limi (vazirlik, departament va h.k.) o'z ehtiyojlari uchun xaridni mustaqil tarzda amalga oshiradi.

Shu maqsadda, uning tarkibida xaridni amalga oshiruvchi maxsus tuzilma, bo'lim tashkil etilgan.

Ikkala modelning ham yutuq va kamchiliklari mavjud: taqsimlangan model ancha egiluvchan, ammo ko'p xarajat talab etadi.

O'z navbatida, markazlashgan model yirik hajmdagi ulgurji xarid tufayli past baholarni ta'minlaydi, ammo egiluvchan emas va har doim ham tovarlar hamda xizmatlarning arizada ko'rsatilgan xususiyatlarini o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Qisman markazlashgan modelda esa, xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Har qanday mamlakatda ham, davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslarini shakllantirish va uni doimiy tarzda takomillashtirib borish, davlat moliya tizimining muhim strategik vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat xaridini tashkil etish jarayoni, uning tashkiliy shakllarini aniqlab olishdan boshlanadi.

Xalqaro va milliy qonunchilikda o'rnatilgan me'yorlar asosida xaridning qaysi shakli qo'llanilishi aniqlanadi va zaruriy-me'yoriy jarayonlar buyurtmachi tomonidan boshqarilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish xalqaro va milliy qonunchilik asosida tartibga solinadi.

Davlat xaridi tizimini boshqarish bir-biri bilan uzviy bog'langan to'rtta elementni o'z ichiga oladi (2-chizma). Bu elementlar kompleks tusga ega bo'lib, har bir elementni muvoffaqiyatli amalga oshirish, davlat xaridini samarali bo'lishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Davlat xaridini rejalashtirish – keyingi davr uchun byudjetni tuzish va qisman yoki to'liq davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya dasturini tuzish jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayon o'z ichiga:

– byudjet so'rovnomalarini shakllantirish va uni moliya organlariga taqdim etish;

– davlat byudjetini tasdiqlash va byudjet ajratmalari hajmini byudjet mablag'lari oluvchilarga yetkazish;

– xarajatlar smetasini sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar guruhlari buyicha ro'yxatdan o'tkazishni qamrab oladi.



2-chizma. **Davlat xaridini tashkiliy elementlari.**

Bugungi kunda, O'zbekistonda davlat xaridini rejalashtirish amaliyotini o'rganadigan bo'lsak, davlat organlari va tashkilotlarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi haqida axborot oqimining «pastdan-yuqoriga» mexanizmining qonunchilikda ko'zda tutlishiga qaramasdan, ushbu ehtiyojlarni moliyalashtirish hajmlarini aniqlash bir tomonlama tartibda «yuqoridan-pastga» ko'rinishda amalga oshirilishini guvohi bo'lamiz.

Bu davlat organlari va tashkilotlarining ehtiyojlar ro'yxatidan «muhim bo'lmagan», «ortiqcha» va «asoslanmagan» xarajat

bo‘limlarini chiqarib tashlash (qisqartirish) orqali amalga oshiriladi.

Bunday ko‘rinishdagi rejalashtirish mexanizmi asosida, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar ehtiyojlarini hamda unga yetarli miqdordagi moliyalashtirish hajmlarini aniqlashning me’yoriy-xarajat usuli qo‘llaniladi.

Byudjetni shakllantirishda asosiy mezon bo‘lib, byudjetning eng yuqori imkoniyatlarini aniqlash, ya’ni tovar va xizmatlarga bo‘lgan aniq talabni inobatga olmasdan, xarajatlarning yuqori limitini belgilashdir. Boshqacha qilib aytganda, ajratiladigan moliyaviy mablag‘lar real ehtiyojlarga nisbatan yetarli miqdorda emas.

Shundan kelib, chiqadigan bo‘lsak, moliya yil oxirida yuzaga keladigan profisit davlat organlarining moliyaviy ehtiyojlarini to‘la qondirilganligini va ushbu resurslar ortiqchaligini bildirmaydi.

Davlat xaridini rejalashtirish mamlakat byudjetini tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi (investitsion dasturni tayyorlash jarayoni bundan mustasno bo‘lib, u Vazirlar Mahkamasining 2003- yilning 12- sentabrida 395-sonli qaroriga asosan tayyorlanadi). Davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan tovar va xizmatlar, davlat organlari va tashkilotlarining xarajatlar bo‘limlarida mos ravishda aks ettiriladi. Ushbu xarajatlar va ular uchun zaruriy moliyaviy manbalar choraklar bo‘yicha taqsimlangan holda rejalashtiriladi.

Byudjetni shakllantirish pastdan-yuqoriga, ya’ni tumandan respublika darajasiga byudjet so‘rovnomalarini taqdim etish (tuzish) va uni umumlashtirish orqali birlamchi byudjet loyihasini tuzish bilan amalga oshiriladi.

Shundan so‘ng, byudjet loyihasini tuzishda chegaralovchi omillar qo‘llaniladi. Eng asosiy chegaralovchi omil – kelgusi yil uchun davlatning iqtisodiyotga xarajatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti daromadlari ma’lumotlarning so‘ralgan xarajat moddalarini moliyaviy ta’minlash imkoniyatlari hisoblanadi (1-diagramma). Ma’lumki, ushbu mezonlarning qo‘llanilishi, byudjet loyihasida xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan sezilarli tuzatish kiritishga olib keladi.

Bunday qisqartirish xarajatlarni maqsadga muvofiqligini baholash orqali amalga oshiriladi:

– davlat byudjetining xarajatlar qismida u yoki bu moddalarni saqlab qolish;

– u yoki bu xarajat moddalarini so‘ralgan hajmlarda moliyalashtirish, hamda boshqa mezonlar.



1-diagramma. **Davlat byudjetiga ta’sir etuvchi omillar**[1].

Xarajatlarni qisqartirish, birinchi navbatda, quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

– o‘tgan yildan qolgan va to‘la tugallanmagan hamda kelgusi moliya yilida davlat ustuvor yo‘nalishlar dasturida bo‘lmagan loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish;

– har yil uchun tuziladigan davlat ustuvor dasturiga kirmaydigan yangi loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish;

– xarajat moddalarining tarkibiga tegmagan holda, uning umumiy summasini qisqartirish.

---

[1] О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. UNDP. Ташкент – 2008.

Davlat xaridini samarali bo'lishini ta'minlash nuqtayi nazaridan, davlat xarajatlarini qisqartirishning ko'rib o'tilgan dastlabki ikki usuli katta salbiy tusga ega.

Chunki, ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi va natijada loyihani to'la moliyalashtirmaslik, uning sifatli bajarilishiga, yoki loyiha oldiga quyilgan maqsadlarga erishilmasligiga olib keladi.

Bu o'z navbatida, oldin amalga oshirilgan xarajatlarning natijasiz va foydasiz ekanligini bildiradi.

Xarajatlarni qisqartirishning so'ngi usulini qo'llashda esa, xarajatlar rejasini tuzish paytida loyihadan voz kechish va bo'shagan mablag'larni boshqa samarali yo'nalishlarda sarflash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Davlat xaridini rejalashtirishdagi mavjud muammolarning sabablari quyidagilardir:

– byudjet tizimining takomillashmaganligi – byudjetni shakllantirish faqat bir yil chegarasida bo'lib, unda o'tgan yil byudjetida ko'zda tutilgan va tugallanmagan loyihalarni moliyalashtirish majburiyati ko'rsatilmaydi;

– davlat byudjetini shakllantirishning uslubiy asoslarining yetarli darajada takomillashmaganligi, ya'ni daromad va xarajat moddalarini rejalashtirish sifatining past darajada ekanligi;

– davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish uslubiyotining mavjud emasligi va boshqalar.

Tumanlar darajasidan boshlab, xarajatlar smetasi hajmini sun'iy yuqori darajada tuzish riskining mavjudligi, ko'zlanayotgan xarajat maqsadlarini ko'rsatishning sifat darajasining pastligi, shuningdek, smetani to'g'riligini va ko'rsatilgan xarajatlarni asoslanganligini obyektiv tarzda tekshirish usulining yetishmasligi kabi holatlar, byudjetni shakllantirishda me'yoriy-xarajat usulidan foydalanishga majbur etadi.

Ushbu usulni qo'llashning salbiy jihati shundaki, u xarajat yoki loyihani o'ziga xosligi, sharoitlarini (masalan, ko'pchilik hollarda ayrim loyihalar obyektiv tarzda me'yorda ko'zda tutilgandan ortiq mablag'lar talab etishi mumkin) inobatga olmaydi. Natijada, ushbu holat davlat organlari faoliyatini yetarli darajada

moliyalashtirilmay qolishiga, ular faoliyatini va vazifalarini bajarish uchun zaruriy moddiy qiymatliklarni etarli miqdorda xarid etilmasligiga olib kelishi mumkin.

Davlat investitsion dasturini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 12- sentabrdagi 395-sonli Qarori bilan belgilanadi.

Mazkur yo'riqnomaga asosan manzilli dasturni tuzish jarayoni har bir loyiha buyicha to'la ma'lumot tayyorlash, loyihlarni ustuvorligi bo'yicha tanlash va ro'yxatini shakllantirishni o'z ichiga oladi[1].

Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha ma'lumotlar buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi va boshqa hujjatlar bilan bir qatorda loyiha pasporti taqdim etiladi.

Loyiha pasportida quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi:

– loyihaning texnik tavsifi;

– atrof-muhitga ta'siri;

– ijtimoiy va ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan amalga oshirish imkoniyati samaraliligini baholash, tashkiliy tadbirlar miqyosi;

– mahsulotga talabning hajmi va xarakteri;

– muqobil echimlarning mavjudligi, jumladan, mavjud korxonalarni qayta tiklash;

– asosiy material va ishchi kuchi resurslarining yetarliligi;

– investision xarajatlarni amalga oshirish tartibi.

Loyihani tanlab olish quyidagi 2-jadvalda ko'rsatilganidek, ikki bosqichda amalga oshiriladi:

– ma'lum hudud yoki sohani rivojlantirish ustuvorligidan kelib chiqib, loyihani birlamchi baholash;

– hudud yoki iqtisodiyotning ayrim sohalarini rivojlantirish ustuvorligidan loyihani tanlash.

Bu yerda shuni nazarda tutish lozimki:

– loyihani investitsion dasturga kiritiladigan ma'lumotlarni tayyorlash uchun har bir bo'lim bo'yicha aniq va ochiq talabni

---

[1] O'zbekiston Respublikasi VMining 12- sentabr 2003- yildagi 395-sonli qarorining 4-ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Investitsion dasturini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan.

aks ettiradigan uslubiyotini yetishmasligi sababli, turli xil buyurtmachilar tomonidan tayyorlangan loyihalar – ma'lumotlar mazmuni, aks ettirish formati, sifati va obyektivligi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin;

– loyihalarni baholash uslubiyotining mavjud emasligi, investitsion dasturga kiritish taklif etilgan loyihani tahlil etish sifatini inson omiliga (tajriba, ko'nikma, tahliliy qobiliyat, xolis yondoshuv, vijdonan ishlashga motivasiyaning mavjudligi kabi) qaram qilib qo'yadi;

– loyihalarni tanlashning barcha mezonlari (moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bundan mustasno) va ularni amalda qo'llash subyektiv, hamda baholash natijalari turlichadir; ushbu mezonlarni qo'llash natijasida turli xildagi xulosalarga kelish mumkin, ya'ni ko'rilayotgan loyihani investitsion dasturga kiritish ham, kiritmaslik ham mumkin.

Umumlashtiradigan bo'lsak, ushbu omillar investitsion dasturga kiritish uchun taqdim etilgan har qanday loyihani uni ko'rib chiqayotgan mutaxassis (idora)ning fikriga ko'ra ijobiy yoki salbiy baholanishi uchun teng imkoniyatga ega.

Investitsion dasturning idoralararo kelishuv asosida tashkil etilishi, tanlovda yo'l qo'yiladigan subyektiv yondashuvni ancha pasaytirsada, uni butunlay bartaraf eta olmaydi.

Jumladan, investitsion dasturni ishlab chiqish chizmasiga binoan, unga so'ngi tuzatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kompleks (bo'lim)lari tomonidan berilgan taklif asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi VMining 12- sentabr 2003- yildagi 395-sonli qarorining 4-ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Investitsion dasturini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riq-nomaga asosan kiritilishi mumkin bo'lgan tuzatishlar chegarasini, masalan, boshqa idoralar tomonidan dasturdan chiqarib tashlangan loyihalarni Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaytadan dasturga kiritish mumkinligi, loyiha qiymatini yoki boshqa ko'rsatkichlarini o'zgartirish kiritish imkoniyatlarini aniq belgilab bermaydi.

1-jadval.

Investitsion loyihalarni tanlab olish bosqichlari

umumiy mezonlar	**1-bosqich ustuvorlilik mezonlari**	**2-bosqich uch yil muddatga iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ma'lumotlarini inobatga oluvchi mezonlar**
loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi	loyihani sohani rivojlantirish strategiyasiga mosligi	soha (hudud)ni istiqbolda o'sishining ma'lumot darajasi
moliyaviy va iqtisodiy samaradorligi	moliyaviy va iqtisodiy samaradorligi	eksport salohiyatini o'sishining ma'lumot darajasi
ishlab chiqarish va ijtimoiy nuqtayi nazardan loyihani amalga oshirish mumkinligi va imkoniyati	mahalliy xomashyo va butlovchi qismlardan foydalanish darajasi	sohani O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri
sohani rivojlantirishning strategik vazifalariga mosligi	tayyor mutaxassislarning mavjudligi	tarkibiy o'zgarishni amalga oshiruvchi omillar
	loyihani amalga oshirishning tayyorlik darajasi	oldin amalga oshirilgan investitsiyalarning samaradorligi
	ishga tushirilgandan so'ng ekspluatatsiya xarajatlar miqdori	asosiy fondlar holati va quvvatlaridan foydalanish darajasi
		loyihaning ijtimoiy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida xaridni tashkiliy shakllari Vazirlar mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli, tovar yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda, mamlakatimiz korxonalarini, kichik biznes subyektlarini tender savdolariga jalb etish maqsadida ishlab chiqilgan qarori bilan belgilanadi.

Xaridni tashkiliy shakllari – sotib olish jarayoni va mol yetkazib beruvchini (xizmat ko'rsatuvchini) tanlash, davlat sotib oluvchi organi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi (3-chizma).



3-chizma. **Xaridni tashkiliy shakllari.**

Yuqoridagi qarorga muvofiq tender savdolari 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bitta shartnoma bo'yicha tovarlar yetkazib berishni amalga oshirishda o'tkaziladi.

Qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam bo'lgan bitta shartnoma bo'yicha tovarlar yetkazib berishni amalga oshirishda, xaridlar eng yaxshi tanlov takliflarini tanlab olish asosida amalga oshiriladi. Ammo, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda «eng yaxshi tanlov takliflari»ni tanlab olish jarayonini va tartibini aniq belgilab beruvchi, birorta ham tartibga soluvchi hujjat mavjud emas.

Quyidagi hollarda tender (tanlov) o'tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan shartnomalar tuzilishi mumkin:

1) tovarlar yetkazib berish, tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyati sohasiga tegishli bo'lganda;

2) tovarlar birja orqali xarid qilinganda;

3) shartnoma tuzish vaqtida eng kam ish haqining o'n baravaridan oshmagan summada tovarlar sotib olinganda;

4) tarix va madaniyat yodgorliklari sifatida davlat muhofazasiga olingan hamda davlat muzey, kutubxona, arxiv fondlarini, kino-foto-fondini va boshqa shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun mo'ljallangan tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniyat ahamiyatiga molik madaniy boyliklar (suratlar, haykallar, adabiy asarlar va boshqalar), shu jumladan, muzey predmetlari va muzey to'plamlari, shuningdek, nodir va qimmatli nashrlar va qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari, jumladan, ularning nusxalarini yetkazib berishni amalga oshirganda;

5) tovarlarni sotishga alohida huquqi bo'lgan faqat bitta yetkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish mumkin bo'lganda;

6) tuzilgan shartnomaning shartlari dastlabki shartnoma umumiy summasining 20 foizidan oshmaydigan summaga teng qo'shimcha ishlarni bajarish maqsadida o'zgarganda;

7) bajarish yoki xizmat ko'rsatishni amalga oshirish faqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan yoki ularga bo'ysunuvchi davlat muassasalari va korxonalari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq mumkin bo'lgan ishlar yoki xizmatlarga ehtiyoj tug'ilganda;

8) yengib bo'lmas kuchlar (tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar, avariyalar va hokazolar) oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun zarur bo'lgan muayyan tovarlarga tezkor ehtiyoj tug'ilganda, buning natijasida vaqtning yo'qotilishi talab qilinadigan boshqa buyurtmani joylashtirish usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaganda (tegishli moliya organlari kelishuvi bo'yicha);

9) yetkazib beruvchilarning yoki shartnomada ularning manfaatdorligi yo'qligi sababli buyurtmachi tomonidan tender (tanlov) bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida; agar buyurtmachi

uzoq tumanlarda joylashgan bo'lsa, buyurtmachining faoliyat ko'rsatish hududida va yaqin joylashgan tumanlarda faqat bitta yetkazib beruvchi mavjud bo'lsa; shuningdek, boshqa joylardan narx kotirovkalarini olish hech qanday foyda olmaganligi yoki iqtisod qilmaganligi aniqlanganda; transport xarajatlari uchun narxlar oshib ketishiga olib kelganda. Bunda yagona yetkazib beruvchiga buyurtmalarni joylashtirish tegishli moliya organlari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi[1].

,Yengib bo'lmas kuchlar oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun tovarlarga shoshilinch ehtiyoj vujudga kelgan taqdirda yoki shartnomada ularning manfaatdorligi yo'qligi sababli tenderni bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida, buyurtmachi tender o'tkazmasdan yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorni kelishish uchun tegishli moliya organlariga yozma murojaat yuboradi. Yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorning kelishish muddati, tegishli moliya organiga kelishish to'g'risida murojaat kelib tushgan kundan boshlab, o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

Buyurtmachi tomonidan tender bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda uni kelishish uchun tegishli moliya organiga murojaatdan tashqari, tender bo'lib o'tmagan deb hisoblash to'g'risidagi hujjatlarning nusxalari ham taqdim qilinadi. Bunda shartnoma yagona yetkazib beruvchi bilan faqat tender hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilishi mumkin, tuzilgan shartnoma bahosi tender o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan shartnomaning dastlabki bahosidan oshmasligi kerak[2].

---

[1] O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom»ning 5-1 punkti.

[2] O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom.

Tender bo'yicha xaridlarda qatnashuvchi mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) bilan hisob-kitoblar so'mlarda amalga oshiriladi.

Qarorlarni *oshkora* va *xolisona* qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish tenderlar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Shartnomani ijrosining sifati va muddatlarini baholash sotib oluvchi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Shartnomalar bo'yicha to'lovlar g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng amalga oshiriladi.

Davlat xaridinng nazorat tizimi – o'z ichiga birlamchi, joriy va so'ngi nazoratni oladi.

Dastlabki nazorat: xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida moliya organlari tomonidan; byudjetdan mablag' oluvchilarning yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishi jarayonidan – g'aznachilik bo'linmalari tomonidan; tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda Davarxitekqurilish tomonidan; investitsiya loyihalari uchun loyihalarni tanlab olishda Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Joriy nazorat: import shartnomalarini tuzishda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi tomonidan; shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda g'aznachilik organlari tomonidan; tanlovni tashkil etishdan obyektni ishga tushirishgacha bo'lgan muddatlarda Davarxitekqurilish tomonidan amalga oshiriladi.

So'ngi nazorat: Moliya vazirligining Nazorat-taftish boshqarmasi; Prokuratura; Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida baholar monitoringining tashkil etilishida byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish uch bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi.

Ya'ni, byudjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani akseptlaydi (imzolaydi)

va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun, shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi.

G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval, *dastlabki nazoratni* amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu narxlar monitoringi orqali ta'minlanadi.

Bunda byudjet tashkiloti sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar narxi) muqobil yetkazib beruvchilar baholari bilan taqqoslanadi. Muqobil yetkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Masalan, tovar xomashyo birjalari, bozorlardan ma'lumotnomalar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari olish, ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin.

Bitta shartnoma bo'yicha 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan kam summaga tovar yetkazib berilishi bo'yicha shartnomalarni tuzish, 2009- yil 16- sentabrda ro'yxatgan olingan 2007-sonli «Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari»ga asosan tartibga solinadi.

O'zbekistonda ishlab chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan, ishlab chiqaruvchining o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa, bevosita import qiluvchidan tovarlarni yuqori baholarda xarid qilishni oldini oladi[1].

Hozirgi kunda moliya organlarida baholar monitoringini tashkil etishning huquqiy asosi bo'lib, Vazirlar Mahkamasining: 2000-yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom, 2000- yil 5-avgustdagi 305-sonli «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori; 2003- yil 3- iyuldagi 302-sonli «O'zbekiston

---

[1] O'zR VMining 2000- yil 5- avgustdagi 305-sonli «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga asosan.

Respublikasi hududida kapital qurilishda konkurs savdolari to'g'risida»gi Qarori (va ushbu qarorning ilovasi) hamda Moliya vazirligining tegishli buyruqlari asos bo'lib hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Davlat xaridini tashkil etishning markazlashgan modeli, markazlashmagan model bilan qanday farqli tomonlarga ega?*
2. *Davlat xaridini tashkiliy elementlari nimalardan iborat?*
3. *O'zbekistonda davlat xaridini tashkiliy shakllari qanday ekanligini tushuntirib bering.*
4. *O'zbekistonda davlat xaridini rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?*
5. *Davlat investitsiya dasturiga kiritiladigan investitsiya loyihalarini tanlash bosqichlarini tushuntirib bering.*
6. *Davlat byudjetining chegaralanganligini izohlab bering.*
7. *Davlat xaridining nazorat tizimi nimalardan iborat?*

II bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH MEXANIZIMI

§ 4. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarishning joriy holati

Davlat zaxiralarini shakllantirish, davlat ehtiyojlari uchun joriy va kapital xarajatlarni amalga oshirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini, sanoat, qurilish sohalarida davlat mablag‘lari hisobidan xaridni amalga oshirish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirishning dolzarbligi ortmoqda.

Mazkur paragrafda kapital qurilish va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining davlat xaridini tashkil etish mexanizmlari o‘rganilgan.

Kapital qurilish sohasida davlat xaridi. Qurilishga, texnik qayta qurollantirish, rekonstruksiya, bino va inshootlarni kapital ta’mirlash bo‘yicha pudrat savdolarini o‘tkazish uchun tayyorlangan hujjatlarning tarkibida majburiy tartibda tanlov hujjatlarining texnik qismini ishlab chiqish uchun asos bo‘lgan loyiha hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi davlat ekspertizasining ijobiy xulosasi bo‘lishi kerak.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish majburiy bosqich bo‘lib, unda taqdim etilgan barcha zarur hujjatlarning mavjudligi, taqdim etilgan hujjatlarning to‘laqonliligi, baholash mezonlari va g‘olibni aniqlash jihatlari reglamentga va tanlov savdolarini o‘tkazish tartibotlariga rioya etilganligi tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Tanlov va boshqa tanlov savdosining hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish, tanlov savdolari o‘tkazish usuli va uslublari qo‘llanishining maqsadga muvofiqligi va asoslanganligini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi (Davarxitektqurilish)[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2003-yil 3- iyuldagi 302-son Qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risida» Nizom.

Ekspertizaga taqdim etiladigan hujjatlar. Buyurtmachi ekspertizadan o'tkazish uchun tanlov savdosi hujjatlarining to'liq to'plamini hamda ruxsat beruvchi hujjatlarni va matbuotda nashr etish uchun tayyorlangan e'lonning to'la matnini tasdiqlangan holda kuzatuv xati bilan taqdim etadi.



4-chizma. **Tanlov hujjatlari klassifikatsiyasi.**

Texnik qism – bu talabgorlar o'z tanlov takliflarini qiymatini hisob-kitob qilishi uchun zarur va yetarli bo'lgan xarid qilinayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori va xarakteristikasini, ishlarning bajarilish (tovar yetkazib berish, xizmatlar) muddati, shuningdek, tanlov savdolari bir bosqichda amalga oshirilganda tanlov savdolari buyurtmachisi va g'olib tomon o'rtasida tuziladigan shartnomadan so'ngi hisob-kitoblarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlardan iborat hujjatlar yig'majildi.

Ikki bosqichli tanlov savdolarini o'tkazishda texnik qismi birinchi bosqichda talabgorlar tanlov takliflarini tayyorlashlari uchun zarur va yetarli bo'lgan tanlov savdolari predmetini taxminiy xarakteristikasini ifodalovchi hujjatlardan tarkib topadi.

Zarurat tug'ilganda ekspert organi o'z vakolatiga doir masalalar bo'yicha buyurtmachidan ko'rib chiqiladigan tanlov hujjatlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega.

Ekspertizada tekshiriladigan va tahlil qilinadigan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

– tanlov hujjatlari, shu jumladan, ruxsat beruvchi hujjatlarning to'la hajmda mavjudligi;

– bir xil nom, yagona atama va ularning ifoda etilishidan foydalanilganligi;

– savdo ishtirokchilariga qo'yiladigan talablarga amal qilinganligi (litsenziya, yetarli ish tajribasining borligi, moliyaviy holati, texnika bilan jihozlanishi, savdoning aniq inshootlariga qarab boshqa malaka talablari);

– takliflarni texnik va moliyaviy baholashda mezonlarni qo'llashning xolisonaligi va ularning ahamiyati;

– tanlov hujjatlarini ishlab chiqishda «O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan qurilish inshootlari uchun qurilish, rekonstruksiya, texnik qayta qurollantirish, loyiha tayyorlash, materiallar, konstruksiyalar va jihozlarni xarid qilish bo'yicha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida» Qarori (9.01.2008 yil 1757-sonli, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 27.11.2007- yil 9-sonli) Nizomining hamda tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, tashkil etish va qurilishda tanlov savdolarini o'tkazish borasidagi O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiqligi tekshiriladi va tahlil qilinadi;

– tanlov hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilish.

Tanlov hujjatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tanlov savdosi hujjatlarini tasdiqlash uchun yoki uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun kamchiliklari ko'rsatilgan holda qayta ishlashga tavsiya etuvchi ekspertiza xulosasi tuziladi.

Xulosa ekspert organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi va buyurtmachiga yuboriladi.

Ekspertizaning ijobiy xulosasi matbuotda tanlov savdosi to'g'risidagi e'lonni chop ettirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tanlov savdosi hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish muddati o'n kundan ortib ketmasligi lozim.

Qayta ekspertiza ko'rigidan o'tkazish muddati ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan xatolar va kamchiliklar bartaraf etilgandan va buyurtmachi (tashkilotchi)ning qaytadan murojaat etganidan keyin besh kundan oshmaydi.

Tanlov savdosi hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish buyurtmachi (investor) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ekspertiza xulosasining amal qilish muddati tanlov hujjatlari tarkibiga kiruvchi texnik qism va ruxsat beruvchi hujjatlarning muddatlari hamda tanlov savdolari ishtirokchilari uchun Yo'riqnomalarning (ilovalar va qo'yilmalar mazmunini o'zgartirishga) amal qilish muddati bilan chegaralanadi.

Ekspertiza xulosasining amal qilish muddati, tanlov hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar natijasida texnik qismining tarkibi o'zgarmasa va O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari «Davarxitektqurilish» tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid etish bo'yicha rasmiy ma'lumotlarning chegaralanganligi, ushbu sohani tahlil etishda kompleks yondoshuvni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Hozirgi paytda Respublikada quyidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat xaridining obyektlari sanaladi: paxta xomashyosi, g'alla, sholi va ipak pillasi yetishtirish.

2002- yilda, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi va markaziy bankining «Qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun hisob-kitoblarni va bo'nak to'lovlarni tashkil etish tartibini tasdiqlash haqida»gi Qarori kuchga kirdi.

Mazkur qaror davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosini yetishtirishni uzluksiz moliyalashtirishni ta'minlash va paxta tozalash sanoati boshqaruvini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Unga muvofiq, Agrobank yangi hosil uchun bo'naklar berish va yetishtirilgan hosil uchun hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Davlat ehtiyojlari uchun xarid hisob-kitoblari Moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun hisob-kitob Fondi orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorda paxta xomashyosi uchun bo'naklar ajratish va oxirgi hisob-kitoblar

uchun to‘lovlarni fond tomonidan amalga oshirish mexanizmi ko‘rsatib o‘tilgan.

Transhlar hajmi mablag‘larga bo‘lgan yillik talab hisob-kitoblari ma’lumot orqali aniqlanadi. Ekiladigan urug‘lik chigitlar qiymati bo‘naklar hisobidan qoplanadi. Fond o‘zining «Kontraktatsiya va paxta uchun hisob-kitoblar Markaz«laridagi hududiy inspektorlari va Agrobank hamkorligida mablag‘larni maqsadli ishlatilishini monitoringini amalga oshiradi.

• Paxta hamda g‘alla sotish va sotib olish sohasida hukumat nazorati saqlanib qolgan bo‘lsada, hukumat, keyingi yillarda ushbu mahsulotlarni davlat xaridi baholarini sezilarli darajada oshirdi va ushbu mahsulotlarni muqobil sotish yo‘llari kengaytirildi.

Respublikada har yili paxta yig‘ish mavsumi oldidan paxta xomashyosining davlat sotib olish baholari belgilanadi. 2001-yilgacha ushbu baholar Moliya vazirligi tomonidan, 2001- yildan boshlab esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Paxta tolasining ulgurji baholari har yili, odatda avgust oyida, Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun har yili davlat tomonidan yirik miqdordagi mablag‘lar va ajratmalar (assignovaniya) ajratiladi. Faqatgina, o‘tgan 2008- yilda qishloq xo‘jaligining muhim turlarini etishtirishga bir trillionga yaqin mablag‘ yo‘naltirilgan. Jumladan, paxta ishlab chiqarishga – 800 mlrd., g‘alla uchun – 200 mlrd. so‘m yo‘naltirilgan. 2009- yilda bu maqsadlar uchun 1,2 trln. sum mablag‘lar ajratish ko‘zda tutilgan[1].

Paxta respublika jami eksportining hajmida 12 foiz ulushga ega va mamlakat valyuta tushumlarining barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi[2].

Paxtani eksport qilish uchun, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi tomonidan beriladigan maxsus litsenziya talab etiladi. Paxta sotishda «Uzmarkazimpeks», «Innovasiya«, «Uzprommashimpeks« kabi yirik davlat korxonalari

---

[1,2]*Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. I.Karimov. – T.: O‘zbekiston, 2009 – 56 b.

faol ishtirok etadilar. Amalda, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi va O'zpaxtasanoatsotish assotsiatsiyasi paxtani ekport etishni muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish va eksport o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Odatda, paxta to'g'ridan-to'g'ri (naqd operatsiyalar) orqali yoki kvazi-barter bitimlari orqali sotiladi. Kvazi-barter bitimlari orqali sotishda, xorijiy hamkorga paxtani natural to'lov evaziga olishga ruxsat etiladi, ammo amaliyotda bu ikki xil bank operatsiyalari shaklida rasmiylashtiriladi.

Masalan, paxtani g'allaga barter yo'li bilan almashtirishda, ularning mos qiymatlari pul ko'rinishda ikkita alohida ikkiyoqlama operasiyalar shaklida pul ko'rinishida o'tkaziladi. Ya'ni, masalan, paxta sotib oluvchi O'zbekistonlik hamkoriga paxta uchun pul to'laydi va ikkinchi operatsiya – o'zbekistonlik hamkori g'alla uchun pulni xorijiy hamkorga o'tkazib beradi.

1995- yildan Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida paxta va g'allaga davlat buyurtmasining hajmini doimiy pasaytirib borish, mamlakat eksport potensialini oshirish, mamlakat ichida paxta tolasiga bozor baholarni jahon narxlariga yaqinlashtirish, xususiy sektorni urug'lik etishtirish va yangi texnologiyalarni qo'llashga jalb etish yo'nalishlarida ishlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan asrning 90- yillarida g'alla mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiyaga binoan g'alla etishtirish hukumat siyosatining markaziga aylandi. G'alla mustaqilligi oziq-ovqat xavfsizligining kafolati sifatida qabul qilinadi.

2008- yilda don mahsulotlarining davlat xaridi 2531,4 ming tonnani, shu jumladan, g'alla 2401,1 ming tonnani tashkil etdi (2007- yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 2426,2 ming tonna va 2385,7 ming tonnani tashkil etgan).

Shuni ta'kidlash lozimki, ipak qurti etishtirish hamda sholi hamon davlat buyurtmasi va baho belgilash tizimining predmeti hisoblanadi. 2008- yilda 23450,8 tonna ipak qurti (2007- yilga nisbatan 109,2%) va 110,4 ming tonna sholi yetishtirilgan[1].

---

[1] internet ma'lumotlari asosida: www.gov.uz

Davlat xaridini rejalashtirish va sotib olish tizimi, qishloq xo'jaligida paxta hamda g'allani ishlab chiqarish va daromad olishni ko'zlaydi. Ushbu mahsulotlarni davlat xaridini davlat manopol tashkilotlari: O'zpaxtasanoat va O'zdonmahsulot amalga oshiradi.

Mavjud davlat xaridi tizimidagi ayrim omillar, xarid tizimini fermerlar uchun foydasiz qilib qo'yadi: fermerlar faqatgina tayyorlov rejalarini bajargandan so'ngina ortiqcha etishtirilgan mahsulotlarni shartnoma baholarda sotishga ruxsat oladilar va amalda, ko'pchilik fermerlar yetishtirgan barcha hosilni davlat xarid baholarida sotadilar.

Don mahsulotlarining qariyb yarmi davlat xarid baholarida sotiladi, qolgan qismi (qancha hajmda bo'lishi hosil yig'imi yaqinlashganda o'rnatiladi) o'rnatilgan shartnoma baholarda (odatda davlat xarid baholaridan 20% yuqori) sotiladi. Hosilning qolgan qismi fermerlar ixtiyorida qoldiriladi. Qayta ko'rib chiqiladigan almashuv kurslari mavjudligi sababli, jahon baholari va mahsulot sotish baholari o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi.

O'zbekistonda davlat xaridining predmeti bo'lgan boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, mamlakatda sholi yetishtirish va uni davlat sotishining ulushi barqaror ravishda pasaytirilayotganiligi kuzatish mumkin.

Davlat qishloq xo'jalik mahsulotlar bozorida, paxta va g'allaga xarid kvotalari tizimi orqali ta'sir etadi (ushbu ikki turdagi mahsulot sotishning 50—80 % hajmi davlat hissasiga to'g'ri keladi). Xarid jarayoni maksimal darajada markazlashgan. Xaridning rejasi va bajarilish jadvali Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi va uning doimiy monitoringi amalga oshiriladi. Har bir viloyat va tumanga xaridning ma'lum kvotalari o'rnatiladi.

Qishloq xo'jalik sektorida ishlab chiqaruvchilarga bo'nak to'lovlari ajratish va tovar ko'rinishdagi kreditlar berish orqali, ular kelajakdagi hosilni, davlat tomonidan belgilanadigan baholarda sotishga rag'batlantiriladi.

Xarid kvotalari, bo'nak to'lovlari, tovar kreditlari va eksportni tartibga solish kabi vositalar, qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiruvchilarni mahsulotlarni davlatga tartibga soluvchi baholar asosida sotishlarini rag'batlantiradi.

Davlat xaridini amalga oshirishning shaffofligini ta'minlashda va davlat mablag'laridan manzilli foydalanishni tashkil etishda, davlat tashkilotlarining majburiyatlarini ro'yxatdan o'tkazish muhim jarayoni hisoblanadi.

Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimining joriy etilishi bilan, dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

Byudjet mablag'lari oluvchilarining majburiyatlarini hisobga olish orqali, g'aznachilik tizimi, byudjet mablag'larini maqsadli va oqilona foydalanishi ustidan joriy moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar.

Davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish, uni amalga oshirish, o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bekor etish kabi munosabatlar, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi(4-paragraf), O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29- avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni va boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Shartnoma munosabatlarida «majburiyat» tushunchasi muhim ahamiyatga ega. *Majburiyat* – bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi.

Majburiyat, xuquqiy-me'yoriy hujjatlarga asosan, uni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qabul qilinadi.

Majburiyatlarni hisobga olish tizimida uch asosiy omil mavjud (5-chizma).

Byudjet mablag'lari oluvchi byudjet tashkiloti rahbari, yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqa mas'ul shaxslar, majburiyatlarni qabul qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Yuridik majburiyat – yuridik (jismoniy) shaxslarning imzolangan shartnomalar va tegishli hukumat organining qarori natijasida ikkinchi shaxs oldida yuzaga keladigan majburiyatidir[1].

Yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi byudjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, ya'ni xarajatlarning tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Moliyaviy majburiyat – yuridik (jismoniy) shaxslarning tovarlar yetkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi, shuningdek, ish haqi bo'yicha ishchilardan qarzdorlik (hisob-kitob hujjatlaridan hisoblangan), sud qaroriga asosan byudjet to'lovlaridan qarzdorlik va byudjet tashkilotni mahsulot yetkazib beruvchilarga va to'lovni oluvchilarga pul o'tkazishga majburlovchi boshqa hujjatlar asosida yuzaga keladi[2] (6-chizma).



5-chizma. **Majburiyatlarni hisobga olish tizimidagi omillar[3].**

---

[1] 2007- yil 5- dekabrda 1746-sonli ro'yxatdan o'tgan, «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida byudjetdan mablag' oluvchilarning hisobvaraqlarini yuritish qoidalari». Moliya vazirligining 2007- yil 17- oktabrdagi 93-sonli buyrug'iga ilova.

[2] Yuqoridagi manba.

[3] Fuqarolik Kodeksi va 1998- yil 29- avgustdagi 670-I-sonli «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi.

Masalan, hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalari va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Tomonlardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi tomon esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi.

YURIDIK MAJBURIYAT	MOLIYAVIY MAJBURIYAT
• shartnoma ro'yxatdan o'tgandan keyin vujudga keladi; • shartnomani imzolashdan oldin byudjet mablag'lari tekshirilishi lozim; • shartnoma toliq yuridik kuchga ega bo'lishi ushun g'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tishi kerak.	• tovar va xizmat yetkazib berilgandan keyin hisobvaraq-faktura yoki byudjet tashkilotining kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjat bo'lar sharoitda vujudga keladi; • moliyaviy majburiyat g'aznachilikning Bosh kitobida qayd qilinadi; • moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanishi lozim.

6-chizma. **Yuridik va moliyaviy majburiyatlar**

1998-yil 29- avgustdagi 670-I-sonli «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bu jarayonni tartibga soluvchi eng asosiy qonun hujjati bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida tomonlardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi tomon uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo'jalik shartnomalari, xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi[1].



7-chizma. **Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishni boshqarish[2].**

Byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar bilan, shuningdek, byudjet mablag'lari hisobidan kapital qurilish buyurtmalari bo'yicha shartnomalari, g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tishlari shart va shundan so'nggina, ushbu shartnomalar kuchga kiradi.

Byudjet tashkilotlari, shartnomalar tuzishda, amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra eng kamida oldindan 15 foiz to'lov amalga

---

[1] O'zbekiston Respublikasining 1998- yil 29- avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuning 21-moddasi.

[2] 2009- yil 16- sentabrda ro'yxatgan olingan 2007-sonli «Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari» asosida tuzilgan.

oshirilishini ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratishlari talab qilinadi, qonunchilikda yo'l qo'yilgan holatlar bundan mustasno[1].

Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29- avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, penya va jarimalar to'laydilar. Jarimani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Byudjet mablag'lari oluvchilarga tovar (xizmat, ish)lar yetkazib berish bo'yicha tuziladigan shartnomalar, 2009- yil 16- sentabrida 2007-son bilan ro'yxatga olingan, Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalarida ko'zda tutilgan tartibga asosan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitalari korxonalari, tashkilotlari, muassasalari va harbiy qismlari byudjet xarajatlarining, shu jumladan, maxfiy xarajatlarning g'azna ijrosi, shuningdek, respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarni ishlatgan holda maxfiy tusga ega bo'lgan byudjet xarajatlarining ijrosi, 2009- yil 16- aprelda ro'yxatgan olingan 1941-sonli «Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining byudjet xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan byudjet xarajatlarning g'azna ijrosi tartibi haqidagi» Nizom bilan tartibga solinadi.

---

[1] O'zR Prezidentining 2007- yil 28- fevraldagi PP-594-sonli «Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» Qarorining 6-punkti.

Kapital qo'yilmalarga xarajatlar aralash manbalar hisobidan, misol uchun, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida amalga oshiriladigan va davlat byudjeti mablag'lari hisobidan va Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar)ning kreditlari, qarzlari va grantlari hisobidan moliyalashtiriladigan hollarda, shartnomalar, ish bajarilganligini tasdiqlovchi birlamchi va boshqa hujjatlar xalqaro shartnomalar talablari va shakllariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, kapital qurilish buyurtmachilari g'aznachilik bo'linmalariga ro'yxatga olish uchun shartnomalarning ikkita asl va bir ko'chirma nusxasini taqdim qiladi, g'aznachilik bo'linmalari ularni o'rnatilgan tartibda tekshirgandan so'ng, ularni g'aznachilik bo'linmasining (birinchi va ikkinchi) imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan tegishli shaxslari (keyingi o'rinlarda — mansabdor shaxslar) imzosi qo'yilgan va g'aznachilik bo'linmasining muhri bilan tasdiqlangan shartnomalar nusxalarining barcha varaqlariga «Ro'yxatga olingan» shtampini qo'yish yo'li bilan ro'yxatga oladi.

Boshqa xarajatlarni amalga oshirilishida ham byudjet tashkiloti tomonidan tejamlilik, oqilonalik tamoyillariga amal qilishni talab etadi.

G'aznachilik organlarida pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash uchun *xarajatlarni amalga oshirish ruxsati* (XAOR) joriy etiladi. Bunda har haftada pul mablag'larini boshqarish bo'linmasi kassa rejasini yangilaydi va XAOR hajmini belgilaydi.

Keyin byudjet tasnifiga muvofiq byudjet tashkilotlariga XAOR beriladi[1]. XAORlar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o'tgandan so'ng ular o'z kuchini yo'qotadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari to'plami, 1999-

[1] XAOR lar xarajatlarning ustuvor yo'nalishlari, masalan, dori-darmon vositalarini xarid qilish va boshqa shu kabilar uchun maxsus chiqariladi.

yil N 9, 51-modda) muvofiq, byudjetdan mablag‘ oluvchilarni Davlat byudjetidan xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha moliyalashtirish tartibi belgilangan:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo‘shimchalar;

III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro‘yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar (oziq-ovqat, dori-darmon, maishiy xizmatlar va boshqa xarajatlar).

Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari uchun to‘lovlar, Davlat byudjetining g‘azna ijrosi Qoidalari (2007-sonli)da ko‘zda tutilgan tartib asosida amalga oshiriladi.

G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan pul mablag‘larini o‘tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– to‘lov topshiriqnomasida byudjet tasnifining tegishli kodlari, shartnoma, hisobvaraq-faktura, avans miqdori va boshqa kerakli rekvizitlar to‘g‘ri ko‘rsatilganda;

– qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro‘yxatlari asosida va tegishli obyektlar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridagi mavjud ajratilgan byudjet mablag‘lari summalari doirasida bo‘lganda;

– agar to‘lov topshiriqnomasida ko‘rsatilgan summa g‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatga olingan shartnomaga asosan, oldin o‘tkazilgan mablag‘larni hisobga olgan holda, to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘laridan oshmaganda;

– buyurtmachining pudratchi oldidagi kreditorlik qarzining mavjudligini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura va hujjatlar, yoki buyurtmachining pudratchiga avans to‘lovlarini o‘tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda;

– to‘lov topshiriqnomasida ko‘rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlari shartnomada ko‘rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlariga muvofiq bo‘lganda.

Bajarilgan ishlar uchun xarajatlar to‘lovi, jumladan, avans to‘lovlarining to‘lanishi o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan va

buyurtmachilar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Kapital qurilish sohasida davlat xaridi qanday amalga oshiriladi?*
2. *Qishloq xo'jalik sohasida davlat xaridini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad nimada?*
3. *Qishloq xo'jaligida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmi qanday?*
4. *Yuridik va moliyaviy majburiyatlar nima ekanligini tushuntirib bering.*
5. *Davlat byudjetidan guruhlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirishni izohlab bering.*
6. *Kapital quyilmalarga xarajatlarni amalga oshirish manbalari qanday?*

§ 5. Tender savdolarini tashkil etish va xaridini amalga oshirishda baholar monitoringi

Tender savdolari – dunyo amaliyotida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid etishning asosiy instrumenti sifatida qaraladi. Savdolarni tashkil etishning tartibi va shartlari umumqabul qilingan xalqaro me'yorlar va qoidalar bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan xarid etish jarayonlarida yaqqol nomoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, tenderlar orqali tovarlar va xizmatlarni xarid etish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha me'yorlari va boshqa majburiy, tavsiya etiladigan hujjatlar bilan begilab beriladi.

Tender savdosidan ko'zlangan asosiy maqsad, tovarlar va xizmatlarni past baholarda va optimal sifat ko'rsatkichlari asosida sotib olishdan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, tender savdolarida g'olibni aniqlovchi asosiy omil – nomzod taqdim etgan taklifda sifat va baho ko'rsatkichning nisbati hisoblanadi. Ammo, ushbu ikki ko'rsatkichning nisbati savdo predmetidan (tovarlar yoki xizmatlar) va ayrim olingan savdolarni o'tkazishda ishlatiladigan tender hujjatlari yo'riqnomalaridan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin. Tender savdolarining, yoki o'zbek tilidagi nashrlarda uchraydigan *«tanlov« asosida tashkil etiladigan savdolarning bir nechta turlari mavjud* (quyidagi 8-chizma).

Savdolar ishtirokchilarga ko'ra (ochiq, yopiq va boshqalar), ishtirok etishga ruxsat berilishiga ko'ra (kvalifikatsion tanlov asosida yoki ushbusiz), geografik belgilariga ko'ra (xalqaro, milliy, mahalliy), tanlab olish jarayoniga ko'ra (oddiy, soddalashtirilgan) va boshqalar. Shuningdek, savdolarning klassifikatsiyasining yana bir turi bu – uning predmetiga qarab, masalan, tovarlar yetkazib berish uchun, bajariladigan ishlar va xizmatlar ko'rsatish uchun

kabi turilarga bo'linadi. Mazkur klassifikatsiya quyidagilarni nazarda tutadi:

Tovarlar yetkazib berish uchun savdolar – davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Savdo predmeti asbob-uskunalarni ishlab chiqish, tayyorlash, yetkazib berish, montaj va uni ishga tushirish, shuningdek yetkazib berilgan tovarlarni keyingi ekspluatasiyasi bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar, masalan, texnik xizmat ko'rsatish, remont, personalni o'qitish va sotuvdan keyingi xarajatlar. Bunda, savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va mol yetkazib beruvchidan iborat.

Bajariladigan ishlar uchun savdolar – pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash hamda kerakli xizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida obyektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatasiya xizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va pudratchilardan iborat.

Xizmatlar ko'rsatish uchun savdolar – texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat etish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va maslahatchilardan iborat.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, savdolar turli xil tusga ega. Sanab o'tilgan savdolar uchun, dunyo amaliyotida o'ziga xos tender va shartnoma hujjatlari mavjud bo'lib, uning tarkibi va ma'nosi, yirik xalqaro moliya tashkilotlari (Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa hamjamiyati komissiyasi, Osiyo taraqqiyot banki va hakozolar) tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar, har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, me'yoriy va uslubiy ko'rsatmalari bilan muvofiqlashgan.

Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom (21.11.2000- yil 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan) davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari

mablag'lari, Hukumat kafolati bo'yicha olingan xorijiy kreditlar, Jahon banki guruhi, ETTB, OTB, Xalqaro hamkorlik Yapon banki, «KFW« banki kabi xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag'lari evaziga import qilingan, yoki O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xomashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo'yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmini belgilab beradi.



8-chizma. **Tanlov asosida tashkil etiladigan savdo turlari.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, yoki xorijiy grantlar va kreditlar taqdim etilishida boshqacha shartlar belgilangan bo'lsa, bunday hollarda mazkur Nizom tartibi qo'llanilmaydi.

Tenderlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bu davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli fondlari mablag'lari foyda-

lanish samaradorligin orttirish va sotib olinayotgan xomashyolar, materiallarning sifat darajasini oshirishdan iborat.



9-chizma. **Tenderlarning tashkiliy shakllari[1].**

Tender savdolari xaridlarning faqat manbalarning mavjudligi va mablag' bilan ta'minlash miqdorlari to'g'risida tasdiqnomalar (moliya organlari yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarni tasarruf etuvchilarning bildirish xati, xorijiy kreditorlar bilan hukumat kafolati ostida imzolangan kredit shartnomalari, xorijiy grantlar berish to'g'risidagi bildirish xati va boshqalar) mavjud bo'lgan hajmi bo'yicha e'lon qilinishi mumkin. Tenderlar tenderlarni

---

[1] O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizomga asosan.

o‘tkazishning doimiy yoki vaqtinchalik organi bo‘lgan tender komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Tender komissiyasi tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshmaydigan bitta shartnoma bo‘yicha amalga oshirilganda xarid qiluvchi tashkilot («buyurtmachi» deb ataladi) tomonidan tuziladi. Tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshadigan bitta shartnoma bo‘yicha amalga oshirilgan taqdirda tender komissiyasi buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda tuziladi.

Tarmoq vazirliklari va idoralari rozi bo‘lgan taqdirda ularning viloyat, tuman, shahar bo‘limlari, O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qaroriga ilova qilingan «Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo‘yicha tender savdolari o‘tkazish to‘g‘risida»gi Nizomi talablariga rioya qilgan holda, tender o‘tkazish bo‘yicha buyurtmachilar bo‘lishi mumkin.

Tender komissiyasi a’zolari soni toq (odatda kamida to‘qqiz, o‘n bir kishi), shu jumladan, uning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– buyurtmachining vakillari;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yoki ularning hududiy bo‘linmalari vakillari (zarur bo‘lganda);

– xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari;

– buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari;

– tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillaridan iborat bo‘ladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Tender komissiyasi a’zolarining tayinlanishi yuzasidan buyurtmachi javob beradi.

Tender komissiyasining ishchi organi tenderlarni o'tkazishni (tovar yetkazib beruvchilarni oldindan malakali tanlash, tushadigan takliflarni ekspert baholash, binolar va yordamchi xodimlar berish, reklama ishlarini tashkil etish, tender komissiyasi hujjatlarini va shu kabilarni amalga oshirishni) amalda tashkil etuvchi asosiy organ hisoblanadi.

Buyurtmachining tanlovi bo'yicha shartnoma asosida ixtisoslashgan tashkilot yoki buyurtmachining o'zi ishchi organ bo'lishi mumkin, u zarur bo'lganda shartnoma asosida boshqa tashkilotlar mutaxassislarini ham jalb etishi mumkin.

Tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshadigan bitta shartnoma bo'yicha amalga oshirilganda ishchi organ buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda belgilanadi.

Ishchi organ ixtisoslashgan tashkilotning, shuningdek, boshqa tashkilotlar mutaxassislarining huquq va vazifalari doirasi shartnomalarda belgilanadi.

Davlat xaridini tashkil etishda buyurtmachi va ishchi organning funksiyalariga e'tibor beradigan bo'lsak, tenderlarni o'tkazishda buyurtmachi:

– tenderlarni o'tkazish, ularning o'tkazilish sanasi to'g'risida qaror qabul qiladi, sotib olinadigan tovarlarning eng yuqori bahosini belgilaydi va rasmiy farmoyish chiqaradi; ishchi organ faoliyatini nazorat qilib boradi va tender komissiyasi ishida qatnashadi;

– tender hujjatlarini tayyorlash shartlarini belgilaydi;

– tenderlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi;

– tender g'olibi bilan shartnoma tuzadi.

Ishchi organ buyurtmachi bilan kelishgan holda:

– savdo va uni rasmiylashtirish tartibini belgilaydi;

– tender hujjatlarini ishlab chiqishni tashkil etadi;

– ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki taklifnomalar jo'natishni tashkil etadi;

– jalb etiladigan ekspertlar va maslahatchilar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

– da'vogarlarni tender hujjatlari bilan tanishtiradi;

– arizalarni qabul qiladi, ularning hisobga olib borilishini, saqlanishini va maxfiyligini ta'minlaydi.

Tenderlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari oshkoralik, qarorlarni qabul qilishning obyektivligi, tender qatnashchilariga teng sharoit yaratish, shu bilan birga mahalliy korxonalarga ustuvorlik berish hisoblanadi (quyidagi 10-chizma).



10-chizma. **Tenderlarni tashkil etish tamoyillari[1].**

Davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarni tuzish va ijro etish – ikki bosqichda amalga oshiriladi:

– shartnomani tuzish;

– shartnomani ijrosining sifati va muddatlarini baholash.

Shartnomani tuzish:

– to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar – ishtirokchilar tomonidan kelishilgan shartlar asosida tuziladi;

– yarmarka va birja savdolari – yarmarka va birja savdolarining o'rnatilgan tartiblari asosida amalga oshiriladi (shartnomani

[1] O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom asosida ishlab chiqilgan.

tuzish savdo o'tgandan keyingi 5 kun muddat ichida amalga oshiriladi);

– ochiq va yopiq tanlovlar – xaridni ayrim olingan turlarini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunchilik aktlari orqali amalga oshiriladi. Shartnomalarni tuzish muddati hamma hujjatlarda ham o'z aksini topmagan. Fuqarolik kodeksiga muvofiq shartnomalarni imzolash muddati 30 kalendar kundan oshmasligi kerak.

Tender savdolarini boshqarishda baholar monitoringini amalga oshirish tartibi, quyidagi sohalar misolida ko'rib chiqiladi:

– byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish jarayonida;

– buyurtmachilar tomonidan kapital qurilish (rekonstruksiya va ta'mirlash) bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish jarayonida.

Bunda g'aznachilikning hududiy bo'linmalari tomonidan, byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari baholarining monitoringini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining demonopolizasiya, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Antimonopoliya qo'mitasi) tomonidan taqdim etiladigan, respublika hududlari bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha oylik baholari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Antimonopoliya qo'mitasi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan baholardan ortiq bo'lgan baholarda tuzilgan shartnomalar g'aznachilikning hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi.

Antimonopoliya qo'mitasi tomonidan ma'lum hudud bo'yicha (tuman, shahar), ma'lum vaqt oralig'ida taqdim etilgan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha baholar (xxxx) jadvalini misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

Ushbu yuqorida belgilangan o'rtacha baholarni hisobga olingan holda tuman g'aznachilik bo'linmasida hisob ishlari olib boriladi. Ya'ni, shartnomalar o'rtacha baholar asosida tuzilib, hisobvaraq-fakturalar ham ushbu baholar doirasida qabul qilinadi.

Mazkur 9 xil oziq-ovqat maxsulotlaridan tashqari barcha boshqa oziq-ovqat mahsulotlarga esa, hududiy bozor o'rtacha baholari orqali belgilanadi.

Mahsulot nomi[1]	**Bahosi (sum)**
Un	xxxx
O'simlik yog'i	xxx
Sariyog'	xxxx
Non	xxxx
Kartoshka	xxxx
Piyoz	xxxx
Sabzi	xxxx
Guruch	xxxx
Go'sht	xxxx

Baholar monitoringining ahamiyati debitor va kreditor qarzdorlikka chek qo'yish, hisobotlarni soddalashtirish, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasida tasdiqlangan xarajatlarini byudjet tasnifi buyicha xarajat kilinishi nazorat kilish, byudjet tashkilotlari uchun olinadigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tuziladigan shartnomalarni qonuniy tuzilishi, tovarlar yoki xizmatlar sifatli bo'lishi uchun tenderlar va tanlovlar orqali shartnomalar tuzish, byudjet mablag'ini aniq maksadlarga sarflanishini nazorat qilishlilik yuqori samara berishidan dalolatdir.

Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid etiladigan boshqa turdagi mahsulotlar baholarini nazorati 2009- yil 16-sentabrda ro'yxatgan olingan 2007-sonli «Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari»ga binoan hamda boshqa manbalardan

---

[1] ushbu mahsulotlar soni xarid baholari nazorat etish uchun yangidan kiritiladigan mahsulotlar hisobiga ortishi (kamayishi) mumkin.

olingan o'rtacha bozor baholari[1] bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Baholar manitoringini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bu asoslanmagan debitorlik va kreditorlik qarzdorligining yuzaga kelishini oldini olish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni (tasdiqlangan smetalar asosida, byudjet klassifikasiyasi moddalariga mos ravishda) ta'minlashdan iborat.

Mahsulotlar (xizmatlar, ishlar)ni xarid etish bo'yicha shartnomalar tender yoki konkurs (tanlov) savdolari orqali amalga oshiriladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad optimal baholardan sifatli mahsulotlarni xarid etishdan iboratdir.

Baholar optimalligi va byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat etish, amalga oshiriladigan xaridning yuqori samarasini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida baholar monitoringi tizimidagi mavjud muammolar sifatida quyidagilar aniqlandi:

– tovarlar va xizmatlar bahosi to'g'risida tizimlashgan tarzda axborot olishning yetishmasligi (ayniqsa, respublika hududlari bo'yicha);

– mavjud baholar monitoringi tovarlarning assortimenti (sifati, texnik va boshqa muhim tavsiflari)ni hisobga olmaydi;

– baholar monitoringi amalga oshirishda transport xarajatlarini hisobga olishni tartibga soluvchi mexanizm yetishmaydi;

– ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha Antimonopoliya qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan baholar, joylarda o'rnatiladigan baholar bilan keskin farqlanadi.

Kapital qurilish sohasida davlat xaridini tashkil etishda baholar monitoringi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Makroiqtisodstat vazirligi va Davarxitektqurilish qarori bilan tasdiqlangan

---

[1] Amaliyotda turli xildagi mahsulotlarning o'rtacha bahosi ixtisoslashtirilgan axborot manbalari (reklama jurnallari, gazeta va boshqalar), shuningdek, mas'uliyatli manbalar (mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiyot bo'linmalarining ma'lumotlari, o'xshash mahsulotlarning bozor baholari haqidagi mahalliy bozorlar ma'muriyati tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar va boshqalar) asosida aniqlanadi.

«Buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga moliyalanadigan qurilish obyektlari uchun xarid qilinadigan uskunalar, binokorlik materiallari va konstruksiyalarining eng yuqori baholarini belgilash tartibi to'g'risida»gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 5- avgustdagi 305-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va buyurtmachilar hamda pudrat tashkilotlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga moliyalanadigan qurilish obyektlari uchun xarid qilinadigan uskunalar, binokorlik materiallari va konstruksiyalarining eng yuqori narxlarini belgilash tartibini nazarda tutadi (bundan keyin binokorlik materiallari).

Nizom qurilishi tender savdolarisiz o'tadigan hamda davlat byudjeti mablag'lari va hukumat kafolatlari ostidagi kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan o'tuvchi obyektlar bo'yicha barcha buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan qo'llanilishi kerak.

Binokorlik materiallarining eng yuqori narxi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 5- avgustdagi 305-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqargan korxonaning ulgurji sotish narxi (yoki import mahsulotining xarid qiymati)dan kelib chiqib, transport xarajatlarini hamda ularga nisbatan qo'llaniladigan eng yuqori tayyorlash-ombor va vositachilik ustamalarini hisobga olgan holda, vositachilar sonidan qat'i nazar, 20 foizdan yuqori bo'lmagan miqdorda shakllantiriladi.

Import mahsulotining xarid qiymati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan Buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni aks ettirish tartibining (3.06.2000- yil, ro'yxatga olish raqami 931) 3.9-bandiga muvofiq belgilanadi.

Binokorlik materiallariga hisob-kitob hujjatlari (yuk xatlar, hisobvaraq-fakturalar va boshqalar)ni rasmiylashtirayotganda

vositachilar quyidagi qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatishlari shart:

– transport xarajatlarini hisobga olib, ishlab chiqargan korxonaning ulgurji sotish narxi yoki import mahsulotining xarid qiymati;

– respublikada tayyorlangan binokorlik materiallarini ishlab chiqaradigan korxona yoki import mahsulotlarini bojxonadan o'tkazish punktining nomi;

– respublikada tayyorlangan binokorlik materiallarini ishlab chiqaradigan korxonaning ularni chiqarish sanasi yoki import mahsulotini bojxonadan o'tkazish sanasi;

– qo'llaniladigan savdo ustamasi (qo'shimcha haq) miqdori.

Vositachi tomonidan respublika hududidagi boshqa vositachilardan binokorlik materiallari xarid qilinganida, ularning nomi va savdo ustamasi (qo'shimcha haq) ko'rsatiladi.

Ishlab chiqargan zavodning ulgurji sotish narxi oshgan va buyurtmachilar hamda pudrat tashkilotlari tomonidan vositachilarga bo'nak to'lovlari amalga oshirilmagan bo'lsa, ularni sotish chog'ida binokorlik materiallarining eng yuqori narxi vositachilar tomonidan ularni ishlab chiqargan zavodning ulgurji sotish narxi darajasiga yetkazilishi mumkin.

Mazkur Nizomga rioya etilmaganda, buning uchun javobgarlik qonunda belgilangan tartibda buyurtmachilar va pudratchilarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Istiqbolda, baholar monitoringini amalga oshirish, sifatini oshirish maqsadida, g'aznachilikning dasturlar kompleksi bilan tovarlar va xizmatlar bo'yicha ma'lumotlar to'plovchi vakolatli tashkilotlarning (idora, agentlik) axborot bazalari, hamda tovarlar va xizmatlar bahosi to'g'risida ma'lumotlarga ega mas'ul tashkilotlar axbortlar (birjalar, elektron axborotlar) bazasini integrasiyalash imkoniyalari ko'rib chiqilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Tender savdosidan ko'zlangan maqsad nimada?

2. Tenderlarning qanday turlari mavjud?

3. *O'zbekistonda tenderlar tashkil etishni tartibga solish qaysi me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi?*
4. *O'zbekistonda tenderlarni tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?*
5. *Davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarni tuzish va ijro etish bosqichlarini tushuntirib bering.*
6. *Tender savdolarini amalga oshirishda baholar qanday monitoring qilinadi?*

§ 6. Tender savdolarida g'olibni aniqlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Tender savdolarida g'olibni aniqlash ikki xil usul bilan amalga oshiriladi – *baho asosida tanlash* (inglizchada, cost based selection – CBS) va *sifat asosida tanlash* (inglizchada, quality based selection – QBS). Savdo natijalarini umumlashtirarkan, tender tashkilotchilari, ushbu ikki usulni birgalikda qo'llash orqali xulosa chiqaradilar. Bunda tovarlar yetkazib berish taklifni baholashda baho va sifat omillarining nisbati, xizmatlar ko'rsatishdagi ushbu omillar nisbatini baholashdan tubdan farq qiladi.

Savdo predmetining turlichaligidan, baho va sifat omillarini turli nisbatlaridan foydalanuvchi baholash usullari mos ravishda ishlatiladi.

Tender savdolari tarixida, faqatgina, eng past so'ralgan baholarga asoslanib, g'olibni aniqlash davrlari ham yuz bergan. Ushbu tanlov usuli judda oddiy va samarali bo'lgan. Ammo, buyurtmachilar eng past baholar bu talab etiladigan sifat emasligini tezda tushunib yetganlar va faqatgina, savdoda ishtirok etayotgan mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va maslahatchilar buyurtmachiga o'zlarining yuqori sifat ko'rsatkichlari bilan oldindan ma'lum bo'lgan holatgina bundan mustasno. Shu sababdan, tender savdolarining rivojlanib borishi bilan buyurtmachilar tanlov hujjatlarida sifat ko'rsatkichlari bo'yicha qator talablarni qo'yishga majbur bo'ldilar va ushbu ko'rsatkichlar ko'pchilik holatlarda tanlovning asosiy mezoni bo'lib qolmoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlarining yo'riqnomalari, tovar hamda xizmatlarni xarid qilish bo'yicha namunaviy hujjatlarida, yirik xaridlar uchun tenderlarni amalga oshirishda baho omili bilan bir qatorda sifat omillariga ham katta e'tibor berish talab etiladi.

Miqdoriy ifodalash mumkin bo'lmaydigan xarid turlari uchun tanlovlarda sifat omilining nisbati ancha yuqoridir. Boshqacha

aytadigan bo'lsa, xarid predmetini qanchalik aniq va to'liq ifodalash mumkin bo'lsa, bunday holatlarda baho omilining nisbati sifat omiliga qaraganda yuqori bo'ladi. Tender takliflarini baholash amaliyotida baho va sifat nisbat quyidagicha ifodalanadi, masalan, 70:30, 80:20 va hakazo.

Ayrim olingan savdo turlari uchun bunday nisbat buyurtmachi tomonidan tender hujjatlarida oldindan belgilab qo'yiladi va natijalarni baholashda majburiy mezon hisoblanadi. O'z navbatida, savdo natijalarini baholashda boshqa baholovchilar jahon amaliyotida qo'llanilib kelingan tajribalarga asoslangan nisbatlarni aks ettiruvchi o'z uslubiyotlaridan foydalanishadilar.

Tovarlar ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlarini ifodalash oson bo'lgan xarid predmeti hisoblanadi. Tovarlar sotib olish uchun tuzilgan tender hujjatlari «Texnik ko'rsatkichlar» nomli hujjatni o'z ichiga olib, unda sotib olinishi mo'ljallanayotgan tovarning barcha ko'rsatkichlari, uning to'liq tavsifnomasi, sifat parametrlari ko'rsatiladi. Talabgorlar uchun yo'riqnomada tovarni yetkazib berish usullari va tovar bilan bog'liq zaruriy xizmatlar bo'yicha talablar to'liq ko'rsatilgan bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, bu turdagi savdolar xaridni qanday bo'lishi zarurligini to'liqroq aks ettiradi va unda o'zgaruvchan va noma'lum o'lchovlardan nisbatan kamroq foydalaniladi.

Mazkur holat bir qarashda, sifat omilini alohida inobatga olishga zarurat yo'q, faqatgina baho omili birlamchi degan xulosani beradi va bu, ko'pchilik hollarda, qaysidir ko'rinishda tender hujjatlarida o'z aksini topadi.

Shunday bo'lsada, Jahon bankining «Jahon tiklanish va taraqqiyoti bankining (JTTB) qarzlari va Jahon rivojlanish assosiasiyasi (JRA) kreditlari hisobiga xarid« yo'riqnomasining 2.48 punktida shunday ko'rsatadiki: «....shartnoma eng past bahoni taklif etgan ishtirokchiga taqdim etiladi». Yo'riqnomaning keyingi 2.51 punktida: «....bahodan tashqari boshqa omillar ham aniq ko'rsatilishi shart....va taklifni eng past baholarda ekanligini aniqlash maqsadida, ularni (omillarni) hisobga olish tartibi.

Tovarlar va asbob-uskunalarni yetkazib berish takliflarini ko'rib chiqishda quyidagilarga e'tibor berish lozim... obyektgacha bo'lgan

masofada ichki tashish xarajatlari miqdori va sug'urta qilish xarajatlari... foydalanish bilan bog'liq xarajatlar miqdori, quvvati va boshqa uskunalarga mos kelishi, ehtiyot qismlarning mavjudligi va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatlari..., shuningdek, personalni o'qitish, texnik xavfsizlik va atrof-muhitga ta'siri birlamchi darajada e'tibor berilishi lozim».

Xuddi shunday ko'rsatmalar Jahon bankining namunaviy tender hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan (WB Standard Bidding Documents). Ushbu hujjatning 26.4 punktida «buyurtmachi tomonidan talabgorning hujjatlarini baholashda, bahoga qo'shimcha tarzda.... quyidagi omillarning biri yoki bir nechtasi inobatga olinishi shart...: a) buyurtmachining mamlakatida tovarni yetkazib berish bilan bog'liq ichki transport, sug'urta va boshqa xarajatlar..., b) yetkazib berish muddatlari...; v) to'lovni amalga oshirishda jadvaldan chetga chiqish..., g) komponentlar, zaruriy ehtiyot qismlar va xizmat ko'rsatish qiymati, d) buyurtmachining mamlakatida ehtiyot qismlar va sotishdan so'nggi xizmat ko'rsatishning mavjudligi..., e) ekslpluatatsiya va xizmat ko'rsatish uchun ko'zda tutilayotgan xarajatlar miqdori..., j) asbob-uskunaning ishonchlilik darajasi va quvvati...va boshqa o'ziga xos omillar...».

Yuqorida keltirilgan ikkala yo'riqnoma ham agar buyurtmachi uchun muhim bo'lsa, tovarlar yetkazib berishda nafaqat baho, balki sifat omillarini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlamoqda.

Tovarlarni yetkazib berishda sifat omillarini hisobga olish Jahon banki yo'riqnomasining 2.51 punktida «baholash qiymatining eng past miqdorini aniqlashda, baholab bo'lmaydigan omillarni iloji boricha pul ko'rinishida yoki yalpi miqdor ko'rinishida aniqlanadi...». Eng past baholarni aniqlashda, baholovchilar, talabgor mol yetkazib beruvchining baholariga ma'lum summalarni qo'shib hisoblaydilar (o'rtacha yillik ekspluatasiya xarajatlarini qo'shib hisoblash mumkin), yoki pul ko'rinishida ifodalab bo'lmaydigan omillarni inobatga olish uchun tuzatish koeffisiyentlaridan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar xaridini amalga oshirishda tender savdolarida g'olibni baholash,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21-noyabrdagi 456-sonli qaroriga ilova qilingan «Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo‘yicha tender savdolari o‘tkazish to‘g‘risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Xalqaro amaliyotda kuzatilganidek, tovarlar yetkazib berish uchun tuziladigan tenderlarda baho aniqlovchi tusga ega ekanligini kuzatish mumkin: «...taklif etilgan narxlarning o‘rtacha jahon va konsalting firmasi, yoki Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Tovar bozorlari kon’yunkturasini o‘rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertiza qilish respublika markazi yoki Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining xulosalari bo‘yicha bozor kon’yunkturasida yuzaga kelgan narxlarga mosligiga asosan amalga oshiriladi» (yuqoridan qayd etilgan Nizomning 10-moddasi).

Ammo, baho tanlovning yagona omili emasligi va albatta sifat ko‘rsatkichlari ham inobatga olinishiga e’tiborni qaratish lozim «...taqdim etilgan tender takliflarining qo‘shimcha texnik, tashkiliy va tijoriy ustunliklari hamda tender qatnashchisining obro‘-e’tibori ham e’tiborga olinishi mumkin».

Alohida e’tiborli xususiyat shundaki, Respublikada tender savdolari bo‘yicha talabgorlar taklifini baholashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga baho imtiyozlari taqdim etilgan: «...agar tenderda xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mamlakatimiz korxonalari, ishlab chiqaruvchilari ishtirok etsa, bu korxonalarga tovarlar va xizmatlar davlat xaridi... tender savdolarida ishtirok etganda 20 foizgacha miqdorda narx imtiyozlari beriladi» (yuqoridagi Nizomga maxsus X-I bo‘lim kiritilgan bo‘lib, ushbu bo‘limning 55-punktida mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida g‘olibni aniqlashda baho imtiyozlarini taqdim etish shartlari keltirilgan).

Yuqoridagi Nizomning quyidagi ikki punkti, tender g‘olibini aniqlashning ustuvor mezoni baho omili ekanligini ko‘rsatadi: «mamlakatimizning boshqa korxonalari – ishlab chiqaruvchilariga nisbatan, lekin qo‘shimcha qiymat solig‘i summasiga qo‘shib hisoblagan holda import tovarlar yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) bo‘yicha eng yaxshi narxdan oshmaydigan

olib kirishda qo'shimcha qiymat solig'i to'lashdan ozod qilish bo'yicha imtiyoz qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha *eng yaxshi narxni taklif etgan* mamlakatimiz korxonasi, ishlab chiqaruvchisi *tender g'olibi* deb aniqlanadi».

Yoki: «...mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijalariga ko'ra, qo'shimcha qiymat solig'i summasiga qo'shib hisoblagan holda ko'rsatilgan eng yaxshi narxdan oshmaydigan narxni taklif etish mumkin bo'lmagan taqdirda, import tovarlar yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) bo'yicha *eng yaxshi narx taklif etgan* tender ishtirokchisi tender g'olibi deb e'lon qilinadi».

Shunday qilib, tovarlar yetkazib berish bo'yicha tender savdolari bo'yicha xulosa eng past baholar asosida chiqarilib, u mol yetkazib beruvchi arizasidagi baholar (baho omili), hamda baholashning boshqa koeffisiyent ko'rsatkichlari va tuzatish summasini (sifat omili) inobatga oladi.

Baho va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbat, buyurtmachi mamlakat shart-sharoitlari, sotib olinayotgan tovar xususiyatlari va qator boshqa holatlarni inobatga olib, ko'pchilik hollarda 80—70 (baho) va 20—30 (sifat) nisbatda bo'ladi.

Tovarlar sotib olish bilan bog'liq tenderlarni tashkil etishda, ishtirokchi talobgarlar taklifini baholashda faqatgina ular tomonidan, tovar yetkazib berishning arizada ko'rsatilgan qiymatlariga tayanib qolmaslik zarur.

Bajariladigan (pudrat) ishlarining kompleks tusga ega ekanligi, qator noma'lum va o'zgaruvchan o'lchamlarning mavjudligi sababdan, ushbu ishlarni batafsil ifodalash ancha murakkab holatdir. Pudrat ishlari savdolari bo'yicha tender hujjatlari ancha katta hajmda bo'ladi va bir nechta bo'limlarni tashkil etadi. Ushbu hujjat to'plami — tenderda ishtirok etuvchi talobgarlar uchun yo'riqnoma, loyiha echimi (chizmasi), ishlar bajarilishining texnik shartlari, smeta va boshqa hujjatlardan tashkil topadi.

Savdolarga tayyorgarlik paytida bunday katta hajmdagi hujjatlarni tayyorlash ancha katta hajmdagi mehnat, qimmat turuvchi va uzoq muddatga cho'ziluvchi jarayon hisoblanadi.

Shunga qaramay, bahoga asoslangan tanlovga imkon beradigan savdolarni tashkil etish maqsadida, buyurtmachilar bajarilishi talab etiladigan ishlarni iloji boricha batafsil ifodalashga ancha mablag' sarflaydilar.

Jahon bankining yuqorida qayd etilgan yo'riqnomasining 2.52 punktida: «....bajariladigan ishlar bo'yicha shartnomalar uchun takliflarni baholash faqatgina pul ko'rinishida amalga oshiriladi....», — deb aniq keltirib o'tilgan.

Va keyingi 2.58 punktda: «...buyurtmachi, o'rnatilgan standartlarga mos imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lgan savdo ishtirokchisi bilan shartnoma tuzadi. Bunday taklif: 1) savdo hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob berishi; 2) eng past baholash qiymatiga ega bo'lishi zarur.....».

Bu yerda ham biz eng past baho (baholash qiymati) tushunchasiga to'qnash kelamiz. Ammo, Jahon bankining ishlarni xarid qilish bo'yicha tender namunaviy hujjatlarining (Standard Bidding Documents — procurement of works) 31 punktiga («Takliflarni solishtirish va baholash») e'tibor berilsa, eng past baho, bu yerda pudratchi tomonidan arizada ko'rsatilgan baho, arifmetik xatolar, ko'zda tutilmagan xarajatlar kabilarni ko'zda tutuvchi tuzatishlarni hisobga olish bilan aniqlanadi.

Bu ta'rif, pudratchi tomonidan taklif etilishi mumkin bo'lgan sifat omilini inobatga olish haqida ko'rsatma bermaydi.

«Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) tomonidan moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va prinsiplar» (Procurement Policies and Rules for Projects financed by the European Bank for Reconstruction and Development) hujjatining 3.30 moddasida shunday deyiladi: «... o'z tanlov arizasiga ko'ra, baholashning aniq mezonlari nuqtai nazaridan, tanlov hujjatlarida o'rnatilgan talablarga javob beradigan, hamda iqtisodiy tejamkor va shuning bilan birga, shartnomani to'liq bajarishga qodir bo'lgan tanlov ishtirokchisi bilan shartnoma tuziladi». Yo'riqnomaning mazkur moddasining e'tiborli tomoni shundaki, unda nafaqat baho mezoni, balki tanlov ishtirokchisining pudrat ishlarini bajara olish imkoniyati ham baholanadi.

Ya'ni, baholovchilar pudratchi taklifining texnik jihatlarini (ish jadvali va uni tashkil etish, asbob-uskunalarning mavjudligi va holati, boshqaruv personalning tajriba va kvalifikasiyasi va boshqalar) tahlil etishi lozim. Xalqaro savdolar amaliyotida bunday tahlil texnik tahlil sifatida ma'lum bo'lib, bunday tahlil sifat ko'rsatkichlarini solishtirishdan iborat va u baho omiliga aloqador emas.

Yevropa Komissiyasining 1999-yildagi «Komissiyaning uchinchi mamlakatlar bilan hamkorlik qilish maqsadida ishlar, tovarlar va xizmatlar yetkazib berish uchun tuziladigan shartnomalari» (Manual of Instructions. Contracts for works, supplies and services concluded for the purposes of Community cooperation with third countries), yo'riqnomalar to'plami Yevropa Komissiyasining rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirayotgan loyihalarida keng qo'llaniladi.

Mazkur hujjatning 20.10.1 moddasida: «iqtisodiy jihatdan eng foydali taklif«ni taqdim etuvchi, ya'ni texnik baholash paytida texnik talablarga mos deb topilgan, boshqa takliflardan qimmat bo'lmagan taklif beruvchi muvoffaqiyatli talabgor deb tushuniladi».

Bu yerda biz, Jahon bankining hujjatlarida uchramaydigan, tender takliflarining texnik baholash haqidagi ko'rsatmaga duch kelamiz.

Savdolarda, shuningdek, injener-maslahatchilar xalqaro federatsiyasining (Federation Internacionale des Ingenieurs – Conseils) «Tender jarayonlari» (tendering procedures) nomli hujjati keng qo'llanilib, ushbu hujjat ishlarni xarid etish savdolarini o'tkazish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjatning 11.0 moddasi «Takliflarni baholash» deb nomlanib, u talabgor taklifini moliyaviy, texnik va shartnomaviy-adminstrativ baholashni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, 4 modda «Taqdim etiladigan hujjatlar»ni tushuntirib, unda asosiy taqdim etiladigan hajjatlar bilan bir qatorda: subpudratchilar va ular bajaradigan ishlar hajmi haqida axborot, ishni bajarishga jalb etiladigan asbob-uskunalar va pudratchining asosiy personali haqida ma'lumotlar pudratchi tomonidan ko'rsatilishi kerak.

Bu turdagi barcha ma'lumotlar sifat ko'rsatkichlari bo'lib, ular tender takliflarini baholashda, talabgorning baho taklifi bilan bir qatorda e'tiborga olinadi.

Shunday qilib, Jahon bankining tegishli yo'riqnomalarida baho ko'rsatkichi asosida pudratchilar taklifini baholash haqida tavsiya berilsada, boshqa xalqaro hujjatlarda texnik, ya'ni sifat ko'rsatkichlari asosida ham baholashning zarurligi ta'kidlanadi. Bu savdolarni o'tkazishda pudratchilarni ham baho, ham sifat omilini e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi.

Amalda konvertlar ochilgandan so'ng, qisqa tekshirish va taklif etilgan baholar e'lon qilinadi va baholovchilar hujjatlarning to'liqligi, arifmetik aniqlik, taklif tarkibida qo'shimcha shartlar va muqobil variantlar borligini tekshirishga kirishadilar. Shundan so'ng, taklifning tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan shartlarga mosligi aniqlansa, yuqoridagi qoidalarda keltirilganidek, uning baholangan qiymati aniqlanadi va baho ko'rsatkichlari asosida holat o'rganiladi.

Bunday holatlarda, tajribali baholovchilar juda yuqori va juda past baho taklif etadigan ishtirokchilar arizalarini ko'rib chiqishni to'xtatadilar. Chunki, oxir oqibatda bunday arizalar yoki baho ko'rsatkichi bo'yicha (eng yuqori baho taklifi), yoki sifat ko'rsatkichi bo'yicha (eng arzon baho taklifi) nomaqbul deb topiladi. Eng past baho taklifiga nisbatan norasmiy hisoblanadigan bunday amaliy qoidaning mavjudligining o'zi ham, pudrat ishlarini bajarishda bahoga asoslangan tanlovning hal qiluvchi emasligidan guvohlik beradi.

Ushbu bosqichdan so'ng, pudrat ishlarini muvoffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan, yuqorida ko'rib o'tilgan sifat ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi va taklifni texnik baholash amalga oshiriladi. Shunday holatlar ham ma'lumki, past baholi takliflar ham asosiy vositalarning yo'qligi yoki eskirganligi sababli, ba'zan, rahbarlik xodimlarining past kvalifikatsiyasi tufayli muvaffaqiyat qozonmaydilar.

Ba'zi holatlarda, pudratchi o'z taklifida qurilish jarayonini yetarlicha asosli rejalashtira olmagan va uni amalga oshirish uchun zaruriy tashkiliy tuzilma va tadbirlarni oldindan ko'ra olmaganligi

ma'lum bo'ladi. Ushbu sabablarning barchasi, past baholar taklifi berilishiga qaramasdan pudratchi taklifidan voz kechishga olib keladi.

O'zbekistonda tanlov hujjatlarining texnik qismiga talablarni hamda markazlashtirilgan manbalar (davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'arma va Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan alohida tarmoqlar va tashkilotlarning maxsus jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi Huqumati kafolati yoki uning nomidan jalb etiladigan chet el kreditlari, O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari) davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan barcha turdagi ishlar va xizmatlar tanlov hujjatlarini baholash, Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2003- yil 3- iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida»ga Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Bunday turdagi tanlovda sifat omilining usutvorligini quyidagi: «...savdo ishtirokchilariga qo'yiladigan talablarga amal qilinganligi (lisenziya, etarli ish tajribasining borligi, moliyaviy holati, texnika bilan jihozlanishi, savdoning aniq inshootlariga qarab boshqa malaka talablari)», yoki: «...takliflarni texnik[1] va moliyaviy baholashda mezonlarni qo'llashning xolisligi va ularning ahamiyati» punktlarda kuzatish mumkin.

Pudrat ishlari buyicha tanlovlarni tashkil etishning nazariy va amaliy tajribasi shundan dalolat beradiki, baholar asosida tanlash usuli tanlovlarda g'olibni aniqlaydigan yagona maqbul usul emas, balki u baholashning sifat omillari bilan birga qo'llaniladi. Ishlarni

---

[1] **Texnik qism** — bu talabgorlar o'z tanlov takliflarini qiymatini hisob-kitob qilishi uchun zarur va yetarli bo'lgan xarid qilinayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori va xarakteristikasini, ishlarning bajarilish (tovar yetkazib berish, xizmatlar) muddati, shuningdek, tanlov savdolari bir bosqichda amalga oshirilganda tanlov savdolari buyurtmachisi va g'olib tomon o'rtasida tuziladigan shartnomadan so'ngi hisob-kitoblarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlardan iborat hujjatlar yig'majildi.

xarid qilish bo'yicha savdolarda baho-sifat nisbati, odatda, 60:40, ayrim hollarda – talabgorlarga ko'plab qo'shimcha talablar mavjud bo'lganda 50:50 ni tashkil etadi.

O'z-o'zidan, baho va sifat o'rtasidagi bunday nisbat shartli bo'lsada, tender savdolarida yirik hajmdagi pudrat ishlari taklifini baholash, hech qachon talabgor taklif etgan baholar asosida emas, balki baho va sifat deyarli teng ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, baho va sifat omillarini birgalikdagi tahlili asosida aniqlanadi.

Xizmatlar ko'rsatish aniq ifodalash qiyin bo'lgan savdo predmeti hisoblanadi. Tashkiliy va boshqaruv bo'yicha maslahatchilar, loyihachilar, iqtisodchilar, yuristlar, nazorat injenerlari xizmatlarini, kichik bosqichlarga ajratish va talabgorlar taklifini baholashda qo'llash mumkin bo'lgan bir xil qiymatli tushunchalar asosida ifodalash juda murakkabdir.

Shunday bo'lsada, savdoning aynan shu turida «baho-sifat» nisbati yo'riqnomalarda aniq ko'rsatib berilgan – maslahatchilarni tanlashning asosiy omili bu *sifat* ko'rsatkichidir. Baho, odatda, juda kichik nisbatga ega, ayrim holatlarda unga umuman e'tibor berilmaydi.

Bir-qancha xalqaro moliyaviy tashkilotlar xarid haqidagi umumiy qoidalar bilan bir qatorda, faqatgina xizmatlarni xarid etishga taalluqli bo'lgan alohida yo'riqnoma va qoidalarga ham egadirlar.

Masalan, Jahon banki ushbu maqsadlarda foydalanish uchun «Jahon banki qarzdorlarining maslahatchilarni tanlash va yollash» (Selection and Employment of Consultants by the World Bank Borrowers), Osiyo taraqqiyot bankining – «Osiyo taraqqiyot banki va uning qarzdorlari tomonidan maslahatchilarni taklif etish bo'yicha yo'riqnoma» (Guidelines on the use of consultants by ADB and its Borrowers) kabi hujjatlarga ega. Injener-maslahatchilarning xalqaro federatsiyasi (IMXF) 1977- yilda «Maslahat xizmatlarini xarid etishda sifat asosida tanlash» (Quality-based selection for the procurement of consulting services) qo'llanmasini, 2003- yilda «Maslahatchilarni tanlash bo'yicha IMXF yo'riqnomasi»ni tajriba nashr sifatida chiqardi. Ikkala hujjat ham

xalqaro savdo amaliyotida xizmatlarni xarid etishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlagan.

Nima uchun maslahatchilar xizmatini xarid etishga shuncha e'tibor talab etiladi? Qisman bu holat, yuqorida aytilganidek, maslahatchilar xizmatini xuddi tovarlar va ishlar savdosida bo'lganidek, mayda detaligacha ifodalash va baholash ancha murakkabligi bilan izohlanadi. Ikkinchi omil esa ko'rsatilgan xizmatning sifati mutaxassisning kvalifikatsiyasi, tajribasi va taklif etilgan vaqtiga bog'liqdir.

Xizmat qiymati (bahosi)ning pasayishi, har qanday holatda ham, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar bo'yicha xizmat ko'rsatish sifatining pasayishini bildiradi. Bundan tashqari, maslahatlar ko'rsatish bozori ancha vaqtlardan beri shakllanib kelmoqda va baholarning nisbatan ma'lum darajada barqarorligi bilan ajralib turadi.

Shuning uchun ham savdolarni o'tkazishda, xalqaro maslahatchilar tomonidan taklif etiladigan baholar deyarli bir xil darajada ekanligi nomoyon bo'ladi. Baholar asosida tanlov g'oliblarini belgilash bo'yicha qilingan urinishlar natijasida juda past sifatli xizmatlarga ega bo'lindi. Savdolardagi bu tajriba, baholar asosida tanlash taqdim etilgan xizmatlar takliflaridan eng optimalini tanlash usuli emasligini isbotladi.

Shu sababli, bugungi kunda xizmatlarni xarid etish bo'yicha xalqaro savdolarni olib borishda, sifat asosidagi tanlov (QBS) ishlatiladi yoki sifat va baho asosidagi tanlovdan (QCBS) foydalanilsada, bunda bahoning nisbati aniqlovchi ko'rsatkich bo'la olmaydi.

Sifat asosida tanlov o'tkazishda maslahatchilarning taklifi texnik va geografik ish tajribasi, ishlarni bajarish uchun ko'zda tutilayotgan usullar, kvalifikatsiya va asosiy mutuxasislarning ish tajribasi, loyiha bo'yicha ishni tashkil etish, ta'minot va shu kabi texnik ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Tender hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlar bo'yicha baholash ballari qo'yiladi, shundan so'ng savdoda g'olib chiqqan talabgor xizmat bahosini kelishib olish uchun suhbatga taklif etiladi. Sifat asosida tanlov o'tkazishda, talabgorning arizada ko'rsatgan xizmat

bahosiga e'tibor berilmaydi va u faqatgina shartnoma tuzish jarayonida muhokama qilinadi.

Sifat va baho asosida tanlov o'tkazishning sifat asosida tanlov o'tkazishdan farqi shundaki, boshda texnik tahlil amalga oshiriladi va u tugamaguncha moliyaviy ko'rsatkichlar inobatga olinmaydi. Texnik tahlildan so'ng, taklifni moliyaviy (baho) jihatdan baholash amalga oshiriladi va natijada, har bir taklif ma'lum formula asosida aniqlanadigan moliyaviy baholash ballini to'playdi. Keyingi jarayon bu – texnik va moliyaviy ballarga tender hujjatlarida ko'rsatigan koeffisiyentlar bo'yicha tuzatishlar kiritiladi (odatda bu 0.8 texnik uchun va 0.2 moliyaviy ball uchun) va umumlashtiriladi. Tanlov g'olibi texnik va moliyaviy ballar bo'yicha aniqlanadi.

Yuqoridagilardan kuzatish mumkinki, xizmatlarni xarid etishning sifatga asoslangan tanlovlarida baho omili umuman e'tiborga olinmaydi (QBS usuli) yoki umumiy ballarning faqatgina 20 foizini tashkil etadi (QCBS usuli).

Shunday qilib, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha savdolarni o'tkazishda «baho-sifat» nisbati yoki 0:100 yoki 20:80 ni tashkil etadi. Ayrim holatlarda, masalan, ko'rsatiladigan xizmatlar bir xillik tusiga ega bo'lsa va aniqroq ifodalash mumkin bo'lsa, unda sifat va baho asosidagi tanlov nisbati 70:30 bo'lishi mumkin. Ushbu holatlarda bu nisbat faqatgina nazariy bo'lib qolmasdan, balki xizmatlarni xarid etish bo'yicha yuqorida keltirilgan qo'llanmalarda yoki tender hujjatlarida rasmiy ravishda qayd etilishi kerak.

Shunday qilib, xizmatlar xarid etish bo'yicha savdolarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda sifat aniqlovchi omil bo'lsa, baho esa ikkinchi darajali o'lchov hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan uch turdagi tender takliflarini baholashning o'ziga xos jahatlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim olingan tender turlari uchun yo'riqnomalar baho omilini tanlovning yagona omili sifatida qayd etsada, sifat ko'rsatkichlari qaysidir nisbatda albatta inobatga olinadi. Takliflarni baholash bo'yicha tajribali mutaxassislar, rasmiy hujjatlarda sifat omilini baholashning aniq belgilangan uslubiyoti yo'q bo'lishiga qaramasdan, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarni tanlashda sifat omilini

hisobga oladilar. Maslahatchilar xizmati bo'yicha esa, bunday turdagi savdolarda sifat omili asosiy rol o'ynaydi.

Tender savdolarini tashkil etishning uzoq davr davomida kuzatilgan tajribasi shundan dalolat beradiki, faqat baho asosida tanlov, xarid qilinyotgan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarni zaruriy sifat darajasida bo'lishi uchun yetarli bo'la olmaydi.

Bu o'z navbatida, loyiha uchun yo'naltirilgan investitsiyalarni optimal bo'lishini ta'minlamaydi. Shuning bilan bir vaqtda sifat omilini inobatga olish, savdolarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish – tovarlar, ishlar va xizmatlarni eng past baholarda optimal sifat bilan olish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Tender savdosida baho va sifat omili nima?*
2. *Qachon sifat omilining nisbati tanlovlarda yuqori hisoblanadi?*
3. *Jahon bankining namunaviy tender hujjatlarida tender g'olibini aniqlashda qaysi omil ustuvor sanaladi?*
4. *O'zbekiston Respublikasida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar xaridini amalga oshirishda tender savdolarida g'olibni baholashda qaysi me'yoriy hujjatdan foydalaniladi?*
5. *Tender savdolarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga baho imtiyozlari nima?*
6. *Tender savdolarida g'olibni aniqlashning xalqaro va milliy amaliyoti o'rtasidagi o'xshashlik va farqni tushuntirib bering.*

III bob. DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI

§ 7. Dvlat xarid tizimini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi

Davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mablag'larini samarali boshqarish, shuningdek, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlik sub'eklarini ushbu sohaga kengroq jalb etish kabi qator maqsadlarni ko'zlaydi.

Davlat va mahalliy organlar xaridining samarasi amaldagi qonunchilik, davlat xaridini tartibga soluvchi organlar faoliyatining samarasi hamda xaridni amalga oshiruvchi xodimlarning professionallik darajasi kabi omillarga bevosita bog'liq[1].

Davlat xaridini boshqarishning xorijiy tajribasi, xususan, AQSh, Avstraliya, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda ularning ijobiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishning samarali mexanizmalarini joriy etishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridini tashkil etishda AQSh tajribasini, ushbu mamlakatda davlat xaridini davlat moliyasi tarkibidagi o'rnini tahlilidan boshlaymiz. AQSh hukumati mudofaani ta'minlashga, ta'limga, shifoxonlar, yo'l qurilishi va boshqa umumjamiyat ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlash uchun davlat xarajatlarni amalga oshiradi.

AQShda shtatlar hukumati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun federal hukumatga nisbatan ham ko'proq xarajatlarni amalga oshiradi.

---

[1] Государственные закупки. http://www.ebrd.com/russian/pages/sector/legal/procurement.shtml

Quyidagi 1-jadvalda AQShda davlat xarajatlarining taqsimlanishi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari ikki xil tartibda ajratilgan: birinchidan – xarajatlarni federal va shtatlar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida ajratib ko'rsatilgan; ikkinchidan – davlatning umumiy xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlar sotib olishga yo'naltirilgan qismi (ya'ni ijtimoiy to'lovlarni ajratgan holda) aks ettirilgan. Ijtimoiy to'lovlar (transfertlar) – bu uni oluvchilarga tovarlar va xizmatlar taklif etilmasdan, to'lanadigan mablag'lardir.

1-jadval[1]

AQSh hukumatining xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi (1986- yil YaIMga nisbatan % da)

	barcha darajadagi hukumat	**federal**	**shtatlar, o'z-o'zini boshqarish organlari**
jami xarajatlar	37,8	24,5	13,3
tovarlar va xizmatlar sotib olish	20,5	8,7	11,8

1986- yilda federal hukumat xarajatlari YaIMning 24,5 foizini tashkil etganligiga qaramasdan, tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflangan mablag'lar hissasi YaIMning 9 foizi miqdorini tashkil etgan. Bu farq federal hukumat xarajatlarining kichik qismi tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflanishi bilan izohlanadi. Federal xarajatlarning 2/3 qismini aholiga ijtimoiy to'lovlar to'lash, shtatlar va o'z-o'zini boshqarish organlariga subsidiyalar ajratish tashkil etadi. Federal hukumat ijtimoiy to'lovlari, o'z ichiga, ijtimoiy ta'minot va ishsizlik nafaqasini oladi.Tovarlar va xizmatlar xaridining katta qismi federal hukumat tomonidan amalga oshiriladi va ushbu xarajatlarning yirik ulushi (YaIMning 7 foizi) mudofaa ehtiyojlari uchun amalga oshiriladi. Shtatlar hukumatlari va o'z-

[1] *С. Фишер и др. Экономика.* Перевод с английского. Москва. Дело лтд. 1995 г. Стр 514.

o'zini boshqarish organlari tomonidan tovar va xizmatlar xaridi, aksincha, ta'lim, yo'l qurilishi, shifoxonalar ta'minotiga sarflanadi. Umuman, davlat sektori mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning qariyb 20 foizini xarid qiladi.

AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish – Federal xarid siyosati boshqarmasi (Office of Federal procurement Policy) tomonidan amalga oshiriladi. Bu organ dastlab, Byudjetni boshqarish boshqarmasida maslahatchi organ sifatida 1974- yilda tashkil etilgan, 1988- yildan hukumatning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Federal xarid agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan barcha xarid 1984- yilda ishlab chiqilgan davlat xaridini tartibga soluvchi qoidalar yig'indisi (Federal Acquisition Regulation, FARI) bilan tartibga solinadi. Unda xaridni tashkil etishning barcha bosqichlari – xaridni rejalashtirish, davlat xaridini amalga oshirishni boshqarish va uni tugallashgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'z aksini topgan.

FAR dan ko'zlangan asosiy maqsad – davlat ehtiyoji uchun xaridni amalga oshiruvchi barcha federal agentliklar tomonidan yagona xarid siyosatini amalga oshirish va yagona xarid qoidalaridan foydalanishni ta'minlashdan iborat. FAR ning missiyasi esa, xaridni amalga oshirishga bo'lgan vaqt cheklanganligini inobatga olgan holda, davlat buyurtmachilarini eng optimal baho-sifat munosabatini ta'minlagan holda tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat.

FAR ga asosan AQShda davlat xaridiga buyurtmani joylashtirishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

– ochiq savdolar;
– ikki bosqichli savdolar;
– muzokorlar olib borish;
– xaridni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish.

Boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli shartnoma summasi katta bo'lmaganda (100 ming AQSh dollari miqdorigacha) va yiliga 5 mln AQSh dollaridan ortmaganda qo'llaniladi. Bunda sun'iy

ravishda xarid hajmini pasaytirish (mayda qismlarga ajratish orqali) taqiqlanadi. Soddalashtirilgan usulga quyidagilar kiradi:

– baho kotirovkalari so'rovnomasi;

– juda kichik hajmdagi (2500 dollargacha) xaridni amalga oshirishda Korporativ xarid plastik kartlaridan foydalanish;

– xarid uchun buyurtma joylashtirish;

– turlari ko'p bo'lgan mahsulotni doimiy sotib olishda namunaviy-me'yoriy shartnomalardan foydalanish (masalan – buyurtmachini avtoxo'jaligi uchun ehtiyot qismlar sotib olish, yoki ofis uchun konselyariya tovarlarini sotib olish) va boshqalar.

AQShda davlat buyurtmasini shakllantirish va joylashtirish ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

– joriy faoliyatni ta'minlash uchun (moddiy-texnik ta'minot);

– ma'lum davlat organini ish yo'nalishi bo'yicha xarid (avvalo ilmiy tadqiqot ishlari, kapital quyilmalar).

AQSh xorijiy mamlakatlar orasida davlat xaridini axborot bilan ta'minlash sohasida eng boy tajribaga ega mamlakat hisoblanadi. AQShda davlat xaridini federal darajada tartibga solish bo'yicha dastlabki qonun 1972- yilda qabul qilingan. Ushbu qonunga muvofiq, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish bo'yicha vakolat Moliya vazirlgi va Mudofaa vazirligiga berilgan.

Umuman, AQShda davlat xaridi tizimi markazlashtirilmagan tarzda tashkil etilgan.

Hozirgi paytda federal organlar ehtiyojlari uchun xarajatni amalga oshirish Umumiy Xizmatlar Boshqarmasi (UXB) – (General Services Adminstration) zimmasiga yuklatilgan. Vazirlik va idoralarning arizalariga asoslanib, UXB tender savdolarini tashkil etish orqali yirik hajmdagi ulgurji xaridni amalga oshiradi. Tovarlar UXBning yukxonalarida saqlanadi va buyurtmachilarga ulgurji baholar ustiga sezilarsiz ustama qo'shish bilan (UXBning faoliyat xarajatlarini qoplash maqsadida qo'shiladigan) qayta sotiladi. Buyurtmachilarga Umumiy xizmatlar Boshqarmasi tomonidan markazlashgan holda sotib olinadigan 4 mln dan ortiq tovarlar xilma-xilligi taklif etiladi. Umumiy xizmatlar adminstratsiyasi tomonidan bajariladigan yana bir muhim vazifa bu – xarid etish jarayoni xarajatlarini pasaytirishdan iboratdir. Masalan, Umumiy

xizmatlar adminstratsiyasi tomonidan xarid uchun sarflangan xarajatlar umumiy xarajatlarning 2.07 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005- yilda 1.75 foizga qisqargan.

Milliy mudofaa ehtiyojlari uchun xarid Mudofaa vazirligi – (Department of Defense) tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim ixtisoslashgan xarid turlari boshqa idoralar tomonidan ham amlga oshiriladi, masalan, Energitika sohasidagi tadqiqotlar va rivojlanish Agentligi – (Energy Research and Development Agency), Kosmik tadqiqotlar va Aeronavtika Milliy Boshqarmasi – (National Aeronautics and Space Adminstarion, NASA) va boshqalar.

Federal xarid bo'yicha monitoringni amalga oshirish Xarid siyosati Federal Boshqarmasi – (Office of Federal Procurement Policy) zimmasiga yuklatilgan, xarid siyosati sohasida idoralararo muvofiqlashtirish esa, Federal xaridni tartibga soluvchi Kengash tomonidan amalga oshiriladi – (Federal Acquisition Regulatory Council).

AQShda davlat xaridini huquqiy asosini: Federal ehtiyojlar uchun xaridni amalga oshirish tartibi (Federal Acquisition Regulations, FAR) va Mudofaa ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish tartibi – qo'shimchalar (Defense Federal Acquisition Regulations – Supplement, DFARS) kabi hujjatlar tashkil etadi.

Ushbu hujjatlar xarid jarayoni tamoyil va bosqichlarini juda ham detallashgan tarzda ifodalaydi va butun federal xaridning tizimini tartibga soladi.

Xarid sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonunchilikni ikki kategoriyaga ajratish mumkin.

Birinchi kategoriya – umumfederal qonunchilik. Mazkur qonunlar davlat xaridini tashkil etish jarayonini tartibga soladi, federal darajadagi ijroiy organlar vakolatiga tegishli bo'lgan xaridning ayrim turlarini amalga oshirish bo'yicha yuridik me'yorlarni belgilaydi.

Ikkinchi kategoriya -shartnomalar shakli va ularni amalga oshirish bo'yicha maxsus qonunchilik bo'lib, u xarid jarayonlarini axborot bilan ta'minlash va uning natijasini tahlilini amalga oshirishni tartibga soladi.

AQShda davlat xaridini tashkil etish, davlatning funksiya va vazifalariga amerikacha yondoshuvdan kelib chiqib, uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

– haqqoniylik asosida, ya'ni davlat buyurtmalari bo'yicha savdoda ishtirok etayotgan pudratchilar uchun bir xil raqobat muhitini shakllantirish;

– ochiqlik asosida va davlat buyurtmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish;

– tejamkorlik va samaralilik asosida, ya'ni tovar va xizmatlarni talab etilgan sifatda va arzon baholarda, xarid etish xarajatlarini minimallashtirishni ta'minlash.

2.2.2 Elektron texnologiyalar

AQShda davlat xaridi tizimi davlat, xo'jalik, ilmiy-texnik komplekslar bo'yicha 100 ga yaqin federal idoralarni o'z ichiga oladi. Ular har yili, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni markaziy boshqaruv federal organi, o'z idora markazlari va mamlakatning yirik shaharlarida joylashgan federal hukumatning 12 ta hududiy markazlari orqali joylashtiradilar.

AQSh qonunchiligi, davlat xaridi bo'yicha axborot resurslarini shakllantirish va foydalanish uchun mas'ul bo'lgan organlar faoliyatini ham tartibga solib turadi. Axborot resurslarni ta'minlovchi yig'ish, qayta ishlash va xarid bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish, federal ehtiyojlar uchun xarid bo'yicha axborotlar tizimi bazasini boshqarish va shartnomalarning federal ro'yxatini olib boruvchi organlarning funksiya va vakolatlari qonuniy belgilab berilgan. Federal xaridlar bo'yicha Markaz davriy ravishda ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha Yo'riqnoma chop etib turadi. Unda quyidagilar aks etadi:

– hisobot topshirgan va hisobot topshirmagan idoralarning to'liq ro'yxati ko'rsatiladi;

– har bir idora bo'yicha, ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha zaruriy yo'riqnomalar;

– tushuntirishlar (qanday ma'lumotlar zarur va qaysi davr oralig'ida ularni taqdim etish kerak).

Davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xaridining o'sib borayotganligi yetarli darajada aks ettirilmaganligi sababali, 1994-yilda, AQSh qonunchiligi jiddiy taftish etildi. Taftish yakunlariga asosan, AQShda xaridni tartibga soluvchi yangi qonunchilik shakllantirildi va u axborot bilan ta'minlash tizimini zamonoviylashtirish va tizimda axborot resurslardan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirilishiga olib keldi.

Davlat xaridini tashkil etish jarayoni ham tahlil etildi (1994-yilda, bu sohani nazorat etuvchi qonun va qoidlar jami 889 tani tashkil etardi). Shundan sung, davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha vakolatli federal organlarga, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirishning shakllari, xaridni turlari, usullarini tanlashda kengaytirilgan erkinliklar berildi.

Qonun kichik xaridlar uchun shartnoma tuzish jarayonini soddalashtirdi va elektron savdolarni[1] amalga oshirishni parallel ravishda qo'llab-quvvatladi.

Yangi qonunchilikka asosan, xarid qiymati 100 ming dollardan past bo'lgan savdolar uchun qog'ozli hujjatlar aylanmasi bekor qilindi. Bu juda ko'plab hattoki kichik hajmdagi savdolarda ham, mavjud bo'lgan murakkab qoida va jarayonlarni amalga oshirishdan xalos qildi.

Bugungi kunda Amerikadagi har bir federal idora, shartnoma qiymati 25 ming dollardan yuqori bo'lgan, keyingi 5 moliya yilidagi barcha nomaxfiy tusdagi shartnomalarni kompyuter ma'lumotlar bazasini shakllantirishi va saqlashi lozim. Ushbu ma'lumotlar barcha idoralar tomonidan federal xaridning Markazlashgan axborot tizimiga jo'natiladi. Shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishda, federal idoralar, hujjatlarning standartlashgan shakllari va ma'lumotlarning unifikatsiyalashgan formatidan foydalanadilar. Taqdim etiladigan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda, federal idoralar, qiymati 5 mln dollar va undan yuqori

---

[1] Bu yerda, «elektron savdolar» termini faoliyatni amalga oshirishni ta'minlovchi elektron texnologiyalarni nazarda tutmoqda, ya'ni internet, e'lonlarning elektron doskasi, to'lov kartalari, pul o'tkazish, ma'lumotlarni virtual almashish va boshqalar.

bo'lgan subshartnomalarni ham identifikatsiyalashgan elektron shakliga ega bo'lishlari shart.

Federal xaridning axborotlar tizimi, federal idoralar tomonidan har yili tuziladigan jami qiymati 200 mlrd dollarni tashkil etadigan (qiymati 25 ming dollardan yuqori bo'lgan 400-500 shartnomalar hamda kichikroq qiymatdagi 17 mln dan ortiq) shartnomalarning hisob axboroti bilan ta'minlaydi. Federal xaridning Markazlashgan axborot tizimi davlat xaridi haqidagi jamlangan axborot manbai hisoblanadi.

2.2.3 Ochiqlik va ma'lumot olish imkoniyati

Federal xaridning Markazlashgan axborot tizimi ma'lumotlaridan Prezidentga, Kongressga va AQSh byudjet boshqarmasiga taqdim etiladigan davriy hisobotlarni shakllantirishda foydalaniladi, shuningdek, ushbu ma'lumotlar federal idoralar, ishbilarmonlar va keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Ushbu ma'lumotlarga tayanib, Markazlashgan axborot tizimi yillik hisobotlarni tayyorlaydi va taqdim etadi. Individual iste'molchi talabiga asosan, pullik xizmat shaklida, hisobotlar taqdim etilishi mumkin. Zarur bo'lganda, Markazlashgan axborot tizimi mutaxassisi talab qilinadigan hisobot tarkibini ishlab chiqishda mijozga ko'maklashadi.

Hujjatni tayyorlash muddati 5–7 ish kuni qilib belgilangan. Ma'lumotlar bankidan 1 yillik ma'lumotlarni qidirish bahosi, taxminan 400 dollar va har bir qo'shimcha yildagi ma'lumotlar uchun 100 dollardan qo'shimcha haq talab etiladi. Maxsus hisobotlar, ro'yxatlar, iqtiboslar ham qog'ozli shaklda, ham magnit tashuvchilarda taqdim etiladi.

Maxsus hisobotni talab qilishda, quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi talab etiladi:

– tadqiqot o'tkazilishi talab etiladigan vaqt oralig'i (AQSh moliya yili 1- oktabrdan 30- sentabrgacha hisoblanadi);

– mijozning hisobotda olishi zarur bo'lgan ma'lumotlari (masalan, shartnoma ijrochisining nomi, nomeri, shartnoma shakli, summasi va boshqalar);

– mijozni axborotni taqdim etilishini xohlaydigan tarkibiy tuzilishi (masalan, yillar bo'yicha bo'lingan holda, idoralar bo'yicha, ijro etuvchi nomi bo'yicha, murakkablashgan variantlarda).

2.2.4 Elektron savdolar

Federal xaridni amalga oshirishda elektron savdolarni tatbiq etishdan ko'zlangan maqsad – bu faqatgina buyurtmachilarning potensial pudratchilar bilan bo'ladigan takroriy jarayonlarini avtomatlashtirishgina emas, balki xarid jarayonlarini amalga oshirish xarajatlarini pasaytirish va ushbu operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini keskin qisqartirishdan iborat. AQShda federal xaridni elektron savdolar orqali amalga oshirish miqyosi, tijorat tuzilmalari o'rtasida amalga oshiriladigan bunday savdolar hajmiga nisbatan ancha past darajada.

Elektron savdolar, asosan, qiymati 100 ming dollargacha bo'lgan shartnomalar uchun soddalashtirilgan jarayonlarda qo'llaniladi. Ushbu, AQShda davlat xaridini qattiq tartibga solib turilishi va ayrim hollarda faqatgina qog'ozli savdolargina xarid shartlariga mos kelishi bilan izohlanadi.

Elektron savdolarni qo'llash uchun zaruriy sharoitlar bo'lib: internet-texnologiyalardan foydalanishning rivojlangan huquqiy bazasi; aloqa vositalari; axborot himoyasi, kampyuter tarmoqlarini xavfsizligini ta'minlovchi asosiy standartlarning mavjudligi hisoblanadi.

Axborot resurslari davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid jarayonini ochiqligini; xarid jarayonida tenglik; imzolangan shartnomalar haqida ma'lumot olish mumkinligi kabi yuqorida qayd etilgan tamoyillarni amal qilishini ta'minlaydi. Qonunchilikka muvofiq, ushbu resurslardan ma'lumotlarni olish imkoniyati, ularni hukumatning yagona axborot portalida nashr etish orqali amalga oshiriladi. Shartnomalarning federal ro'yxati ham elektron shaklda internetda joylashtirilgan.

– AQSh federal xaridi Markazlashgan axborot tizimining asosiy yutuqlari:

– Kongressga, Prezident devoniga, federal idoralar va xususiy sektor vakillariga davlat xaridi bo'yicha shartnomalar sohasidagi holat haqida juda tez va aniq ma'lumot olish imkoniyatini beradi;

– turli qiziquvchi tomonlarga federal xarid haqida: yillar bo'yicha, idoralar bo'yicha, shartnomalar buyicha va h.k. ma'lumotlar olishga imkon beradi;

Shuning bilan birga bu tizimning quyidagi kamchiliklarini kuzatish mumkin:

– ayrim olingan federal idoralar bo'yicha ma'lumotlarning to'liq taqdim eta olmasligi;

– ushbu ma'lumotlardan hukumat idoralari tomonidan ham, yoki aholi tomonidan unchalik ham faol tarzda foydalanmasligi;

– tizim bo'g'inlari o'rtasida axborotlarning yetrali darajada mos kelmasligi va h.k.

Mazkur izlanishda Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xarid tizimini boshqarish amaliyotini tadqiq etamiz.

G'arb davlatlarning hukumatlari davlat xaridi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlarni birinchi bo'lib boshlashga undagan asosiy sabablar sifatida, ushbu davlatlar hukumatlarining o'z xalqi oldidagi majburiyatlarni bajarishga intilib, hukumatlarning davlat va kommunal xarajatlarining yuqori darajada amalga oshirishi, korrupsiya bo'yicha noxush hollarning tez-tez yuz berishi kabilarni ko'rsatish mumkin[1].

Ishtirokchi mamlakatlarning ko'pligi, ulardagi davlat xaridi miqdorining turli darajada ekanligi, rivojlanish darajasi va davlat sektorining hajmi Yevropa ittifoqida (EI) davlat xaridini tartibga solish bo'yicha qonunchilikni ishlab chiqishda maxsus yondoshuvni talab etdi. Bugungi kunda EI mamlakatlarida davlat xaridini tartibga solish, uning hajmidan va boshqa shartlardan kelib chiqib, uch darajada tartibga solinadi: milliy, EI qonunchiligi hamda xalqaro qonunchilik asosida.

---

[1] Государственные закупки. http://www.ebrd.com/russian/pages/sector/legal/procurement.shtm

EIda davlat xaridini xalqaro darajada tartibga soluvchi qonunchilik sirasiga avvalo, Xalqaro savdo tashkiloti (XST)ning «Hukumat xaridi to'g'risida»gi Kelishuvni ko'rsatib o'tish mumkin. EI darajasida tartibga solish esa, davlat ehtiyojlari uchun xaridni yagona shartlar asosida amalga oshirishni ta'minlovchi qator huquqiy aktlar *mavjud*[1].

Shuni ta'kidlash joizki, 2004- yildan 2006- yilgacha bo'lgan davr, o'tish davri sanalib, bir paytda «eski» yo'riqnomalar bilan bir vaqtda uning o'rnini bosuvchi «yangi» yo'riqnomalar bilan parallel ravishda amal qildi.

EIda davlat xaridini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi[2]:

– odatda, tabiiy monopoliyalar sanaluvchi ayrim iqtisodiyot sektorlarini (suv ta'minoti, energetika, transport va pochta xizmatlari sohasi) davlat xaridi buyicha umumiy qonunchilikning amal qilish doirasidan chiqarish;

– yangicha biznesni yuritish va hisob shakllari: konsessiya hamda xususiy va davlat sektori o'rtasidagi boshqa shakldagi hamkorlik;

– elektron xaridni tashkil etish.

EI davlat xaridini nafaqat davlat boshqaruv organlari faoliyatini joriy ta'minoti, balki davlatning ijtimoiy siyosatini amalga

---

Quyidagi to'rt EI direktivasi davlat xaridini tartibga soladi:

– 1992- yil 18- iyul «Jamoat xizmatlari bo'yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida»gi 92/50/EES raqamli Yevropa Kengashi deriktivasi;

– 1993- yil 14- iyun «Jamoat uchun mol o'tkazib berish bo'yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida»gi 93/36/EES raqamli Yevropa Kengashi deriktivasi;

– 1993- yil 14- iyun «Jamoat ishlari bo'yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida»gi 93/37/EES raqamli Yevropa Kengashi deriktivasi;

– 1993- yil 14- iyun «Suv, energitika, transport, telekommunikatsiya sohalari uchun xarid jarayonini muvofiqlashtirish haqida»gi 93/38/EES raqamli Yevropa Kengashi deriktivasi.

[2] *А. Храмкин.* Международный опыт построения системы госзакупок. http://www.epgz.ru/_goszakaz/_public

oshiruvchi muhim qurol sifatida qaraydi. Xususan, Elining «Ijtimoiy siyosatni yuritishda davlat xarididan foydalanish to'g'risida» gi Kommyunikesida: «...davlat va jamoat ehtiyojlari uchun mahsulotlarni yetkazib berish shartnomalarini tuzishda ijtimoiy maqsadlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak» deyiladi.

Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish mavjud qounuchilik doirasida amalga oshirilishi alohida qayd etilgan. Shuningdek, xaridni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy yondoshuvni ta'minlashda quyidagilar muhimdir[1]:

– ish sharoitlari talablarini o'z ichiga oluvchi shartnoma shartlarini ishlab chiqish;

– mol yetkazib beruvchini to'g'ri tanlash;

– qonunchilik bo'yicha ijtimoiy sohaga to'g'ri kelmaydigan mol yetkazib beruvchilarni mol yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish;

– mol yetkazib beruvchilarni tanlashda qo'shimcha ijtimoiy mezonlardan foydalanish.

Yuqoridagi hujjat davlat buyurtmalarini joylashtirishda ekologik siyosatni ham amalga oshirishni nazarda tutadi, ya'ni zaruriy texnik-texnologik xususiyatlarni ishlab chiqish, xomashyo va materiallardan foydalanish, mos ravishda mol yetkazib beruv3

chilarni tanlash, ekologik talablarni inobatga olgan holda eng yaxshi taklifni baholash uchun tavsifnomalar berish va hakazo.

Elga kiruvchi mamlakatlarda davlat xaridi hozirgacha milliy qonunchilik asosida davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo, bunda nafaqat xaridni tashkil etish bo'yicha milliy qonunchilik, balki Evropa hamkorligining qonunchiligi va tavsiyalariga ham katta e'tibor qaratiladi.

El davlatlarida davlat xaridini tashkil etish bo'yicha yagona umummilliy qonun shakllantirilgan va uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– minimal xarajat qilish evaziga davlat ehtiyojlari uchun qilinadigan xaridni optimallashtirish;

---

[1] *У.Бурханов.* Государственные закупки. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

– EI yagona bozori va milliy bozorlarda shartnomalar tuzishda teng raqobat muhitini ta'minlash;

– ochiqlilik talablarining bajarilishini ta'minlash;

– haqqoniy va ochiq biznesni amlga oshirishga ko'maklashish;

– kichik biznes vakillarini davlat buyurtmalarini olishiga ko'maklashish.

EI darajasida davlat xaridini tartibga solishda, ijtimoiy va ekologik barqarorlik prinsipi bir tomondan, raqobatbardoshlik va erkin savdo mezonlari, ikkinchi tomondan qarama-qarshilikka duch kelmoqda. Mahsulotlarni yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarishni tartibga soluvchi yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy me'yorlar asosida «diskriminasiya qilmaslik» prinsipi yotadi[1]. Ya'ni, EIga a'zo mamlakatlarning davlat xaridi tizimini boshqarishda atayin ichki (milliy) manfaatlarni ustun qilmaslik g'oyasi ilgari suriladi. Shunday qilib, shartnomalar tuzishda asosiy mezon qilib yoki eng past baho, yoki nisbatan foydaliroq iqtisodiy taklif, ya'ni baho va sifat o'rtasidagi munosabat olinadi.

EIda xaridni tashkil etish shakllari, usullarini ishlab chiqishda, shuningdek, axborotlar ta'minoti tizimini shakllantirishda AQSh tajribasidan keng foydalanilgan. Davlat xaridini takomillashtirish masalalari bilan Evropada AQShdan ancha keyin shug'ullanisha boshlashgan, buning sababi – EIga kiruvchi davlatlarning qonunchilik tizimidagi turlichalik va yagona kelishuvga kelishning murakkabligi bilan izohlanadi.

EI mamlakatlarida imzolangan shartnomalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi asosiy axborot resurlari, xarid taklifi haqida bo'lib u «EIning rasmiy jurnali» da chop etilishi zarur. Ushbu nashrning qog'ozli ko'rinishi 1998- yilda bekor etilgan bo'lib, endilikda rasmiy elektron ma'lumotlar bazasi «Kundalik elektron tender» deb yuritiladi. TEDning ma'lumotlar bazasini internetdan olish mumkin va u kompakt-disklarda ham mavjud. U har kuni 500–750 tacha yangi e'lonlar bilan to'ldirilib,

---

[1] Государственные закупки в странах ЕС на примере Италии и Великобритании. http://www.portalzakupok.ru/library/168

yangilanib boriladi va o'zida imzolangan shartnomalar haqida ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shartnomalar va mol yetkazib beruvchilar haqida yanada to'liqroq ma'lumotlar mamlakatlarning milliy axborot tizimlarida mavjud, bundan tashqari, davlat xaridi ishtirokchilariga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi 200 dan ortiq axborot markazlari ham faoliyat yuritadilar[1].

EI mamlaktlarida xarid faoliyatini tashkil etishning ikkita modeli ustunlik qiladi: markazlashmagan va markazlashgan.

Ikkala usul ham barcha rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilib kelinadi. Masalan, Angliyada bu vazifalar Davlat g'aznachiligining zimmasiga yuklatilgan.

Elda ikkala modelning bir vaqtda qo'llanilishi ko'proq samarali ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, xaridni umumiy boshqarish (me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish, rejalashtirish, nazorat va muvofiqlashtirish) faoliyati Moliya yoki Iqtisodiyot vazirligi tomonidan byudjetni shakllantrishda amalga oshiriladi, xarid esa maxsus xarid tuzilmalari tomonidan tashkil etiladi. Angliyada aynan shu tizim mavjud bo'lib, asosiy muvofiqlashtiruvchi organ — g'aznachilikdan tashqari ham, sohaga ixtisoslashgan xarid xizmatlari bor (masalan, National Health Service Supplies — sog'liqni saqlash milliy tizimi uchun xarid xizmati).

Xaridni tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tovarlar va xizmatlarni yirik hajmda xarid etishning eng samarali shakli bu ochiq tanlovlar (tender) o'tkazishdir.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar davlat xaridini tashkil etish asosida tender savdolari turadi. BMT va Xalqaro Savdo tashkiloti kabilar o'z a'zolariga ushbu turda xaridni amalga oshirishni tavsiya etadilar. Xalqaro savdo bo'yicha BMTning Komissiyasi (YuNSITRAL) davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha asos va namuna bo'lishi mumkin bo'lgan «Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida»gi namunaviy qonunni taklif etdi[2]. XST mamlakatlarda xaridni tashkil etish bo'yicha talablar, a'zo mamlakatlar bilan ko'p tomonli shartnomalarda o'z aksini topgan. EI

---

[1] http://europa.eur.int

[2] http://www.cnews.ru/reviews/free/gov2005/part8/europe.shtml

mamlakatlarining xarid faoliyati EIning deriktivalari bilan tartibga solinadi.

Yevropa xarid tizimini boshqarish tamoyillari 1-chizmada aks ettirilgan. Mazkur tamoyillar ko'pchilik mamlakatlarning qonunchiligi asoslarini tashkil etadi va xalqaro hujjatlarda, jumladan, XSTning davlat xaridi bo'yicha ko'ptomonlama shartnomalarida ham ushbu tamoyillarga amal qilish qattiq belgilab qo'yilgan.



1-chizma. **Yevropa xarid tizimini boshqarish tamoyillari.**

Davlat xaridini tashkil etishda ishlatiladigan xaridning ochiq va yopiq bir hamda ikki bosqichli tanlovlari, xaridning yagona manbasidan baholarni so'rash usulidan tashqari, ba'zi mamlakatlarda keng qo'llaniladigan taklif so'rovnomasi va raqobatli muzokaralar usullari ham mavjud. Taklif so'rovnomalari eng kamida uchta mol yetkazib beruvchiga jo'natiladi.

Buyurtmachi (sotib oluvchi tashkilot) takliflarni baholash mezonlarini, uning nisbiy mohiyati va baholashda qanday qo'llanilishini belgilaydi. Ushbu mezonlar mol yetkazib beruvchining boshqaruv va texnik talablarga javob berishi bo'yicha, taqdim etilgan taklif orqali ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkinligi nuqtayi nazaridan, shuningdek, taklif etilayotgan baho,

ekspluatatsiya, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini inobatga olgan holda tuziladi. Bunday hollarda so'rovnoma yuborish, muzokoralar olib borish, yoki buyurtmachi, taqdim etilgan taklifni qayta ko'rib chiqishga ruxsat berishi mumkin. Muzokoralar sir saqlanish sharti bilan olib boriladi va unda ishtirok etish imkoniyati, takliflari rad etilmagan barcha talabgorlarga beriladi. Shundan sung, buyurtmachi mol yetkazib beruvchilar oxirgi takliflarini taqdim etishi lozim bo'lgan muddatni belgilaydi va taqdim etilgan eng yaxshi taklif qabul qilinadi.

EIning ayrim mamalakatlarida davlat xaridini tashkil etishda milliy mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga 5–10 % miqdorida imtiyozlar taqdim etiladi. Ayrim hollarda bunday imtiyozlar ancha yuqori ham bo'lishi mumkin, masalan, Vengriyada bu ko'rsatkich ma'lum vaqt oralig'ida 20 %ni tashkil etgan. Agar qiyoslaydigan bo'lsak, bizning Respublikamizda ham tender savdolari bo'yicha talabgorlar taklifini baholashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga baho imtiyozlari taqdim etilgan: «...agar tenderda xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari ishtirok etsa, bu korxonalarga tovarlar va xizmatlar davlat xaridi... tender savdolarida ishtirok etganda 20 foizgacha miqdorda narx imtiyozlari beriladi»[1].

Ayrim mamlakatlarda davlat buyurtmasining ma'lum qismi, alohida olingan mol yetkazib beruvchilar uchun, xususan, kichik biznes vakillari uchun saqlab qolinadi. Hottoki bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yirik buyurtmalar, atayin mayda bo'laklarga bo'lib joylashtirilishi ham mumkin[2].

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21-noyabrdagi 456-sonli qaroriga ilova qilingan «Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida»gi Nizomga maxsus X-I bo'lim kiritilgan bo'lib, ushbu bo'limning 55-punktida mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida g'olibni aniqlashda baho imtiyozlarini taqdim etish shartlari keltirilgan.

[2] Xususan, ushbu sohaga mamlakatimizda ham katta e'tibor qaratilmoqda, jumladan, 2011- yilning 7- fevralida qabul qilingan PQ-1475 sonli «Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bunga yaqqol misoldir.

Davlat xaridi uchun xorijiy mol yetkazib beruvchilar uchun o'rnatilgan maxsus taqiqlar bilan birga, ancha ko'zga ko'rinmaydigan turdagi taqiqlar – bojxona poshlinalari va notarif cheklovlar (standartlar, guvohnomalar, lisenziyalar va h.k.), ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri taqiqlar o'rnatiladi. Bu amaliyot – xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda, XSTning faoliyati natijasida sekin-asta kamaymoqda, ammo undan tez orada butkul voz kechishning iloji yo'q.

Ko'plab mutaxassislarning fikricha, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganish[1], EIning boshqa mamlakatlari tajribasiga nisbatan ancha qiziqarlidir. Germaniya EIning a'zosi sifatida, davlat xaridi sohasidagi Yevropa qonunchiligiga so'zsiz amal qilishi shart. Aks holda, Yevropa Komissiyasi tomonidan ma'muriy choralar qo'llanilishi yoki Yevropa sudida jazoga tortilishi mumkin. Germaniya o'zining milliy qonunchiligini EIning davlat xaridi bo'yicha qonunchiligiga ancha muvoffaqiyatli tarzda moslashtirib olgan. Chunki, raqobat muhitini shakllantirish va diskriminasiyaga yo'l qo'ymaslik, davlat mablag'laridan oqilona foydalanishga olib keladi.

Germaniyada davlat xaridini mavjud nazorat tizimi, EI talablariga javob beradi va shuning bilan birga ayrim o'ziga xoslikka ega. Uning nazorat doirasiga, EI tomonidan aniqlik kiritilgan va davlat buyurtmachisiga tenglashtirilgan barcha tashkilotlar kiradilar. Shunday qilib, bir qator xususiy sektor vakillari davlat buyurtmachisi maqomiga tenglashtirilgan.

Nazorat tizimi ikkita: apellyasiya (mustaqil tashkilot ko'rinishida) va sud (sud organi ko'rinishida) instansiyani o'zi ichiga oladi. Davlat xaridini joylashtirish bo'yicha qilingan qarorlarni sudda ko'rib chiqish imkoniyati, bu sohadagi muvaffaqiyatli yangiliklardan hisoblanadi. Qonunchilikka binoan, bu ikki instansiya buyurtmachi ustidan shikoyatni tezlashtirilgan tarzda ko'rib chiqadilar va investitsiya jarayonlarini sekinlashuviga jiddiy salbiy ta'sir etmaydi.

---

[1] *У.Бурханов*. Государственные закупки. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

Germaniyada davlat xaridini tashkil etish markazlashmagan tarzda tashkil etilgan. Federal, hududiy va milliy hokimiyat organlari, shuningdek, jamiyat manfaatlari uchun faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari, mavjud qonunchilik asosida va o'z majburiyatlarini inobatga olgan holda buyurtmalarni joylashtiradilar.

Bu yerda hamon, davlat buyurtmalarini joylashtirishning ajratilgan tizimi amal qiladi: Elning mos keluvchi deriktivalari asosida yuqori va pastki o'lchovlar (pul ko'rinishida) mavjud. Shuningdek, buyurtmachi faoliyati ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqishda turli xildagi tartibdan foydalaniladi.

Davlat xaridi tizimni takomillashtirish ishlari Federal Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat xaridi jarayoni ishtirokchilari o'rtasida fikrlarning doimiy va mahsuldor almashinuvini yo'lga qo'yilgan bo'lib, mavjud me'yoriy aktlarni tushunish, unga tuzatishlar kiritish va yangi takliflar ishlab chiqish doimiy tarzda malga oshiriladi.

Bundan tashqari, Germaniyada ekspertlar va olimlardan tashkil topgan «Davlat buyurtmasi Forumi» jamoat tashkiloti faoliyat yuritadi va ushbu forum doirasida doimiy fikrlar almashinuvi, mamlakat ichkarisida va tashqarisida davlat xaridi sohasida yuzaga kelayotgan yangi ko'rinishlarga munosabat shakllantiriladi. Shuningdek, forum har yili davlat xaridi bo'yicha eng yaxshi ilmiy ish uchun mukofot taqdim etadi.

Buyurtmachilarni qonunni «ijodiy» tarzda tushunishi va qonun doirasidan tashqaridagi faoliyat bilan shug'ullanishlari, yoki ayrim potensial pudratchilarni buyurtmachi xodimlarini «sotib olishi» (korrupsiya) bilan g'irrom raqobat usullaridan foydalanishi, Germaniyada juda kam uchraydigan holat.

Shu sababli, davlat tashkilotlarida davlat buyurtmasini joylashtirish bilan shug'ullanish uchun mustaqil shaxslarni (ushbu shaxslarni ishdan bo'shatish imkoniyati yo'qligidan) tayinlash amaliyoti mavjud. Bu shaxslarning faoliyati yuqori turuvchi nazorat organi Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, Yevropa davlat xaridi tizimini boshqarish ancha ilg'or tajribaga ega, shuning bilan bir vaqtda, tizimda mavjud

ayrim kamchilikka qarshi kurashish va muammolar yechimini topish bo'yicha davlat hamda jamoat hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Yevropa hududida ichki inegratsiya jarayonlarining kuchayib borishi bilan, davlat xaridini boshqarish mexanizmlari tobora unifikatsiyalashib bormoqda va bu Yevropa hududida ushbu tizimni tartibga soluvchi yagona qonunga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

Xalqaro moliya institutlari tajribasi. Asosiy faoliyat maqsadi dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning ma'lum sohalarini rivojlantirish hisoblanadigan yirik notijorat tashkilotlar – Xalqaro moliya institutlarining (XMI) jamiyat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XMIlari yirik miqdordagi mablag'larni to'playdi (badallik yig'imi sifatida ishtirokchilardan olingan, shuningdek, tijorat asosida kredit taqdim etish orqali to'plangan) va yirik tijorat hamda notijorat tusdagi loyihalarni amalga oshiradi.

Loyihalar XMIlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilar ekan, ushbu mablag'lardan foydalanish hamda xaridni amalga oshirish tartibi XMI tomonidan o'rnatiladi.

XMIlari tomonidan kredit resruslarini taqdim etish shartnomalarida ushbu qoida amal qiladi. Chunki, bunday shartnomalar xalqaro maqomga ega, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirishda milliy qoidalar emas, balki XMI qoidalari amal qiladi.

Eng mashhur XMIlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

– Jahon banki (JB), o'z ichiga Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot bankini (XRTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini (XRA) va boshqa qator tuzilmalarni o'z ichiga oladi;

– Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB);

– Osiyo qit'asida ro'yxatdan o'tgan mol yetkazib beruvchilar uchun Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki (OTTB);

– turli xil fondlar (Know-How Foundation, USAID) va boshqa tashkilotlar.

Har qanday loyihani amalga oshirishda erkin bozordan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarga ehtiyoj seziladi.

Masalan, ofis ishini tashkil etish uchun kompyuterga, shahar suv ta'minoti tizimini modernizasiya qilish uchun yangi nasoslarga, qurilish ishida injener xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan tovarlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish qoidalari «XTTA qarzlari va XRA kreditlari hisobidan xaridni amalga oshirish bo'yicha Qo'llanma» keltirilgan va quyidagi usullarni nazarda tutadi:

— xalqaro tanlov savdosi;
— milliy tanlov savdosi;
— xalqaro yopiq savdolar;
— yagona manbadan xarid qilish.

Qo'llanmada har bir jarayonni amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilgan, har qanday vaziyatlarda harakatlar ketma-ketligi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, xaridning murakkab turi sifatida, xalqaro tanlov savdolarini amalga oshirish aniq yoritilgan.

Xaridni amalga oshirish uchun XMIlar tomonidan qo'llaniladigan usullar, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoidalar, jarayonlar ko'p jihatdan yuqorida ko'rib o'tilgan YuNSITRALning «Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida»gi namunaviy qonuni bilan o'xshashlikka ega.

Shunday qilib, xalqaro hamjamiyat yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun jamiyat mablag'larini, soliq to'lovchilar mablag'lari bo'ladimi (rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridi uchun) yoki XMIlari ishtirokchilarining mablag'larini (Jahon banki, ETTB loyihalari uchun xarid), uni sarflashda shartnoma tuzishning tanlov texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Umuman, raqobat asosida tashkil etilgan xarid sotib olingan tovarlar va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirishga, xarajatlarni amalga oshirish samarasini ta'minlaydi va davlat mablag'lari hisobidan buyurtmalarni joylashtirishda korrupsiya darajasini tushirishga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda davlat xarajatlarining byudjetlar o'rtasida taqsimlanish darajasi qanday?

2. *AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish organlari kimlar?*
3. *AQShda boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan xaridni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli qanday?*
4. *AQShda xarid sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonunchilik qanday kategoriyalarga ajratiladi va ularni tushuntirib bering.*
5. *AQShda davlat xaridini amalga oshirishda qanday elektron texnologiyalar qo'llaniladi?*
6. *El darajasida davlat ehtiyojlari uchun xaridni yagona shartlar asosida amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy aktlarni sanab bering.*
7. *Elda davlat xaridini amalga oshirish qaysi tamoyillarga asoslanadi.*
8. *Xalqaro moliya institutlarining jamiyat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish tajribasini tushuntirib bering.*

§ 8. Davlat xaridini tashkil etishda korrupsiya va unga qarshi kurash

Davlat xaridi tizimi sohasidagi korrupsiya uzoq davrlardan beri mavjud bo'lgan va milliy chegara bilmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan va dunyo mamlakatlari bo'ylab davlat va nodavlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ammo ushbu tadbirlardan hali sezilarli natijalarga erishilgani yo'q.

Davlat xaridi tizimida korrupsiyaning mavjudligi faqatgina moliyaviy zarar bilan chegaralanmaydi. Davlat xaridini joylashtirish jarayonida mavjud korrupsiyadan davlat va jamiyat ko'radigan zararni shartli ravishda to'rt turga bo'lish mumkin:

1. Moliyaviy yo'qotish – shartnomalarni davlat va jamiyat uchun moliyaviy zararli shartlarda tuzish. Buni sotib olinayotgan tovarlar narxini amaldagi bozor bahosidan yuqori narxlarda sotib olish, davlat shartnomlarida to'lovlarni kechiktirish emas, balki oldindan to'lovni amalga oshirish shartlarini kiritish va boshqa ko'rinishlarda ko'rish mumkin.

2. Miqdoriy yo'qotish – yetkazib berilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmini keragidan ortiq yoki kam miqdorda bo'lishi; tovarlar va xizmatlarni davlat ehtiyojlari uchun emas, balki mas'ul amaldorlarning shaxsiy maqsadlari uchun xarid etish va boshqalar.

3. Sifat yo'qotish – sifatsiz tovarlar yetkazib berish va xizmatlar bajarish kabi zaruriy texnik talablarni buzgan holda shartnomalarni tuzish; kafolat muddati va kafolat muddatidan so'ngi shartlarni bajarilishining noqulay shartlari; bajariladian ishlar va xizmatlar sifatini tekshirish uchun yetarli nazoratning talab etilmasligi va hakozolar.

4. Siyosiy yo'qotish – mamlakatda investitsion muhitning yomonlashuvi, fuqarolar tomonidan davlat va davlat tuzilmalariga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, mamlakat iqtisodiy-moliyaviy

tizimining izdan chiqishi, erkin raqobat tamoyillarining buzilishi va boshqalar.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat xaridini tashkil etishda korrupsiyani butunlay yo'qotishga hali hech bir mamlakatda muvaffaq bo'linmagan, ammo bu holat korrupsiyaning mavjud darajasini pasaytirish uchun olib boriladigan chora-tadbirlarning samarasiz yoki natijasiz ekan degani emas.

Xarid tizimi sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurash davlat sektorida yoki tijorat sektorida amalga oshiriladimi, unga kompleks yondoshuv bo'lishini talab etadi. Xalqaro amaliyotda mazkur muammo echimida o'z samarasini isbotlagan to'rtta yondoshuv mavjud:

- Psixiologik usullar
- Texnik usullar
- Tartibga soluvchi jarayonlar
- Jazo chora-tadbirlari.

Psixiologik usullar korrupsiyaning birlamchi sababi bo'lgan – xizmatchining ish beruvchi (ushbu holatda davlat hisobidan, ya'ni butun fuqarolar mablag'lari) hisobidan noqonuniy boyishini oldini olishga ta'sir etish imkonini beradi. Psixiologik usullarga quyidagilar kiradi:

Vazifaga nomzodning anketa ma'lumotlarini, uning biografiyasi va oldingi ish joyidan tavsifnomani tekshirish. Ushbu usul oldingi ish joyidan korrupsion faoliyati yoki jinoyati uchun ishdan bo'shatilgan, sudlangan shaxslarni korrupsiya imkoniyati mavjud vazifalarga tayinlanishini oldini olishda keng qo'llaniladigan oddiy usuldir.

Hozirda barcha davlat organlarida vakant o'rinlar uchun nomzodlarni tekshirishda yuqoridagi kabi tekshiruvlar xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Nomzodlarni ishga olishda maxsus chuqurlashtirilgan testdan o'tkazish (hattoki «yolg'onni aniqlaydigan detektorlar» – poligraf)dan ham foydaliniladi.

Juda ko'plab mavjud maxsus testlar va kompyuter dasturlari ish beruvchiga nomzodning aniq psixiologik rasmini gavdalantirish, shuningdek, uning ish beruvchi hisobidan boylik

orttirishga bo'lgan potensial intilish darajasini aniqlashiga imkon beradi.

Ushbu turdagi psixologik testlardan tijorat sektori korxonalari va harbiylashgan tuzilmalarda ham keng foydalaniladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ishga qabul qilishda poligraf («yolg'onni aniqlaydigan detektorlar»)dan foydalanish ko'pchilik hollarda insonning konstitutsion huquqlarini paymol etishi to'g'risidagi asosli qarshiliklariga ham sabab bo'ladi.

Xodimlarni vaqti-vaqti bilan sadoqatligini tekshirib turish va bunda provakatsion usullardan ham foydalanish tijorat sektorida keng tarqalgan. Aybdorlarni «ko'rgazma» holda fosh etish va jazolash yuqori samarali anti-korrupsion tadbirlardan hisoblanadi. Bosim ostidagi psixologik muhit va xodimlarning yuqori darajadagi ko'chishi, ushbu usulning qarama-qarshi ta'siri sifatida namoyon bo'ladi.

Ayrim holatlarda, davlat xizmatida mazkur usuldan korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbir sifatida emas, balki raqobatchi-amaldorni yo'q qilish uchun qo'llaniladigan «g'irrom» kurashda foydalaniladi.

Xodimlarning o'z-o'zini nazorat qilish tizimini tashkil etish (talabgor xabar etkazuvchilar). Ushbu usuldan yirik tijorat tuzilmalarida maxsus tashkil etilgan usul sifatida keng foydalaniladi. Qanchalik noqulay bo'lishiga qaramasdan ushbu usul juda samarali hisoblanadi.

Davlat sektorida har doim ham qo'llanilavermaydi, ammo o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Ko'pchilik holatlarda davlat korxonalari tizimida talabgor xabar etkazuvchilar tizimi rasmiy reglamentga ega emas va u ayrim olingan rahbarlar uchun axborot manbai hisoblanadi.

Xodimlarning samarali motivatsiyasi nafaqat xaridni amalga oshiruvchi amaldorlarni moliyaviy rag'batlantirishni bildiradi, balki u xodimni ish beruvchi bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish xohishini rag'batlantiruvchi, masalan, tashkilotda o'z professional karerasini amalga oshirish kabi, maxsus dasturlardan tashkil topadi. Evropa mamlakatlarida, davlat xaridi uchun javobgar amaldor, maxsus kategoriyali xodim sifatida boshqa kasbdoshlariga

nisbatan yuqori pul mukofoti – vijdonan faoliyat yuritganligi uchun o'ziga xos tarzdagi mukofot oladilar.

Buyurtmani joylashtirish Komissiyasi a'zolarini doimiy rotasiya qilish, amaldorlarni mol yetkazib beruvchilar bilan til biriktirishlarini oldini oladi.

Korrupsiyaga befarq bo'lmaydigan korporativ etikani shakllantirish (kasbiy kodeks va qiziqishlar to'qnashuvini boshqarish kodeksini ishlab chiqish, maxsus o'quv dasturlarini amalga oshirish), xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Har qanday yirik xalqaro kompaniyada etika kodeksi – har bir xodimning hayot tarzi va axloqini reglamenti hisoblanadi. Kodeksda xodimlarning axloqiy etikasi va qoidasi, qiziqishlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal etish yo'llari o'z ifodasini topgan. Ba'zi holatlarda, etika kodeksi mehnat shartnomasining tarkibiy qismi hisoblanadi, unga amal qilmaslik xodimni ishdan bo'shatilishga olib kelishi ham mumkin. Xorijiy mamlakatlar davlat xizmati tizimida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan etika kodekslaridan keng foydalaniladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, etika kodekslari tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy va doimiy trening dasturlari tashkil etilgandagina o'z funksiyasini to'la bajaradi.

Texnik usullar bitim ishtirokchilarini bir-birlari bilan uchrashish imkoniyatini yo'qotib yoki korrupsionerni qo'lga tushib qolish riskini oshiradi, sotib oluvchi bo'linmalar va sotuvchilar o'rtasida til biriktirishlarni oldini oladi va ushbu imkoniyatni sezilarli darajada pasaytiradi. Bunday usullar sirasiga:

Xarid bilan shug'ullanuvchi xodimning muzokoralar olib boruvchi xonalarini nazorat tizimi va videokuzatuv uskunalari bilan jihozlash. Ushbu tizimning analogi sifatida AQSh yo'l polisiyasida qo'llaniladigan antikorrupsion tizimni keltirish mumkin. Ya'ni unga ko'ra, yo'l polisiyasi xodimining qoidabuzar bilan munosabati, faqatgina patrul xizmati mashinasida o'rnatilgan maxsus videokamera qarshisida amalga oshirilishi lozim.

Xizmat pochta yozishmalarini monitoringi, tijorat sektori tuzilmalarida keng qo'llaniladi va asosan, ushbu funksiya ichki xavf-

sizlik bo'linmasining vazifasiga kiradi. Ushbu usuldan davlat xizmatida foydalanishning yuridik jihatdan qanchalik muvofiqligi bahsli mavzu bo'lib qolmoqda.

Zamonoviy informasion texnologiyalardan foydalanish (elektron savdolar tizimi, internet-do'kon va elektron savdo maydonlari) xaridni amalga oshiruvchi xodim va sotuvchini bevosita uchrashish imkoniyatini pasaytiradi va ushbu usuldan ham davlat sektori, ham tijorat tuzilmalari keng foydalanadilar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim obyektiv sabablarga ko'ra xaridni tashkil etishning bu turi hajmi unchalik katta emas va kichik hajmdagi xaridni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Mavjud tijorat yoki maxsus shakllantirilgan kataloglar asosida xaridni tashkil etish ham tijorat, ham davlat sektorida keng qo'llaniladi.

Bunga yorqin misol sifatida barcha federal bo'linmalarni joriy ta'minot (material-texnik ta'minot) masalalarini hal qilish bilan shug'ullanuvchi AQShning Umumiy xizmatlar Devoni tajribasini keltirish mumkin.

Devon doimiy tarzda turli xildagi tovarlar-xizmatlar uchun konkurs e'lon qilib turadi va uning natijalari (baholar, yetkazib berish muddatlari va boshqa shartlar) maxsus kataloglarga kiritiladi. AQShdagi biror davlat bo'linmasi «standart» mahsulotni xarid etish zarur bo'lganda, umumiy xizmatlar Devoni tomonidan jo'natilgan katalogdan zaruriy tovar-xizmatni topib, uni hech qanaqa ortiqcha jarayonlarsiz katalogda ko'rsatilgan shartlar asosida sotib oladilar.

Tartibga soluvchi usullarni qo'llash – korrupsiyani yuzaga kelish riskini pasaytirishga qaratilagan barcha rasmiy ichki qoida va jarayonlarga amal qilish orqali xaridni amalga oshirishni bildiradi. Ushbu holatda korrupsiyaga qarshi turuvchi chora-tadbirlar kompleksi ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Davlat buyurtmasini joylashtirishning potensial jihatdan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi jarayonlarini tartibga soluvchi samarali qoidalar tizimini shakllantirish.

2. Ushbu qoidalarga amal qilishni nazorat etishning aniq mexanizmlarini shakllantirish. Davlat buyurtmasini joylashtirish

jarayonlarida, korrupsiyani yuzaga kelishi riskini pasaytiruvchi qoidalar tizimida mustaqil (dastlabki va so'ngi) nazoratni amalga oshirishga imkon beruvchi nazorat nuqtalarini (xarid jarayonlariga bevosita aloqador bo'lmagan bo'linmalar bilan oldindan kelishib olish va boshqalar) mujassamlashtirish lozim.

Jazo chora-tadbirlarini qo'llashdan maqsad davlat buyurtmasini joylashtirishga masul bo'lgan shaxslarning korrupsion faoliyatining «foydasiz« qilib qo'yadigan muhitni shakllantirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan usullarni amaliyotda qo'llash har bir usulning xususiyatidan kelib chiqib chegaralangan va davlat tomonidan qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratilishini talab etadi. Masalan:

1. Psixiologik usullarning qo'llash samarasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

– ushbu yo'nalishga jalb etiladigan mutaxassisning kvalifikasiya darajasi: suhbat olib borish mahorati, nomzodlarni psixiologik testdan o'tkazish, nomzodlar va xodimlar haqida shaxsiy ma'lumot to'plash va uni tahlil etish, maxsus asboblardan foydalanish (poligraf, suhbat va yozishmalarni nazorat etish va boshqalar);

– baholash va xulosa berishning subyektivligi: xodimni yoki ma'lum vaziyatni baholash, chora-tadbirlar ishlab chiqishda ushbu sohada ekspert sanalgan mutaxassisning xulosasi katta rol o'ynaydi. Shuning uchun xato qilish (yoki bilib turib) ehtimoli mavjud;

– xaridni amalga oshiruvchi bo'linma xodimlariga (shuningdek, vijdonan faoliyat yuritadigan xodimlarga ham) ushbu usullarning qo'llanilishi, ularning huquqlarini chegaralashi mumkinligi bilan yoqmasligi mumkin.

2. Texnik usullarni qo'llashning chegaralanganligi, sotib olinadigan tovar va xizmatlarning xususiyati va potensial mol yetkazib beruvchilarda texnik vositalarning qanchalik keng tarqalganligi bilan tavsiflanadi:

– birjadagi standartlashgan va o'lchash oson bo'lgan tovarlar hamda xizmatlarga (masalan, neft mahsulotlari, ko'mir, don, metall va boshqalar) nisbatan qo'llash oson va samaralidir;

– ushbu usulni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan aniq o'lchamlarga ega bo'lmagan tovarlar va xizmatlar uchun qo'llab bo'lmaydi. Bunday holatlarda, iste'molchi va sotuvchi tovar hamda xizmatlarning texnik xususiyatlarini o'zaro kelishib, aniqlashtirib olishlari lozim bo'ladi. Misol tariqasida loyihalashtirish, maslahat va qidiruv ishlari kabilarni keltirish mumkin.

3. Tartibga solish usullarining qo'llanilishi samaraliligiga faqatgina tartibga solishni to'la va aniq bajargandagina erishish mumkin. Shunday qilib, ushbu usul zaruriy qoida va jarayonlar ustidan nazorat mexanizmlarining samarali o'rnatilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

4. Agar «jazodan qochib qutulib bo'lmaslik» mexanizmlari etishmasa, jazo chora-tadbirlarini qo'llashning amaliylik va biror natija berishi unchalik ham katta bo'lmaydi.

Davlat xaridi jarayonlarida korrupsiya darajasini pasaytirishga faqatgina kompleks yondoshuv, ya'ni xaridning barcha bosqichlarida uning barcha usullaridan balanslashgan holda foydalanish orqali erishish mumkin. Alohida olingan usullar yoki sohalar bilan chegaralanib qolish orqali faqatgina qisqa muddatli natijalarga erishish mumkin. Ammo, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, noqonuniy daromad topishning ko'rinishi va mexanizmi o'zgaradi hamda nazorat qamrab olmagan sohalarga o'tadi. Natijada, korrupsiya natijasida yo'qotiladigan zararlar oldingi miqyosiga chiqib oladi hattoki uning ko'lami yanada kengayishi ham mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. *Davlat xaridini tashkil etishda korrupsiyaning qanday zararli oqibatlari mavjud?*
2. *Davlat xaridi jarayonlarida korrupsiyadan davlat va jamiyat ko'radigan moliyaviy zarar siyosiy zarardan qanday farqlanadi?*
3. *Korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llaniladigan psixiologik usullar nima?*
4. *Korrupsiyaga qarshi qo'llaniladigan usullarning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirib bering.*
5. *Etika kodeksining mohiyatini tushuntiring.*

IV bob. DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH STRATEGIYALARI

§ 9. Davlar xaridini elektron tizimini ishlab chiqish strategiyalari

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etishning yaqin kelajakdagi asosiy istiqbolli yo'nalishi bu – internet va zamonoviy texnologiyalarga asoslangan elektron xarid hisoblanadi. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilot mutaxassislari davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish loyihalari buyicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribalari haqida ma'lumotlarni to'plab, uni tizimlashtirmoqdalar.

Davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish va uni rivojlantirish, dunyo miqyosida savdoni elektron tarzda tashkil etish an'anasining tabiiy davomi hisoblanadi.

Zamonoviy tarmoq texnologiyalaridan davlat xaridini tashkil etishda foydalanish, xaridni qog'ozli hujjat aylanmasiga asoslangan an'anaviy tarzda tashkil etishga nisbatan bir qancha yutuqlarga ega. Tanlov hujjatlarini «qog'ozli» tashkil etish, tanlov haqida matbuotda e'lon nashr etish, tovar yetkazib beruvchilar bilan muloqot, tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni to'plash kabi texnologiyalarni ideal tarzda tashkil etilganda ham, ushbu jarayon davlat buyurtmachisidan ancha kuch va vaqt talab etadi. Agar hujjatlarga tuzatish va aniqlik kiritish talab etilsa, unda barcha jarayonlarni deyarli boshdan qayta boshlash kerak bo'ladi. An'anaviy usulda xaridni tashkil etishda tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilarga ham ancha noqulayliklar mavjud, masalan, tanlov haqida ma'lumot topish, hujjatlar to'plamini sotib olish, uni aniqlashtirish va to'ldirish, arizalarni taqdim etish zarur.

Internet-texnologiyalarni joriy etish, savdoni o'tkazishga tayyorgalik jarayonlarini va tanlov savdolarini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, tanlovda ishtirok etishni soddalashtirish va uning shaffofligini oshirish hisobiga tovar va xizmatlar yetkazib

beruvchilar sonini ortishiga olib keladi. Davlat buyurtmasini joylashtirish bo'yicha savdolarga mamlakatning chekka hududlaridagi kichik va o'rta korxonlar ham ishtirok etish imkoniyati oshadi. Natijada raqobat kuchayib, ancha foydali takliflar yuzaga chiqadi.

Jahon banki dunyodagi yirik xalqaro moliya instituti sifatida, bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolar tizimini joriy etish bo'yicha ko'maklashmoqda. Mazkur yordam maslahat shaklida bo'lib, uning yo'nalishlarini quyidagi 11-chizmadan ko'rish mumkin.

Barcha materiallar Jahon bankining saytida (www, worldbank, org/eprocurementforum) nashr etiladi va barcha xohlovchilar undagi munozaralarda ishtirok etishi mumkin. Odatda, ushbu materiallarni tayyorlash va undagi muammolar buyicha bahslarda, dunyoning turli mamlakatlaridan elektron davlat xaridi tizimi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etadilar. Ishchi guruh rahbarlari o'z mamlakatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan strategik loyihalar, taktik qadamlar, jarayonda yuzaga chiqayotgan muammolarni vebsayt foydalanuvchilariga taqdim etadilar.



11-chizma. **Jahon bankining elektron xarid tizimini shakllantirish bo'yicha texnik yordam shakllari.**

Nashr etilgan materiallarni tahlili, davlat xaridini elektron tizimini tashkil etishning asosiy rivojlanish an'analarini aniqlash, ayrim namunaviy modellar va uni tashkil etish usullarini o'rganishga imkon beradi.

Elektron savdolarni juda tez sur'atlarda o'sishiga internet, telemuloqot va axborot texnologiyalari katalizatorlik rolini o'ynamoqdalar. Davlat ehtiyojlari uchun elektron savdolar tizimi AQSh, Meksika, Chili, Peru, Yevropa Ittifoqi kabilarda elektron savdolar tizimining yangi bir varianti sifatida yuzaga keldi. Ya'ni, B2B (business-to-business) sektorining rivojlanishida yangi fragment – B2G (business-to-government) ajralib chiqdi.

Bu o'z navbatida, zaruriy texnik, texnologik, huquqiy bazani yanada takomillashuviga olib keldi. Avstraliya, Kanada, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda esa, davlat tuzilmalarini zamonaviylashtirish dasturi doirasida va «elektron hukumat» (egovernment) ga o'tish bilan davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish tizimi joriy etildi.

Ya'ni, «elektron hukumat» dasturini joriy etish jarayonida huquqiy asoslarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik zamin hozirlash, undan so'ng davlat xaridini elektron tashkil etish tizimi infratuzilmasi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ushbu dasturni amalga oshirish, davlat bilan yangi telemuloqot muhitda yaqindan hamkorlik qilmoqchi bo'lgan tijorat tuzilmalarini e'tiborini o'ziga tortdi hamda axborot texnologiyalariga bo'lgan investitsiyalar miqdorini oshishiga olib keldi.

Tanlov strategiyasi yoki strategiyani tanlash quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

tijoratning va elektron tijoratning rivojlanganlik darajasi, jumladan,

– qonunchilikning tayyorligi;

– iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;

– internet texnologiyalari, texnik asos va telemuloqot infratuzilma tizimining rivojlanganlik darajasi.

Ushbu omillarning turli mamlakatlar uchun tahlilini o'rganib xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston uchun yuqoridagi strategik yo'nalishlardan, ya'ni davlat xaridini elektron tizimini tashkil

etishni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida davlatning faol ishtirok etishi muhim hisoblanadi.

Har bir mamlakatda elektron savdolar tizimini tashkil etishni ishlab chiqish bosqichlari, o'sha mamlakatning internet-texnologiyalarining texnik yo'nalishlari rivojini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari, elektron savdolar tizimini ishlab chiqish, astasekin tanlovlarni tayyorlashni yangi texnologik darajaga olib chiqadi. Ba'zi mamlakatlarda shartnomalarni tuzish jarayonlari avvaldan avtomatlashtirilgan bo'lishi mumkin va bu davlat xaridini elektron tashkil etish jarayonini tezlashtiradi.



12-chizma. **Ochiq savdolar samradorligini oshirish talablari.**

Tender asosida tashkil etiladigan savdolarni tayyorlash va o'tkazishning namunaviy modelini ko'rib chiqamiz. Ushbu model *umumlashtirilgan model* hisoblanadi. Har bir tender savdolarni o'tkazish tartibi o'zgacha bo'lishi mumkin, masalan, qo'shimcha bosqichlarni o'z ichiga olishi, ikki qadamli tarkibdan tashkil topishi va boshqalar bo'lishi mumkin. Ammo, biz uchun eng muhimi, xorijiy mamlakatlarda tanlov asosida tashkil etiladigan mavjud savdolarni tashkil etish tajribalarini umumlashtirish, internet-texnologiyalarni qo'llash orqali davlat xaridini tashkil etishni samarasini oshirishdir.

Quyidagi 13-chizmada tanlov asosida savdolarni tashkil etishni tayyorlash va o'tkazishning asosiy bosqichlari aks ettirilgan. Gorizontal chiziqlar orqali ishtirokchilarning, ya'ni buyurtmachi va tovar yetkazib beruvchilarning o'zaro munosabati ko'rsatilgan. Savdoda ishtirok etuvchilar faoliyatini samaradorligini oshirishning eng qulay va sodda yo'li bu – zamonoviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali, ushbu faoliyatni avtomatlashtirish va soddalashtirishdir.

Dastlab, ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish va axborotlashtirish potensial imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz, so'ngra – ushbu jarayonlarning turli mamlakatlar buyicha qaysi bosqichdaligi, mutaxassislar to'qnashgan muammolar haqida aniq misollar keltiramiz.

Tanlov hujjatlarini tayyorlash. Birinchi qadam eng oddiy echim-tanlov hujjatlarini tayyorlash uchun hujjat tayyorlashni avtomatlashtirish tizimini joriy etishdan iborat. Bu bir davlat buyurtmachisi doirasida muammoni hal etsa, boshqa buyurtmachilar uchun esa, tanlovda ishtirok etish hujjatlarini yagonalashtirish (unifikatsiyalash) samaradorligini oshiradi. Masalan, bu asosiy shablon – maydonlardan tashkil topgan hujjatlar prototipini ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tanlov haqida e'lonlarni nashr etish. Bunday turdagi e'lonlarni nashr etishda, asosan, oddiy turdagi axborot vositalarida – gazeta, jurnal, ixtisoslashtirilgan ilovalarda nashr etiladi. Tovar yetkazib beruvchi ushbu axborotlarni topib, sotib olishi kerak bo'ladi, ammo ushbu tanlov shartlari hali ularga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi

noma'lum. Mol yetkazib beruvchilar uchun to'g'ri keladigan tanlovlarni qidirish jarayonlarini avtomatlashtirishning amaliy ijrosi pastligicha qolmoqda.



13-chizma. **Tanlov asosida savdolarni tayyorlash va tashkil etishning namunaviy modeli.**

Qog'ozli nashrlar bilan bir vaqtda, tanlov e'lonlarini internetda joylashtirish, barcha potensial ishtirokchilar uchun axborot olishni ta'minlovchi yechim hisoblanadi. Elektron e'lonni har qanday mol yetkazib beruvchi, internetga ulangan holda o'z ofisidan turib tanishib chiqish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, mol yetkazib beruvchini qiziqtirishi mumkin bo'lgan tanlovlarni maxsus qidiruv dasturlari orqali avtomatik tarzda aniqlash mumkin.

Internetda nashr etish deganda, odatda, davlat buyurtmachisi yoki unga tegishli idora vebsaytining elektron doskasida e'lon

berishga aytiladi. Nashr etish joyini markazlashtirish yoki tanlovlar haqidagi e'lonni yagonalashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Bunday e'lonlarning prototipini alohida tayyorlash mumkin bo'lib, buyurtmachi faqatgina shablonda qoldirilgan bo'sh maydonlarni to'ldiradi.

Agar e'lonlarni tayyorlash va hujjatlarni tayyorlashni tanlov materiallarini tayyorlash bo'yicha yagona tizimga joylashtirilsa, unda tanlov hujjatlari maydonidagi ma'lumotlardan foydalanib, e'lon matnini avtomatik tarzda shakllantirish mumkin bo'ladi. Buyurtmachi uchun faqat tanlov haqidagi e'lonni nashr etuvchi tugmachani bosish qoladi.

Tanlov hujjatlarini taqdim etish. Odatda, tanlov hujjatlarini taqdim etish bir qancha mayda qadamlardan tashkil topgan bo'ladi va ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– buyurtmachi tomonidan tayyorlangan tanlov hujjatlarini tiraj etish;

– mol yetkazib beruvchini tanlov hujjatlarini olishi yoki sotib olishi.

Mol yetkazib beruvchilarni tanlov hujjatlarini sotib olish amaliyoti, afsuski, ko'plab mamlakatlarda qo'llanilgan va hamon qo'llanilib kelinmoqda.

Bunda hujjatlar to'plamining bahosi, uni tayyorlash va tiraj etish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi. Hujjatlarni tayyorlashning avtomatlashgan tizimini ishlab chiqish orqali, yuqoridagi xarajatlarning birinchisini sezilarli miqdorda pasaytirish mumkin, hujjatlar to'plamini internetda joylashtirish orqali esa, ikkinchi turdagi xarajat miqdorini pasaytirish mumkin.

Agar ushbu ma'lumotlar mol yetkazib beruvchi uchun qiziqarli bo'lsa, unda u tanlov hujjatlari to'plamini o'ziga yozib oladi.

Tanlov shartlarini tushuntirish. Bu bosqichda, odatda, ikki xil holat yuzaga keladi: yoki mol yetkazib beruvchiga nimadir tushunarsiz bo'lib, u buyurtmachiga murojaat etadi, yoki buyurtmachining o'zi tanlov shartlari (hujjatlar to'plami)dagi ayrim holatlarni tushuntirishni zarur deb topadi.

Birinchi holatda, tanlov bo'yicha mol yetkazib beruvchi savollariga buyurtmachi mutaxassislari tomonidan berilgan tushuntirishlarni elektron xatlarni barcha qiziquvchilarga jo'natish orqali muammoni samarali tarzda hal etish mumkin.

Ikkinchi holatda, tanlovning barcha ishtirokchilarini operativ tarzda xabardor qilish uchun, oydinlik kiritilgan hujjatlar haqida vebsaytda e'lon qilish, yoki ariza berganlar va qiziqish bildirgan barcha tomonlarga elektron pochta jo'natish zarur bo'ladi.

Internet tezlik va samaradorlik nuqtai nazaridan, xaridni tashkil etishda qolgan barcha mavjud variantlardan ustunlikka ega.

Tanlov arizalarini yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish. Avtomatlashtirish nuqtayi nazaridan bu eng murakkab bosqich hisoblanadi. «Qog'ozli» savdolarda an'anaviy hujjatlar to'plamini, mol yetkazib beruvchi, hujjatlarda mol yetkazib beruvchini aniqlovchi muhr va imzo bilan buyurtmachiga jo'natadi. Ushbu hujjatlar to'plami muhrlangan bo'lib, muddatidan oldin ochilmaydi.

Hujjatlarni internet orqali jo'natishda esa imzo chekuvchini aniqlashga imkon beruvchi mexanizm ishlab chiqilgan. Bu — elektron imzo turi bo'lib, «raqamli imzo» deb yuritiladi. Raqamli imzo texnologiyasi elektron hujjatni aynan kim imzolaganini aniqlash imkonini beradi.

Bunda qalbaki imzo qo'yish imkoniyati umuman mavjud emas va hujjatni faqat kimga jo'natilgan bo'lsa, o'sha o'qishi mumkin bo'ladi (bu holatda tanlov tashkilotchilari). Ushbu holat ko'plab mamlakatlarda raqamli imzoni, qo'l orqali chekilgan imzo bilan bir qatorda foydalanishga imkon beruvchi qonuniy aktlarni qabul qilishiga olib keldi.

Konvertlarni ochish va g'olibni aniqlash. Ushbu bosqichda avtomatlashtirish va internet-texnologiyalarni qo'llash orqali optimallashtirish mumkin bo'lgan ikkita qadamni ajratib ko'rsatish mumkin:

— noto'g'ri tuzilgan arizalarni bekor qilish;

— topshirilgan mezonlar bo'yicha takliflarni guruhlash.

Ammo maxsus avtomatlashtirilgan tizimni qo'llashning o'zi ham tanlov hujjatlarini noto'g'ri to'ldirishni oldini oladi. Takliflarni

jadvallar ko'rinishida turli guruhlarga ajratish yoki solishtirishni kompyuterda samarli tarzda amalga oshirish mumkin.

Bunday holatda, davlat buyurtmachisi eksperti oldiga tanlovga taqdim etilgan arizalarni tahlil etishda ijodiy tarzda yondoshuvni amalga oshirish qoladi xolos, barcha vaqt va kuch talab qiluvchi ishlar avtomatlashtirilgan tizim oraqli amalga oshiriladi.

Biz yuqorida talov natijalarini matbuotda e'lon qilishni alohida bo'lim sifatida ko'rib o'tmadik, ammo shuni ta'kidlash lozimki, natijalarni internetda nashr etish tezlik va samaralilik bo'yicha «qog'ozli» nashrdan ancha ilg'or usul hisoblanadi.

Shartnoma tuzish. Mazkur bosqich tanlov asosida savdolarni tashkil etish va o'tkazish doirasidan tashqariga chiqadi. Ammo, bu jarayoni yuqoridagi bosqichlar bilan tutashgan bo'lib, butun tanlov asosida elektron savdolarni tashkil etish samaradorligi tahlil etish uchun, shartnoma tuzish jarayonini ham ko'rib chiqadi. Masalan, Avstraliyada, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish infratuzilmasi ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi bosqich sifatida shartnomalarni tuzish va uni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, avtomatlashtirish jarayoni ustida ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu bosqichda shartnomalarni va zaruriy hujjatlarni standartlashtirish va unifikatsiyalash talab etiladi. Shuningdek, huquqshunoslarning faolligi, huquqiy hujjatlarda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish va avtomatlashtirish vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Davlat shartnomalarini ijro etishda materiallarning shaffofligini ta'minlash va albatta, joriy hisobot materiallarini internetda nashr etib borish ancha samarali yo'nalish hisoblanadi.

Davlat xaridini elektron tizimini ishlab chiqish bosqichlari. Endi tanlov asosida savdolarni tashkil etish jarayonining boshlanish qismiga qaytib, turli mamlakatlarning yangi texnologik bazaga o'tish yo'lida erishgan yutuqlari bilan tanishamiz.

Internet-texnologiyalar asosida davlat xaridini amalga oshirish samaradorligini oshirmoqchi bo'lgan barcha mamlakatlar, savdolar haqidagi bir vaqtda ham elektron nashrlarda, ham qog'ozli nashrlarda e'lonlar berishdan boshlashganlar.

AQShda federal agentlik savdolar haqida e'lonni Commerce Business Daily hamda uning elektron variantini internetda nashr qilishlari shart.

Meksikada davlat xaridi tizimidagi savdolar haqida e'lonlar Federal Official Gazette va davlat xaridiga bag'ishlangan Compranet vebsaytida nashr etiladi.

Avstraliyada maxsus idora – Department of Contract and Management Services (CAMS) tashkil etilgan bo'lib, u elektron davlat xaridiga oid barcha materiallarni internetda e'lon qilib boradi (www.contracts.wa.gov.au).

Argentina, Kanada, Kolumbiya, Koreya kabi davlatlarda davlat xaridi bilan bog'liq barcha savdolar internet bilan bir qatorda «qog'ozli» matbuotda e'lon qilinib boriladi. Shunisi e'tiborliki, e'lonlar internetda qog'ozli variantga nisbatan ancha oldinroq nashr etiladi. Internetda tipografiyalardagi kabi nashr bilan bog'liq vaqt yuqotishlari uchramaydi.

Tanlov hujjatlarini olish va tanlov shartlarini aniqlashtirish kabi bosqichlar internet orqali samarali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, tanlov hujjatlari hamma mamlakatlarda ham tekinga berilmaydi. Joriy qilinigan to'lovlar sezilarsiz miqdorda kichik bo'lib, kredit kardlar yordamida tezda to'lovni amalga oshirish mumkin.

Avstraliyada davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish ancha ilg'or bo'lib bu ham texnik jihatdan, ham buyurtmachi va mol yetkazib beruvchi o'rtasidagi muloqotni zamonoviy texnologiyalar asosida tashkil etilganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Shartnomalar haqida axborot mavjud bo'lgan vebsaytdan tanlov uchun zarur barcha hujjatlar to'plamini topish va undan foydalanish mumkin. Bunda saytdan foydalanuvchiga turli tuman yordamlar, aniqliklar yaratilgan bo'lib, qiziqtirgan savolni elektron pochta orqali so'rash imkoniyati mavjud.

Ancha murakkab muammolar keyingi ikki bosqichda, ariza berish va konvertlarni ochish jarayonida yuzaga keladi. Murakkablik mualliflikni aniqlash, ariza ochilguncha maxfiylikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Bu bosqichda tashkil etilgan va tashkil etilayotgan milliy davlat xaridi tizimlarida «raqamli imzo» texno-

logiyasidan, yoki ochiq kalit (PKI – Public Key Infrastucture) infratuzilmasidan foydalaniladi.

PKI texnologiyasi haqida batafsil to'xtalmasdan, ta'kidlash lozimki, ushbu texnologiya yordamida mol yetkazib beruvchi kompaniya davlat sertifikat markazi – davlat buyurtmachisi tomonidan mol yetkazib beruvchilarni autentifikatsiya qilish maqsadida tashkil etilgan markazidan ro'yxatdan o'tadi. Avstraliyada bu tashkilot Government Public Key Authority (GPKA) – degan nom olib, keyinchalik Gatekeeper Policy Advisory Committee (GPAC) – degan nom bilan atala boshladi. Ushbu Qo'mita tarkibida Avstraliya Sanoat vazirligi, Federal va munisipial hukumat organlari vakillari ham kiritilgan. Markaziy sertifikat markazining joylarda filiallari mavjud bo'lib, ular ro'yxatdan o'tkazish va sertifikat berish huquqiga egadirlar. GPAC ning oltita filiali mavjud bo'lib, yana oltita sertifikatlashtirish markazlari litsenziya olish arafasida.

Raqamli imzo va PKI texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini, albatta, qonuniy asosdan ta'minlash lozim. Bunday qonuniy aktlar, 1999–2001- yillarda, AQSh, Kanada, Hindiston, Meksika, Chili, Argentina, Kolumbiya va Avstraliyada qabul qilingan. 2002- yilda «Elektron raqamli imzo haqida»gi Qonun Rossiyada ham qabul qilindi. Ushbu qonun elektron raqamli imzoni, qog'ozli asosdagi imzo bilan tenglashtiruvchi shart-sharoitlarni belgilab beradi.

Davlat xaridini elektron tarzda tashkil etishining xorijiy mamlakatlarda mavjud model va usullarini tahlili quyidagicha xulosa qilish imkonini beradi:

1. Davlat xaridini elektron tarzda tashkil etishning asosiy ikkita strategik yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

– elektron savdolarni tashkil etishining bir modeli sifatida;

– hukumataning davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini samarasini oshirish tashabbusi sifatida.

Bu sohada katta yutuqlarga erishgan mamlakatlarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Dastlabki yo'nalish bo'yicha AQSh, keyingi yo'nalish bo'yicha Avstraliya boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha oldingi o'rinlarni egallaydi. Strategiyani tanlash bo'yicha omillar

tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun ikkinchi yo‘nalishni tanlash istiqbolli hisoblanadi.

2. Davlat xaridini tashkil etish tizimida savdolarga tayyorgarlik va uni olib borish texnologiyasi turli mamlakatlarda deyarli bir xil va uni samarasini oshirish usullari ham o‘xshashdir:

– savdolar haqidagi e’lonni internet bilan bir vaqtda matbuotda ham e’lon qilish va tanlov hujjatlarini internet orqali olish;

– tanlovga ishtirok etish uchun taqdim etiladigan arizalarni qabul qilish uchun raqamli imzo va sertifikatlashtirish mexanizmlarini joriy etish.

3. Davlat xaridini tashkil etishda zamonoviy texnologiyalarni qo‘llash, tanlov hujjatlarini unifikasiyalash va tanlovlarni o‘tkazish uslubiyotini yagonalashtirishga xizmat qiladi.

4. Shartnomalarni bajarilishini kuzatish tizimini avtomatlashtirish ayrim mamlakatlardagina tashkil etilgan va bunda internet texnologiyalarni qo‘llash orqali sezilarli samaraga erishish imkoniyatlari mavjud.

O‘zbekistonda davlat moliyasini islohotlari va davlat xaridini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish asosiy istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada huquqiy bazani shakllantirish maqsadida qator qonunlar qabul qilindi, jumladan:

«Elektron imzo to‘g‘risida» (11.12.2003-yil), «Elektron tijorat to‘g‘risida» (29.04.2004-yil), «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida» (29.04.2004-yil), «Elektron to‘lovlar to‘g‘risida» (16.12.2005- yil) va boshqalar.

Shuningdek, mazkur qonunlar ijrosini ta’minlash yuzasidan hukumat tomonidan qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Elektron tijoratni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (30.01.2007 yil 21-sonli), «Elektron tijoratni amalga oshirishda to‘lovlar o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (12.06.2007 yil 120-sonli) va ushbu Qarorga ilova etilgan, 2007–2008- yillarda elektron tijoratni amalga oshirishda to‘lovlar o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi

qabul qilindi. Ushbu qaror asosida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda, davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshirishda elektron tijorat mexanizmlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdi va ushbu hujjatlar tasdiqlanish bosqichida ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi texnik hamkorlikning natijasi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor idoralar, Koreya Respublikasidagi manfaatdor idoralari bilan birgalikda, 2009–2010-yillarda bajarilishi lozim bo'lgan loyihalarni (Koreya tomoni tajribasi asosida) ishlab chiqdilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor idoralar, Koreya Respublikasidagi vakolatli idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasida elektron xaridning axborot tizimi loyihasini ishlab chiqish imkoniyatlari ko'rib chiqimoqdalar (Koreya tomoni tajribasi asosida – «Korean On-line Procurement System» – KONEPS).

Shuningdek, «Uzbekistan Development Gateway (UzDG)» komponenti doirasida Iqtisodiy islohotlar markazi qoshida, O'zbekistonda birinchi internet elektron tender maydoni pilot loyihasi tashkil etildi. Loyiha doimiy ravishda davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan yangilanib turiladigan tender takliflari bo'yicha savdolarga xususiy sektorni ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Loyiha hamkorlari O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, UNDP bo'lib, unda o'zbek, rus, ingliz tillarida tender savdolari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Tenderlar www.dgmarket.uz vebsaytida tashkil etilgan bo'lib, unda dunyoning 177 mamlakatidagi ochiq tenderlarni topish va tanishish imkoniyati mavjud. Albatta, ushbu vebsayt orqali biz yuqorida xorijiy mamlakatlar tajribasida ko'rib o'tgan barcha operasiyalarni to'laqonli bajarish imkoniyati bo'lmasada, ammo mazkur tanlanagan yo'nalish kelajakda respublika davlat xaridi tizimini tubdan takomillashtirish uchun bosilgan ilk qadam sifatida e'tiborga loyiqdir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan chora-tadbilar respublikada elektron savdo tizimini rivojlantirish uchun huquqiy bazani shakllantirishda muhim qadamlar bo'lib hisoblanadi.

Elektron savdolar tizimi, bizning respublikamizda o'zining rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda va tez orada ushbu tizim zamonoviy ilg'or tajribalar asosida yangi bosqichga chiqishiga umid qilamiz.

'Nazorat uchun savollar:

1. *Davlat xaridini tashkil etishda internet-texnologiyalarni joriy etish an'anaviy usullardan qaysi jihatlari bilan ustuvorlikka ega?*
2. *Jahon bankining elektron xarid tizimini shakllantirish bo'yicha texnik yordamini tavsiflab bering.*
3. *Davlat xaridini tashkil etishda strategiyani tanlash qaysi omillar bilan aniqlanadi?*
4. *Ochiq savdolar samradorligini oshirish talablari tushuntirib bering.*
5. *Tender savdolarining umumlashtirilgan modeli nima?*
6. *Davlat xaridini elektron tizimini ishlab chiqish bosqichlarini tushuntirib bering.*
7. *O'zbekistonda raqamli imzo va PKI texnologiyasidan foydalanish imkoniyati qanday?*
8. *O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini elektron tarzda tashkil etishning qanday huquqiy bazasi mavjud?*

§ 10. Davlat xaridi tizimini boshqarish orqali kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ta'sir etish

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimini islohotlar nafaqat o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000- yil boshlarida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lsa, hozir ular qurilish-montaj va loyihalarning turli tumanligi va sifati bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishmoqda.

Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital-qurilish sohasiga davlat buyurtmasi aholi bandligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday misolni mebel ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan ham keltirib o'tish mumkin.

Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi[1]:

– ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;

– sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etish mumkin;

– kichik biznes vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarli mexanizmlari mavjud bo'lgan

---

Burxanov U. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma.infoCom.uz. – T.: 2010.

sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin.

Kichik biznes subyektlarini davlat xaridi tizimi orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublikamiz Prezidentining 2011- yil 7-fevralidagi PQ-1475-sonli «Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi Qarori, aynan shu soha vakillarini davlat buyurtmalarini olish imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatni yanada rivojlantirish hamda davlat xaridlarini amalga oshirishda ochiq-oydinlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zlaydi. Mazkur Qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tuzilishi va ushbu komissiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar begilangan:

– davlat tovar xaridi uchun yo'naltirilgan davlat byudjeti mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalardan maqsadli va oqilona foydalanish, shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan muntazam nazorat olib borish;

– davlat xaridlarini amalga oshirish samaradorligini doimiy tarzda kuzatib borish, ularni takomillashtirish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqish va qabul qilish;

– davlat xaridlari jarayoniga kichik biznes subyektlarini faol va keng qamrovda jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

– tender savdolarida qatnashuvchi barcha subyektlar vakillarining malakasini oshirishga, umumiy qabul qilingan xalqaro me'yorlar va standartlarning joriy etilishiga yordamlashish.

Davlat byudjeti mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan, narxi 500 mln. so'mgacha bo'lgan obyektlarni qurish va rekonstruksiya ishlarini bajarish uchun pudratchi tashkilot faqat kichik biznes subyektlari orasidan tanlanishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ro'yxati Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan, har bir shartnoma bo'yicha narxi 300 dan 100 ming AQSh dollari ekvivalentidagi alohida turdagi tovarlar bo'yicha davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi

tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolar vositasida amalga oshirilishi alohida ta'kidlangan.

Yuqoridagi Qarorda Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi bir oylik muddat ichida Kichik biznes subyektlari mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash Markazi haqidagi Nizomni o'rnatilgan tartibda ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Moliya Vazirligiga, Iqtisodiyot vazirligiga, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga, O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasiga – birja qoshida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarining malakasini oshirish kurslarini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy bo'nak puli miqdori savdoga qo'yiluvchi tovarlar boshlang'ich narxining uch foizidan oshmasligi, O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasining komission yig'imi miqdori esa – har bir tomondan bitim summasining 0,05 foizidan oshmasligi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu ta'kidlab o'tilgan qulaylik va imtiyozlar respublikamizda kichik biznes subyektlarini rivojlanishiga va ularning davlat buyurtmalarini olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rag'bat hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlaridan xarid etiladigan davlat ehtiyojlari uchun buyurtmalarni kengaytirish orqali, innovatsiyalar va raqobatning oshishi, buning natijasida iqtisodiy o'sishga ta'sir etish mumkinligini xorijiy mamlakatlar tajribasi tasdiqlaydi.

Shuningdek, kichik biznes mahalliy muhitga ham ijobiy ta'sir etadi. Tenderlarda kichik biznes subyektlarining ishtiroki natijasida ko'proq taklifning tushishi, baholarning pasayishiga hamda tovarlar sifatining yuqori bo'lishi bilan buyurtmachilarga qisqa va uzoq muddatli foyda keltiradi.

Mamlakatimizda davlat xarid strategiyasini shakllantirishda, kichik biznesni ishtirokini ta'minlashning xorijiy tajribasini o'rganish muhim hisoblanadi. Davlat uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni kichik biznes subyektlaridan xarid etish davlat,

jamiyat uchun qanchalik foydali bo'lmasin, ushbu jarayonlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan ayrim ortiqcha xarajatlarni baholash muhim ahamiyatga ega.

Buyurtmachi uchun kichik biznes xaridini amalga oshirishning ortiqcha xarajatli tomonlari:

– aynan kichikroq mol yetkazib beruvchi bilan ishlashga harakat qilinganligi uchun xarid etuvchi amalga oshiradigan ortiqcha xarajat. Bu misol uchun, buyurtmachini kichik biznesni yoki kichikroq firmalarni davlat xaridi tizimidan foydalanishiga qulayroq imkoniyat beruvchi axborot tizimini ishga tushirish yoki ushlab turish xarajatlarining ortishi;

– buyurtmachi uchun navbatdagi eng yaxshi muqobil ta'minotchidan xarid qilmasdan, kichik biznesdan xarid qilish o'rtasidagi xarajat farqi;

– yetkazib beriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan farqlar;

– kichik biznes subyektidan qay yo'l bilan xarid qilish usulining buyurtmachi uchun moddiy farqi. Masalan, ushbu – yangi uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishi, yoki shartlashishni ancha qiyin yoki oson qilishi, boshqarishni xarajatli ekanligi, yoki o'zgaruvchan muhitga moslashuvchan bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Davlat xaridini kichik biznes subyektlaridan amalga oshirish bilan hukumatning boshqa organlari zimmasiga tushishi mumkin bo'lgan tashqi xarajat quyidagilaridan iborat:

– kichik biznes ishtirokini kengaytirish yuzasidan markaziy yoki mahalliy tashabbusni rivojlantirish uchun xarajatlar;

– yoki davlatning boshqa buyurtmachilari zimmasiga tushadigan xarajatlari (kichik biznes subyektlaridan xarid qiluvchi tomonidan innovatsiyalarni promoshin qilish yoki yangi ta'minot bozorlariga yuzaga kelishi kabi).

Respublikamizda davlat xaridi tizimini takomillashirish va kichik biznes subyektlarini davlat buyurtmalarida ishtirokini ta'minlash orqali, iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etish masalasiga muhim yo'nalish sifatida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur strategiyani shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni

o'rganish va davlat xaridi siyosatida foydalanish, kichik biznes rivojida muhim ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. *Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish sohalar rivojiga qanday ta'sir etadi?*
2. *Kichik biznes subyektlarini davlat xaridi tizimi orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha Prezidentning 2011-yil 7-fevralidagi PQ-1475-sonli «Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi Qarori mohiyati nimadan iborat?*
3. *Buyurtmachi uchun kichik biznes xaridini amalga oshirishning ortiqcha xarajatli tomonlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?*
4. *Davlat xaridini kichik biznes subyektlaridan amalga oshirish bilan hukumatning boshqa organlari zimmasiga tushishi mumkin bo'lgan tashqi xarajat nimalardan iborat?*
5. *O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etishda kichik biznes subyektlari ishtirokini ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsating.*

MUSTAQIL ISHLAR UChUN MAVZULAR RO'YXATI

1. Davlat xaridi tizimida mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari.

2. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

3. Davlat xaridini samarasini oshirish va uni amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini baholash (Performance management).

4. O'zbekistonda davlat xaridini shaffofligini oshirish muammolari.

5. Davlat xaridini rejalashtirishni takomillashtirish.

6. Davlat xaridini moliyalashtirishda xususiy sektorni jalb qilish yo'llari (Public-Private partnerships).

7. Davlat sektorida investitsion qarorlar qabul qilish asoslari.

8. Davlat xaridi va shartnomalarni boshqarish (Contract management).

9. Davlat sektorida loyihalarni risklarini hisoblash va uni moliyalashtirish usullarini takomillashtirish Davlat xaridini moliyalashtirishning muqobil yo'llari (nodovlat tashkilotlar mablag'lari hisobidan, qarzli moliyalashtirish, xalqaro grantlar, xususiy sektor bilan hamkorlik va h.k).

10. Davlat xaridini tashkil etish bo'yicha kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish muammolari.

11. Davlat xaridini tashkil etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'zlashtirish.

12. G'aznachilikda davlat xaridi uchun to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish yo'llari.

13. Byudjetni shakllantirishda davlat xaridini rejalashtirishni takomillashtirish yo'llari.

14. Davlat xaridi tizimida moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalalari.

15. Davlat xaridini tashkil etishning axborot tizimini shakllantirish yo'llari.

16. Ijtimoiy sohalarda davlat xaridini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish.

17. Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid etish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.

ORALIQ VA YAKUNIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH UCHUN NAMUNAVIY TESTLAR

1. Xarid so'zining ma'nosi nima?

A. Sotib olish;

B. Sotish;

S. Qarzga olish;

D. Xarajatlarni amalga oshirish.

2. Hozirgi paytda O'zbekistonda davlat xaridining miqdori YaIMning necha foizini tashkil etadi?

A. YaIMning 30 foizini;

B. YaIMning 50 foizini;

S. YaIMning 11 foizini;

D. Davlat byudjeti xarajatlarining 80 foizini.

3. Davlat xaridining predmeti nima?

A. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar;

B. Davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan xomashyo materiallar;

S. Davlat xaridi uchun to'lanadigan byudjet mablag'lari;

D. To'g'ri javob yo'q.

4. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridini tashkil etish modeli emas?

A. Markazlashgan;

B. Markazlashmagan;

S. Ijtimoiy;

D. Qisman markazlashgan.

5. Agar loyihani baholashda NPV ijobiy bo'lsa....

A. Bunday investitsiya iqtisodiy asoslangan bo'ladi;

B. Qayta hisoblash talab etiladi;

S. Bunday investitsiya salbiy bo'ladi;

D. NPVga DSDDni qo'shib hisoblash zarur bo'ladi.

6. Davlat sektorining diskont darajasini hisoblash nima uchun zarur?

A. Hisobotlarni to'g'ri taqdim etish uchun;

B. Investitsion qarorlar qabul qilish uchun;

S. Risk bo'lmagan loyihalarni tanlash uchun;

D. Bu ko'rsatkichni hisoblab topish zarur emas.

7. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

A. 2004- yil 26- avgust;

B. 2003- yil 8- avgust;

S. 2008- yil 9- fevral;

D. 2000- yil 14- dekabr.

8. Davlat xaridini tashkil etishga ko'maklashadigan tashkilotga quyidagilarning qaysi kirmaydi?

A. Tijorat banklari;

B. Moliya organlari;

S. Korxonalar;

D. Hisob palatasi.

9. Davlat xaridini tashkil etishni markazlashgan modelining qanday kamchiliklari bor?

A. Tashkil etish qimmatga tushadi;

B. Egiluvchan;

S. Egiluvchan emas, arizada ko'rsatilgan xususiyatlari o'zida aks ettirmaydi;

D. Moliya vazirligi tomonidan nazorat etiladi.

10. O'zbekistonda davlat xaridi to'g'risidagi qonun qachon qabul etilgan?

A. 2009- yil 14- iyun;

B. 2005- yil 28- mart;

S. 2009- yil 26- avgust;

D. Qabul qilinmagan.

11. AQShda davlat xaridini soddalashtirilgan tartibi qachon qo'llaniladi?

A. Shartnoma summasi 100 ming dollar (yiliga 5 mln dollar) dan past miqdorda bo'lganda;

B. Shartnoma summasi 100 ming dollar (yiliga 5 mln dollar) dan yuqori miqdorda bo'lganda;

S. Shartnoma summasi 100 ming dollar (yiliga 25 mln dollar) miqdorda bo'lganda;

D. Tomonlar kelishganda.

12. Yevropada davlat xarid tizimi qaysi tamoyillarga asoslanib tashkil etiladi?

A. Tezkorlik va arzon;

B. Shaffoflik, hisob berishlik va shartlarga amal qilishlik, samarali raqobat, haqqoniylik;

S. Ochiqlik, shaffoflik, tezkorlik, elektron savdolar, markazlashganlik;

D. Samaralik, ijtimoiy, iqtisodiy, nomaxfiylik.

13. Yevropada davlat xaridining quyidagi modellari mavjud...

A. Taqsimlangan, markazlashgan;

B. Aralash;

S. Ochiq, yopiq, ikki pag'onali;

D. Tender, birja, ichki va tashqi.

14. Quyidagilardan qaysi bir Yunsitral tamoyiliga kirmaydi?

A. Ochiqlik va shaffoflik;

B. Munozaralarni hal etish;

S. Kompleks yondoshuv;

D. Kvalifikatsiya.

15. Davlat xaridi jarayonida korrupsiyadan siyosiy yo'qotish nima?

A. Shartnomalarni davlat va jamiyat uchun moliyaviy zararli shartlarda tuzish. Buni sotib olinayotgan tovarlar narxini amaldagi bozor bahosidan yuqori narxlarda sotib olish, davlat shartnomlarida to'lovlarni kechiktirish

emas, balki oldindan to'lovni amalga oshirish shartlarini kiritish va boshqa ko'rinishlarda ko'rish mumkin;

B. Yetkazib berilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmini keragidan ortiq yoki kam miqdorda bo'lishi; tovarlar va xizmatlarni davlat ehtiyojlari uchun emas, balki mas'ul amaldorlarning shaxsiy maqsadlari uchun xarid etish va boshqalar;

S. Sifatsiz tovarlar yetkazib berish va xizmatlar bajarish kabi zaruriy texnik talablarni buzgan holda shartnomalarni tuzish; kafolat muddati va kafoltat muddatidan so'ngi shartlarni bajarilishining noqulay shartlari; bajariladian ishlar va xizmatlar sifatini tekshirish uchun etarli nazoratning talab etilmasligi va hakozolar;

D. Mamlakatda investitsion muhitning yomonlashuvi, fuqarolar tomonidan davlat va davlat tuzilmalariga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, mamlakat iqtisodiy-moliyaviy tizimining izdan chiqishi, erkin raqobat tamoyillarining buzilishi va boshqalar.

16. Korrupsiya muammosini hal etishga 4 xil yondoshuv ...

A. Jazo chora-tadbirlarini qo'llash, texnik usullar, kuzatuv, nazoratchilarni yollash

B. Psixiologik usullar, tartibga soluvchi jarayonlar, texnik usullar, jazo chora-tadbirlari

S. Psixiologik usullar, tartibga soluvchi jarayonlar, iqtisodiy usullar, jazo chora-tadbirlari

D. Jamoat yordami, tartibga soluvchi jarayonlar, texnik usullar, jazo chora-tadbirlari.

17. Etika kodeksi...

A. Xodimlarning axloqiy etikasi va qoidasi, qiziqishlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal etish yo'llari o'z ifodasini topgan;

B. Nafaqat xaridni amalga oshiruvchi amaldorlarni moliyaviy rag'batlantirishni bildiradi, balki u xodimni ish beruvchi bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish xohishini rag'batlantiruvchi, masalan tashkilotda o'z professional karerasini amalga oshirish kabi, maxsus dasturlardan tashkil topadi;

S. Yaxshi kiyinish va so‘zlashish;

D. Tijorat sektori tuzilmalarida keng qo‘llaniladi va asosan, ushbu funksiya ichki xavfsizlik bo‘linmasining vazifasiga kiradi.

18. Davlat xaridi bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad nima?

A. O‘zbekistonda shakllantirilayotgan davlat xaridi tizimi mavjud oldingi tizimdan farq qiladi. Shu sababli yangi tizimini shakllantirishda xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega;

B. Mavjud xalqaro qonunchilik talablari shuni talab qiladi;

S. AQSh, EI va XMTlari O‘zbekiston uchun strategik sheriklar hisoblanadilar;

D. Davlat byudjeti mablag‘larini tejash imkonini beradi. Davlat xaridi miqdorini oshirib, ijtimoiy tanglikni yumshatadi.

19. «Davlat buyurtmasi forumi» nima?

A. AQShda davlat organlari faoliyatini jamoat nazoratiga olish uchun tuzilgan tashkilot bo‘lib, u mashhur davlat arboblaridan tashkil topgan bo‘ladi;

B. Yirik xalqaro maslahat tashkiloti;

S. Germaniyada ekspertlar va olimlardan tashkil topgan jamoat tashkiloti bo‘lib, forum doirasida doimiy fikrlar almashinuvi, mamlakat ichkarisida va tashqarisida davlat xaridi sohasida yuzaga kelayotgan yangi ko‘rinishlarga munosabat shakllantriladi;

D. To‘g‘ri javob berilmagan.

20. «Chegaralovchi omil« tushunchasi nimani bildiradi?

A. Bu talabgorlar o‘z tanlov takliflarini qiymatini hisob-kitob qilishi uchun zarur va etarli bo‘lgan xarid qilinayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori va xarakteristikasi, ishlarning bajarilish (tovar yetkazib berish, xizmatlar) muddati;

B. Kelgusi yil uchun davlatning iqtisodiyotga xarajatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti daromadlari ma’lumotlarning so‘ralgan xarajat moddalarini moliyaviy ta’minlash imkoniyatlari hisoblanadi;

S. Bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so‘zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va’da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo‘lib, ma’lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma’lum bir harakatlarni amalga oshirishi;

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

21. Tender savdolaridan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

A. Davlat ehtiyojlari uchun qilindigan xaridning bahosi va sifati o‘rtasida optimal darajaga erishish;

B. Byudjet mablag‘larin tejash;

S. Eng arzon tovarlar va xizmatlarni xarid etish;

D. Davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish va qisqartirish.

22. Qanday tenderlar Ochiq tenderlar deyiladi?

A. Mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, barcha shaxslar qatnashishi mumkin;

B. Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo‘ygan tashkilotlar ishtirokida o‘tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo‘natiladi;

S. Ochiq savdo maydonlarida o‘tkaziladi;

D. Faqat uzoq muddatli shartnomaga ega tashkilotlar qatnashishi mumkin bo‘ladi.

23. Qanday tenderlar Yopiq tenderlar deyiladi?

A. Mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, barcha shaxslar qatnashishi mumkin;

B. Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo‘ygan tashkilotlar ishtirokida o‘tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo‘natiladi;

S. Yopiq savdo maydonlarida o‘tkaziladi;

D. Faqat uzoq muddatli shartnomaga ega tashkilotlar qatnashishi mumkin bo‘ladi.

24. Quyidagilarning qaysi biri tenderlarni tashkil etish tamoiyliga kirmaydi?

A. Oshkoralik va tenglik;

B. Obyektivlik va ustuvorlik;
S. Takroriylik va tenglik;
D. Ustuvorlik va oshkoralik.

25. Davlat xaridining nazorat tizimi o'z ichiga....oladi.
A. Korrupsiyaga qarshi kurash, xodimlarni tekshirish, texnik nazoratni;
B. Birlamchi, joriy, yakuniy nazoratni;
S. Faktlar asosida tekshirish, hujjatlashtirish, jazolash tadbirlarini;
D. Birlamchi, yakuniy va rejali nazoratni.

26. Kapital qurilish sohasida davlat xaridini tashkil etishda baholar monitoringini olib borish qaysi huquqiy asosga ko'ra amalga oshiriladi?
A. Moliya vazirligining 2007- yil 9- aprelidagi 798-sonli buyrug'i asosida amalga oshiriladi;
B. Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 5- avgustidagi 305-sonli Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida amalga oshiriladi;
S. To'g'ri javob keltirilmagan;
D. O'zRning Davlat byudjeti tizimi to'g'risidagi qonuniga muvofiq.

27. Davlat xaridini rejalashtirishda mavjud muammolarning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi....
A. Mablag'larning chegaralanganligi, xarajat-foyda usulidan foydalanish, kasbiy mahoratning yetarli emasligi;
B. Obyektivlik va ustuvorlik hamda takroriylik va tenglik tamoyillarining yetishmasligi;
S. Byudjet tizimining takomillashmaganligi, xaridni rejalashtirish uslubiyotining yetishmasligi, byudjet daromad va xarajatlarini rejalashtirish sifatining pastligi;
D. Investitsion dasturlar miqyosining kengligi, byudjetning g'azna ijrosining takomillashmaganligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi.

28. Davlat investitsion dasturlariga kiritiladigan loyihalar nechta bosqichda tanlab olinadi?
A. Markazlashgan tarzda;

B. Ikki bosqichda;
S. Uch bosqichda;
D. Umumiy tarzda.

29. Majburiyat bu...

A. Bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi;

B. Tomonlardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi tomon esa, tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv;

S. Byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng, tovarlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi;

D. Yuridik majburiyatga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi.

30. Xo'jalik shartnomasi bu...

A. Bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi;

B. Tomonlardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish

majburiyatini oladigan, ikkinchi tomon esa, tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv;

S. Byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng, tovarlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi;

D. Yuridik majburiyatga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi.

31. Yuridik majburiyat bu...

A. Bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi;

B. Tomonlardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi tomon esa, tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv;

S. Byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng, tovarlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi;

D. Yuridik majburiyatga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi.

32. Moliyaviy majburiyat bu...

A. Bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga

oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi;

B. To'g'ri javob keltirilmagan;

S. Byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng, tovarlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi;

D. Yuridik majburiyatga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalari va boshqa shu kabi hujjatlar.

33. Mahsulotlar sotib olish uchun byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishning uch bosqichli tizimida ikkinchi bosqich bu...

A. Ofertani qabul qilib olish;

B. Shartnomani g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish;

S. Shartnomani akseptlash;

D. Baholar monitoringini amlga oshirish.

34. XAOR nima?

A. Xarajatlarni amalga oshirishni rejalashtirish;

B. Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat;

S. Xarajatlarni akseptlash orqali rejalashtirish;

D. To'g'ri javob keltirilmagan.

35. Xizmatlar ko'rsatish uchun savdolar bu....

A. Pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash va kerakli xizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida obyektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatasiya xizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat;

B. Texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat etish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlarga yo'naltirilgan bo'ladi;

S. Davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Savdoning predmeti bo'lib, asbob-uskunalarni ishlab chiqish, tayyorlash, yetkazib berish, montaj va uni ishga tushirish, shuningdek, yetkazib berilgan tovarlarni keyingi ekspluatasiyasi bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar, masalan, texnik xizmat ko'rsatish, remont, personalni o'qitish va sotuvdan keyingi xarajatlar;

D. To'g'ri javob keltirilmagan.

36. Quyidagi omillarning qaysi tenderda g'olibni aniqlash omili hisoblanadi?

A. Geografik belgi va litsenziyalar;

B. Baho va tajriba;

S. Korrupsiya va menejment;

D. Baho va sifat.

37. Quyidagi huquqiy aktlarning qaysi biri tovarlar sotib olish bo'yicha tenderlarda g'olibni aniqlash bo'yicha yo'riqnomalarni o'zida aks ettirgan?

A. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998- yil 29-avgust;

B. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom;

S. O'zR Adliya vazirligi tomonidan 21.05.2005- yilda 1475 raqami bilan ro'yxatga olingan, O'zR Moliya vazirining 05.05.2005- yildagi 63-sonli Buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliya organlarida byudjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarjatlari to'lovini nazorat qilish tartibi haqida vaqtinchalik» Nizom;

D. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Makroiqtisodstat vazirligi va Davarxitektqurilish qarori bilan tasdiqlangan «Buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan davlat byudjeti mablag‘lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga moliyalanadigan qurilish obyektlari uchun xarid qilinadigan uskunalar, binokorlik materiallari va konstruksiyalarining eng yuqori baholarini belgilash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.

38. Tovarlar yetkazib berish uchun tenderlarda g‘olibni aniqlashda baho-sifat omilining nisbati qanday bo‘ladi?

A. 50:50 nisbatda;

B. 100:0 nisbatda;

S. 80-20 nisbatda;

D. Aniq nisbat mavjud emas.

39. Tovarlar va bajariladigan ishlar uchun tenderlarni tashkil etishda ularning qanday farqli xususiyatlari mavjud?

A. Tovarlar ham miqdoriy ham sifat ko‘rsatkichlarini ifodalash oson bo‘lgan xarid predmeti hisoblanadi;

B. Pudrat ishlarining kompleks tusga ega ekanligi, qator noma’lum va o‘zgaruvchan o‘lchamlarning mavjudligi sababdan, ushbu ishlarni batafsil ifodalash ancha murakkab holatdir;

S. A va B javob to‘g‘ri;

D. Faqat A javob to‘g‘ri.

40. Xizmatlar ko‘rsatish uchun tender savdolarida asosiy e’tibor beriladigan omil bu...

A. Baho;

B. Sifat;

S. Texnik yordam;

D. Kompleks baholash.

41. Internetda nashr etish bu...

A. Davlat buyurtmachisi yoki unga tegishli idora vebsaytining elektron doskasida e’lon berish

B. Savdolar haqidagi ma'lumotlarni internetdan olish;

S. Elektron texnologiyalardan foydalanish samarasiga bog'liq;

D. A va B javob to'g'ri.

42. Raqamli imzo bu.....

A. Hujjatlarni internet orqali jo'natishda imzo chekuvchini aniqlashga imkon beruvchi mexanizm;

B. Oldin raqamlar aniq ko'rsatilib, so'ng imzo chekish;

S. Elektron imzo turi bo'lib, ushbu texnologiya elektron hujjatni aynan kim imzolaganini aniqlash imkonini beradi;

D. A va S javoblar to'g'ri.

43. Tanlov asosida savdolarni tayyorlash va tashkil etishning nimunaviy modelida uchinchi bosqich qanday nomlanadi?

A. Shartnoma tuzish;

B. Konvertlarni ochish va g'olibni aniqlash;

S. Tanlov hujjatlarini tayyorlash;

D. Tanlov hujjatlarini taqdim etish.

44. Tanlov asosida savdolarni tayyorlash va tashkil etishning nimunaviy modelida «tanlov shartlarini tushuntirish» bu...

A. Yakuniy bosqich;

B. «Tanlov haqida ma'lumotlarni nashr etish»dan sung amalga oshiriladigan bosqich;

S. «Tanlov arizalarini yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish»dan oldin bajariladigan bosqich;

D. A va S javoblar to'g'ri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari me'yoriy-huquqiy hujjatlari

1.1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

1.1.1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996- yil 29-avgust.

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni 2000- yil 14- dekabr.

1.1.3. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni. 1998- yil 29- avgust.

1.1.4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni. 2004- yil 26- avgust.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda vazirliklar buyruq va yo'riqnomalari:

1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom.

1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2003- yil 3- iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida» Nizom.

1.2.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Makroiqtisodstat vazirligi va Davarxitektqurilish qarori bilan tasdiqlangan «Buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari va hukumat

kafolati ostidagi kreditlar hisobiga moliyalanadigan qurilish obyektlari uchun xarid qilinadigan uskunalar, binokorlik materiallari va konstruksiyalarining eng yuqori baholarini belgilash tartibi to'g'risida»gi Nizomi.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009- yil 16- sentabrda ro'yxatgan olingan 2007-sonli «Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari»;

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009- yil 16- aprelda ro'yxatgan olingan 1941-sonli «Mudofaa majmui va huquqni muhofaza qilish organlari muassasalari va tashkilotlarining byudjet xarajatlari va boshqa maxfiy xarakterga ega bo'lgan byudjet xarajatlarning g'azna ijrosi tartibi haqida» Nizom.

1.2.6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009- yil 19- mayda ro'yxatgan olingan 1969-sonli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turadigan tashkilotlarning set, shtat va kontingentlari bo'yicha rejaning bajarilishi to'g'risidagi choraklik va yillik hisobotlar shakllarini tasdiqlash haqida» buyrug'i.

1.2.7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007- yil 5- dekabrda ro'yxatdan o'tgan 1746-sonli «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida byudjetdan mablag' oluvchilarning hisobvaraqlarini yuritish qoidalari».

1.2.8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000- yil 5- avgustda ro'yxatdan o'tgan 305-sonli «Hukumat kafolati ostida va davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari uchun, buyurtmachilar va pudrat tashkilotlari tomonidan sotib olinadigan qurilish materiallari va konstruksiyalarning maksimal narxlarini o'rnatish tartibi bo'yicha yo'riqnoma».

1.2.9. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. 1–3 jild. – T.: O'zbekiston. 2002- yil.

II. Kitob va turkum nashrlar

2.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqola to'plamlari

a) bir muallif:

2.1.1. *А. Балтин.* «Финансовые системы зарубежных стран». Учебное пособие. – М.: ФиС. 2007. 304 стр.

2.1.2. *У. Бурханов.* Государственные закупки. – Т.: «UzInfoCom». 2010. 156 стр.

2.1.3. *А. Нешитой.* «Финансы». Учебник. – М.: «Дашков и К». 2007. 512 стр.

2.1.4. *М. Романовский.* «Финансы». Учебник. – М.: «Юрайт». 2008. 462 стр.

2.1.5. *N. Haydarov.* Davlat moliyasini boshqarish. O'quv uslubiy qo'llanma, – T.: Akademiya. 2005. 84 b.

2.1.6. *В. Ковалева.* «Финансы». Учебник. – М.: изд. Проспект. 2008. 640 стр.

2.1.7. *А. Храмкин.* Международный опыт построения системы госзакупок. http://www.epgz.ru/_goszakaz

2.1.8. *Н. Максимов.* Факторы цены и качества в международной практике тендерных торгов. http://www.vneshmarket.ru

2.1.9. Yescombe E. Public-private partnerships. Principles of policy and finance. Published by Elsevier ltd. UK. 2007.

2.1.10. Ann Norton. Integrated Management. CIMA official learning system. Elsevier. Oxford. 2009.

b) ikki muallif:

2.2.1. *T. Malikov, N. Haydarov.* «Davlat byudjeti» o'quv qo'llanma. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2007, 84 b.

2.2.2. *T. Malikov T., N.Xaydarov.* «Byudjet daromadlari va xarajatlari» o'quv qo'llanma, – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007, 245 b.

2.2.3. *T. Malikov, N. Haydarov.* «Byudjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni» o'quv qo'llanma, Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2008, 84 b.

2.2.4. *М. Оллоёров, Д. Хомурадов.* Система Государственных закупок в Узбекистане.

2.2.5. *В.Н. Нестерович, В.И. Смирнов.* Конкурсные торги на закупки продукции для государственных нужд. – М.: Инфра-М, 2000. 360 с.

2.2.6. Salvatore Schiavo-Campo, Daniel Tommasi. Managing Government Expenditure. ADB. 1999.

2.2.7. Thomas Dohrmann, Lenny Mendonca. Boosting Government productivity. The online journal of McKinsey &Company. November 2008.

v) mualliflar jamoasi:

2.3.1. *A. Vahobov, U. Burxanov. N. Jumayev.* Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik. – T.: O'zbekiston. 2003.

2.3.2. *A. Vahobov va boshqalar.* Byudjet – soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod va moliya. 2005. 264 b.

2.3.3. *A. Vahobov va boshqalar.* Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod va moliya. 2008. 260b.

2.3.4. С. Фишер и др. Экономика. Перевод с английского. Москва. Дело лтд. 1995. 514 стр.

2.3.5. *М. Горбунов-Посадов, А. Эрмаков, Д. Корягин, Т. Полилова.* Предпосылки развертывания электронных торгов для государственных нужд. Препринт ИПМ им. М.V. Келдыша РАН, 2001, № 38. – 16 с.

III. Statistik to‘plamlar va internet saytlari materiallari:

3.1. О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования.

3.2. Аналитическая записка. UNDP. Ташкент. 2008.

3.3. UNCTAD E-commerce and e-development report. 2004.

3.4. Impact Assessment of an Action Plan on electronic public procurement. Ramboll Management. 2004.

3.5. APCC (Совет Австрии по закупками и строительству). Ежегодный отчет (2000–2001 гг). http://www.apcc.gov.au;

3.6. Федеральная целевая программа «Электронная Россия». http://www.e-russia.ru/program.

3.7. http://publicfinance.uz/materials
3.8. www.b2g-goszakupki.ru
3.9. http://www.worldbank.org.ru
3.10. http://europa.eur.int
3.11. http://www.cnews.ru/reviews/free/gov2005/part8/europe.shtml
3.12. www.dgmarket.uz
3.13. www.minfin.ru
3.14. www.mf.uz
3.15. www.budget.ru

MUNDARIJA

Kirish.....3

I bob. Davlat xaridining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari

1.1 Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....6
1.2 Davlat xaridini tashkil etishning milliy va xalqaro huquqiy asoslari.....12
1.3 Davlat xaridini tashkil etish modellari.....19

II bob. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish mexanizmi

2.1. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarishning joriy holati.....34
2.2 Tender savdolarini tashkil etish va xaridni amalga oshirishda baholar monitoringi.....49
2.3 Tender savdolarida g'olibni aniqlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....62

III bob. Davlat xaridini tashkil etishning xorijiy tajribasi

3.1 Davlat xarid tizimini boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....75
3.2 Davlat xaridini tashkil etishda korrupsiya va unga qarshi kurash.....96

IV bob. Davlat xaridini tashkil etish strategiyalari

4.1 Davlat xaridini elektron tizimini ishlab chiqish strategiyalari.....103
4.2 Davlat xaridi tizimini boshqarish orqali kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ta'sir etish.....117
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....137

Umar BURXANOV,
To'lqin ATAMURADOV

DAVLAT XARIDI

Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir ***Oybek Kanayev***
Badiiy muharrir ***Yasharbek Rahimov***
Texnik muharrir ***Yelena Tolochko***
Kompyuterda sahifalovchi ***Gulbayra Yeraliyeva***

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 25.07.2012. Bichimi 60×84 1/16. Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 8,37. Nashr b.t. 7,28. Shartnoma № 58–2012. 500 nusxada. Buyurtma № T-20.

Original-maket O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi 1.